


ВАХТ КАЛИТИ

НАҚИДА РИВОЯТ



•JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN•

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

BAXT KALITI HAQIDA RIVOYAT

Hikoyalar



ZIYO NASHR

Toshkent

2022

UO'K 821.134.3(81)-32

KBK 84(7Bra)-445

K 54

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Erkin A'zam,
Kurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Ushbu to'plamni Paulo Koeloning „Baxt kaliti haqida rivoyat“ nomli hikoyasi bilan nomladik. Shuningdek, ushbu to'plamdan jahon adiblarining dunyoning turli tillariga tarjima qilingan hikoyalari ham o'r'in olgan.

Abdulla Qodiriy nomidagi

viloyat AKM

INV № 2023/8-18

ISBN 978-9943-8577-0-4

© Qandilat Yusupova va b. (tarj.).
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqımız. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad al-Farg'oni, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yughnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nighoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganları, xorij mutafakkirları yozgan asarlarni tarjima qilganları bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarları bo'lgan.

Biz bugun, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytida, o'tmishta yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasi izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarurdir.

Xalqımız ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladı. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jiddlikda Ch. Dikkens, L. N. Tolstoy, A. Dyuma, N. V. Gogol, O.de Balzak, A. P. Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G. G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarları bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Dundar Alp, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandr, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga tuyasiz.

Mazkur yuz jiddlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimi, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rın olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratlari tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingen namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jiddlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy mezonlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jiddligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdag'i juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar, degan umiddamiz.

Yaratgan Allah ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, joyajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

BAXT KALITI HAQIDA RIVOYAT

Bir savdogar o'g'lini eng katta donishmandning huzuriga baxtning kaliti – sirini bilib kelish uchun jo'natibdi. Yigit sahroda qirq kun yo'l yuribdi va nihoyat, ulkan tog'ning tepasida haddan ziyod muhtasham bir qasrni ko'ribdi. U qidirgan Donishmand shu qasrda yashar ekan.

Kutganiga zid o'laroq qasr avliyo odamning xilvat go'shasiga o'xshamasdi. Uning ichi odamga to'la edi: savdogarlar mollarini maqtab har tomon yugurishar, burchak-burchaklarda odamlar to'p-to'p bo'lib gurunglashar, sozandalarning kichik bir dastasi qandaydir nafis kuyni ijro etar, zalning o'rtasida esa kattakon stol, uning ustiga dasturxon tuzalgan, dasturxon esa bu yurtning eng noyob va tansiq taomlari, bag'oyat xushta'm noz-ne'matlariga to'la edi.

Donishmand shoshmasdan mehmonlar bilan birma-bir ko'rishib chiqdi. Yigit navbati kelishini ikki soatcha kutib qoldi.

Nihoyat, Donishmand yigitning nima maqsad-da kelganini bildi, lekin hozir unga baxtning kaliti – siri nimada ekanini tushuntirib berishga vaqt yo'q ekanini aytdi. Donishmand yigitga chiqib qasrni tomosha qilishni va ikki soatlardan keyin bu yerga – zalga qaytib kelishni buyurdi.

„Sendan yana bir iltimosim bor, – dedi u yigitga ichiga ikki tomchi yog‘ solingan choyqoshiqni uzatib. – Bu qoshiqni o‘zing bilan olib yur, faqat ehtiyyot bo‘l, ichidagi yog‘i to‘kilib ketmasin“.

Yigit qoshiqdan ko‘zini uzmagan holda qasrnaylandi, uning zinalaridan tepaga ko‘tarildi, pastga tushdi va nihoyat, ikki soat o‘tgach, Donishmandning ro‘parasida yana namoyon bo‘ldi.

„Xo‘sish, qalay, – deb so‘z qotdi Donishmand. – Koshonadagi fors gilamlari senga manzur bo‘ldimi? Benihoya mirishkor bog‘bonlar o‘n yildan beri ko‘zining oq-u qorasidek avaylab parvarish qilayotgan bog‘dagi gullar va daraxtlar yoqdimi? Kutubxonadagi qadimiy kitoblar va nodir qo‘lyozmalar-chi?“

Xijolatdan qizarib ketgan yigit bularning hech qaysisini ko‘rmaganini tan oldi, negaki, uning butun diqqat-e’tibori Donishmand ishonib topshirgan ikki tomchi yog‘da bo‘lgan edi.

„Bor, orqangga qayt, uyimdagи hamma mo‘jizalarni ko‘rib kel, – dedi Donishmand. – Odam qayerda va qanday yashashini bilmay turib, unga ishonib bo‘lmaydi“.

Qo‘lida qoshiqcha bilan yigit yana zallar va yo‘laklar bo‘ylab aylana boshladi. Bu gal u o‘zini ancha erkin his qildi va xonalarni bezab turgan hamma noyob va g‘aroyib narsalarni ko‘rdi. U bog‘larni va qasr tevaragidagi tog‘larni tomosha qildi, gullar jozibasidan mohirlik bilan joylashtirilgan haykallar-u rasmlardan bahra oldi. Donishmandning huzuriga qaytib kelib, ko‘rgan narsalarining hammasini birma-bir sanab berdi.

„Qoshiqchadagi yog‘ qani?“ – deb so‘radi Donishmand.

Shu chog‘ yigit qarasaki, yog‘ to‘kilib ketgan ekan.

„Senga berishim mumkin bo‘lgan birdan bir maslahatim ham shu, – dedi donolar donosi. – Baxtning kaliti – siri ana shunda: bu dunyoni bezab turgan, unga joziba, ajiblik ato etgan nimai-ki bo‘lsa, hammasini ko‘ra bilmoq kerak va ayni chog‘da o‘sha choyqoshiqdagi ikki tomchi yog‘ni ham zinhor-bazinhor unutmaslik zarur“.

Ozod Sharafiddinov tarjimasi

OQ YO'L, JANOB PREZIDENT!

U kimsasiz bog'da, sarg'aygan yaproqlar ostidagi taxta o'rindiqda hassasining kumush tutqichiga tayangan holda, chang bosgan oqqushlarga tikilgancha, o'lim haqida o'ylab o'tirardi. Jenevaga ilk bor kelgan vaqtida ko'l osuda va shaffof edi, qo'nga o'rgatilgan chaykalar uchib kelar va kaftidagi yegulikni cho'qib yerdi, burma ko'ylak va ipak shlyapa kiyib olgan ayollar esa, oqshom soat oltida arvohga o'xshab ko'rinardi. Ularni pulga yollash mumkin edi. Endi bo'lsa, bo'm-bo'sh sohilda gul sotuvchi ayoldan boshqa kimsa yo'q. Vaqt faqat uning hayotinigina emas, tevarakatrofini ham ana shunday ostin-ustun qilishga qodir ekaniga zo'rg'a ishonish mumkin.

Noma'lum kimsalarga to'lib-toshgan bu shaharda u ham bir noma'lum kishi edi. Oq chiziqli to'q ko'k kostyum, zarbof nimcha va istefodagi sudyalar kiyadigan dag'al shlyapada, mo'ylovi kallondimog' mushketyorlarnikiga o'xshab ko'kish tovlanadi, qalin, jingalak sochlari parishon, qo'llari baayni arfa cholg'uvchi ayollarnikidek, chap qo'lining nomsiz barmog'ida bevaligini ko'rsatadigan uzuk, ko'zlari masrur. Faqat biroz tirishgan terisigina sog'ligini yo'qotganini ayon etib turardi. Shunday bo'lsa-da, u yetmish yoshida ham o'ta po'rim. Ammo o'sha tongda unda manmanlikdan

asar ham yo'q edi. Shuhrat va hukmronlik davri qaytmaydigan darajada ortda qolib ketgan, endi faqat o'lim zamoni kelgandi.

Martinikadagi vrachlar hecham aniqlay olmagan kasalligining sababini nihoyat bilib olish uchun ikkita jahon urushidan keyin Jenevaga qaytib kelgandi. U, bu yerda ikki haftadan ko'p qolmoqchi emasdi, lekin, mana, qariyb olti hafta bo'ldiki, tinkani quritadigan tekshiruvlarga giriftor qilishdi. Bu tekshiruvlarning oxiri yo'qday tuyular, ular aniq natija bermayotgan edi. Jigari, buyragi, oshqozonosti bezi va prostata bezini tekshirib ko'rishdi, holbuki, bu yerdarda ishkal yo'q edi. Nihoyat, uni tekshirgan bir to'da doktorlar dan eng mashhuri mash'um payshanba kunlarining birida asab xastaliklari bo'limiga ertalab soat to'qqizga kelishni tayinladi.

Kabinet rohiblarning hujrasiga o'xshardi. Pakana va g'amgin doktorning o'ng qo'li bosh barmog'i singani uchun gipslangan edi. Chiroq o'ch-gach, ekranda umurtqaning surati paydo bo'ldi. Doktor tayoqcha bilan beldan pastroqdagi ikki bo'g'in birlashgan joyni ko'rsatmaguncha, u bu umurtqa o'ziniki ekanini tan olmadidi.

— Og'riq mana shu joyda, — dedi doktor.

U bu darajada oddiy bo'lmasa kerak, deb hisoblardi. Chunki og'riqni tushunib bo'lmas, u kezib yurar, goh o'ng biqinida, goh qornining os-tida paydo bo'lar, to'satdan chovi sanchib qolar-di. Doktor uning so'zlarini tayoqchani ekrandan olmasdan jimgina eshitdi.

— Shuning uchun ham uni shuncha vaqt to-polmadik-da, — dedi u. — Lekin endi bilib oldik, u xuddi mana shu joyda.

Shundan keyin u ko'rsatkich barmog'ini chakkasiga tiradi-da, aniqlik kiritdi:

– Qat'iy aytamanki, janob Prezident, butun og'riq xuddi mana shu joyda.

Tekshiruvlarda shu darajada azob tortgandiki, oxirgi hukm muruvvatli bo'lib tuyuldi: Prezident muqarrar suratda va tavakkaliga operatsiya qilinishi lozim edi. Prezident tavakkal darajasi nechog'lik ekanini so'radi, keksa doktor mutlaqo noma'lum bo'lgan bu masalaga mujmal javob berdi.

– Har holda, buni aytish qiyin, – dedi u.

Shunday bo'lsa-da, yaqin-yaqinlargacha bu-naqa operatsiyalarda natijaning mash'um oqibat bilan tugash ehtimoli juda katta bo'lganini, lekin ish ko'pincha turli darajadagi falaj bilan yakunlanganini ilova qildi. Biroq keyingi ikki jahon urushida meditsina erishgan yantuqlar tufayli bunday tahlikalar ortda qolib ketgan.

– Xotirjam ketavering, – dedi u so'zini yakunlar ekan. – Yaxshilab tayyorlaning va bizga xabar bering. Shuni unutmangki, qancha erta bo'lsa, shuncha yaxshi.

Bundan yomon yangilikni hazm qilish uchun bu erta juda bexayr edi. Buning ustiga havo ham aynib turgan bo'lsa. U mehmonxonadan juda barvaqt, palto kiymay chiqqan, chunki derazadan quyosh charaqlab turganini ko'rgan edi. Ohista yurib, shifoxona joylashgan Shmen-de-Bo-Soley ko'chasidan Ingliz bog'idagi Yashirin sevishganlar boshpanasiga qadar bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. U bog'da bir soatdan ko'proq to'xtovsiz o'lim haqidagi o'ylab o'tirdi. Shu pallada birdaniga kuz izg'irini esdi. Ko'l bo'ronda qolgan okeanga o'xshab

to'lqinlandi, qattiq esgan shamol chaykalarni to'zitib yubordi, daraxtlardagi so'nggi yaproqlarni uchirib ketdi. Prezident oyoqqa qalqdi va gulchi ayoldan gul sotib olish o'rniga, bog'dagi tuvaklarda o'sayotgan dastorguldan bittasini uzib, ko'kratgiga taqib oldi. Gulchi hayron bo'ldi.

– Bu gullar Tangrining moli emas, – dedi u norozi bo'lib. – Bu gullar poshsholikniki.

U pinagini ham buzmadi. Hassasining o'rta-sidan tutib, oliftalardek o'ynatgancha katta va shaxdam qadam tashlab uzoqlashdi. Mon-Blansh ko'prigi ustiga osilgan Konfederatsiya bayroqlarini shamol yirtib yubormasin, deya shosha-pisha yig'ishtirib olishgan, ko'pirib yotgan baland favvorani oldindanoq berkitishgan edi. Prezident sohilda joylashgan o'ziga yaxshi tanish qahvaxonani tanimay qoldi – yashil matodan qilingan bostirmani avvalboshdanoq yig'ishtirib olishgan, endi bo'lsa, gultuvaklar joylashtirilgan ayvonni berkitayotgan edilar. Kuppa-kunduz bo'lishiga qaramay, zalda chiroqlar yonib turardi, cholg'uchilar allaqachon Motsart kuylarini ijro etishga kirishgandilar. Prezident peshtaxtada mijozlarga atab qo'yilgan gazetalardan bittasini oldi, hassasi va shlyapasini ilgichda qoldirdi, stulga o'tirib o'qishga chog'lanarkan, tilla gardishli ko'zoynagini taqdi va shundagina kuz kirganini tushundi. U xalqaro sahifadan boshlab o'qiy boshladi. Bu yerda Lotin Amerikasi mamlakatlari haqidagi xabarlar juda kam edi. U ofitsiant qiz, odatdagidek, unga bir shisha „Evian“ mineral suvi keltirguncha, shu tariqa oxirgi sahifadan to birinchi sahifagacha o'qiyverdi. Mana, o'ttiz yil bo'libdiki, u vrachlar tayinlagani uchun qahva ichish odatidan

voz kechgan. Lekin o'ziga o'zi: „Qachon o'lishimni aniq bilganimdan keyinoq yana qahva ichishni boshlayman“, derdi. Ehtimol, o'sha vaqt kelgan ham bo'lsa kerak.

– Menga qahva ham keltirsangiz, – deb buyurdi u fransuzchani qoyillatib. Tortinmay qochirim ham qilib qo'ydi, – o'liklarni ham tiriltiradigan italyancha xilidan bo'lsin.

U qahvani shakar aralashtirmasdan, qultumlab uzoq ichdi, so'ngra finjonne taqsimchaga to'n-kardi. Necha yillardan beri qilmagan ishini qilib, qahva quyqasiga qarab, taqdirida nimalar borligini bilmoqchi bo'ldi. Qahvaning tanish mazasini yana his qildi, bir lahzaga og'ir xayollardan chalg'idi. Ko'p o'tmay, xuddi o'sha afsungarlik davom etayotganday, kimdir unga tikilib turganini his qildi. U go'yo bexosdan qilganday sahifani ag'dararkan, ko'zoynak ustidan qaradi va sportchilar qalpog'i, ag'darma teri kurtka kiyib olgan, soqoli olinmagan rangpar yigitni ko'rdi. Yigit ko'zlar to'qnash kelmasligi uchun shu zahotiyon qoshqa tomonga qaradi.

Uning yuzi tanish edi. Ular kasalxona ayvonida bir necha bor to'qnash kelishgandi. Bundan tashqari, oqqushlarni tomosha qilib o'tirganda, bu yigitning Promenad-dyu-Lak ko'chasidan yengil mototsikl haydab o'tganini ko'rgandi. Lekin biror marta bu yigit uni tanishini his qilmagan edi. Biroq u shunchaki xomxayolga, quvg'in tufayli paydo bo'lgan ta'qib vasvasasiga berilgan bo'lishi ham ehtimoldan yiroq emasdi.

U Bramsning nafis kuylaridan huzurlanib, og'riq musiqaning ta'sir kuchidan ustun chiqqunga qadar shoshilmay gazeta o'qidi. Shundagina u

nimchasining cho'ntagida olib yuradigan zanjirli oltin soatini olib qaradi va tush payti ichishi lozim bo'lgan ikkita hapdorini „Evian“ning qolgan-qutgan qultumi bilan yutdi. Ko'zoynagini olishdan oldin u qahva quyqasiga qarab, fol ochmoqchi bo'ldi va seskanib ketdi: tamoman mavhum!

Nihoyat, hisob-kitob qildi, gadoga berayotganday ozgina choychaqa tashladi, ilgichdan hassasi va shlyapasini olib, ko'chaga chiqdi. Orqasidan kuzatayotgan odamga qayrilib ham qaramadi. U shaxdam qadamlar bilan nari ketdi, shamolda singan gultuvaklarni aylanib o'tdi va shayton vasvasasidan qutulishga muvaffaq bo'ldim, deb o'yladi. Biroq orqasidan kimdir kelayotganini qo'qqisdan sezdi: muyulishga qayrildi, to'xtadi va xiyol o'girildi. Ta'qib qilib kelayotgan kishi unga urilib ketmaslik uchun birdan to'xtadi va shundoqqina ro'parasida turgan Prezidentga baqraygancha qarab, qo'rquvdan qotib qoldi.

- Sinyor Prezident, – g'uldiradi u.
- Sizni yollaganlarga borib aytинг, xomxayolga berilib yurmasinlar, – dedi Prezident jilmaygancha maftunkor ovozda. – Sog'lig'im a'lo.
- Buni menden yaxshiroq biladigan odamning o'zi yo'q, – dedi notanish kishi Prezidentning salobati ostida ezilib. – Men kasalxonada ishlayman.
- Uning lajhasi ham, so'zlash ohangi ham, hatto, jur'atsizligi ham sof karibcha edi.
 - Nahotki vrach bo'lsangiz? – so'radi Prezident.
 - Hali bunga yetti qovun pishig'i bor, – dedi yigit. – Men „Tez yordam“ shofyoriman.
 - Hamdardlik bildiraman, – dedi Prezident yanglishganiga ishonch hosil qilib. – Ko'p og'ir ish.
 - Siznikichalik og'ir emas, senyor.

Prezident uning ko'zlariga tik qaradi, ikkala qo'li bilan hassasiga suyandi va samimiy qiziqish bilan:

- Siz qayerdansiz?
- Karibdanman.
- Buni allaqachon sezdim, – dedi Prezident. – Qaysi mamlakatdan?

– Sizning mamlakatingizdan, senyor, – dedi yigit va qo'lini uzatdi. – Mening ismim Omero Rey.

Hayratga tushgan Prezident uning qo'lini qo'yib yubormay, so'zini bo'ldi:

- Jin ursin! Bu qanday sharaflı ism!
- Omero tin oldi.
- Bu hali hammasi emas, – dedi u. – Omero Rey-de-le-kasa¹. Ko'cha o'ttasida ochiqda qolgan suhabatdoshlarimizni izg'irin zabitiga oldi. Prezident suyak-suyagigacha qaqqash ketdi va paltosi bo'lmagani uchun ikki kvartal naridagi arzon oshxonaga piyoda yetib borishga kuchi yetmasligini tushundi. U, odatda, o'sha yerda ovqatlanardi.

– Tushlik qildingizmi? – deb so'radi Omerodan.

- Men hech qachon tushlik qilmayman, – javob berdi Omero. – Faqat bir marta, kechqurun uyda ovqatlanaman.

– Bugun istisno qila qoling, – dedi Prezident, imkon qadar samimiylig bilan. – Sizni birga ovqatlanishga taklif qilaman.

Shunday dedi-yu, uni qo'ltiqlagancha ko'channing narigi tomonidagi restoranga boshladi. Restoranning kanop peshtoqiga „Le Boeuf Souronne“² degan nom zarhal harflar bilan yozilgan edi. Ichkari tirband va issiq, aftidan, birorta

¹ Homer xonodon Qirolı (*isp.*).

² „Tojdor buqa“ (*frans.*).

ham bo'sh joy qolmagandi. Prezidentni hech kim tanimayotganiga hayron qolgan Omero ko'mak istab, zal to'riga yo'naldi.

– Amaldagi Prezidentmi? – deb so'radi restoran xo'jayini.

– Yo'q, – deb javob berdi Omero. – Ag'daril-gani.

Xo'jayin ma'qullash ohangida kulimsiradi.

– Bundaylar uchun, – dedi u, – men doim joy olib qo'yaman.

Xo'jayin ularni zalning uzoq burchagiga o't-qazdi. Bu yerda ular xohlagancha suhbatlashib olishlari mumkin edi. Prezident xo'jayinga minnatdorchilik bildirdi.

– Quvg'indagilarni sizga o'xshab hurmat qilish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi, – dedi u.

Ko'mir cho'g'ida pishirilgan buqa qovurg'asi restoranning xos taomi edi. Prezident va mehmoni atrofga qarab stollarning ustiga nafis yog'ga belangan katta go'sht bo'laklarini ko'rishdi. „Zo'r go'sht, – g'udrandi Prezident. – Lekin uni yeish menga taqiqlangan-da“. So'ng, Omeroga diqqat bilan tikilib, endi boshhqacha ohangda dedi:

– To'g'risini aytganda, menga hamma narsa taqiqlangan.

– Sizga qahva ham man qilingan, – dedi Omero, – lekin, shunday bo'lsa-da, qahva ichyapsiz-ku.

– Ko'rib qoldingizmi? – dedi Prezident. – Lekin bu istisnoli bir kun deb qilingan istisno edi.

Bu kun faqat qahva uchun istisno qilingani yo'q. U buqa qovurg'asi, faqat zaytun moyi solingan yangi sabzavot salati buyurdi. Uning mehmoni ham shularni va yana yarim ko'za qizil sharo'b keltirishlarini iltimos qildi.

Go'sht kelguncha Omero cho'ntagidan ichi pul emas, turli qog'ozlarga to'lib ketgan hamyonini chiqardi va Prezidentga sarg'ayib ketgan bir fotosuratni ko'rsatdi. Prezident o'zini tanidi: u yengi kalta ko'yakda, hozirgidan bir necha funt ozg'inroq, sochi va mo'ylovi hozirgidan ancha qora, nima qilib bo'lsa ham suratga tushishga uringan yosh yigitlar qurshovida turardi. U bu joyni darhol tanidi, o'sha la'nati saylovoldi kampaniyasining ramzini va o'sha baxtsiz kunni ham esladi. „Jin ursin, – deb g'ulduradi u. – Men hamisha odam hayotdagiga qaraganda suratda tezroq qariydi deb aytardim“. So'ngra fotosuratni, hamma narsaga chek qo'ygan odamdek, keskin harakat bilan egasiga qaytardi.

– Juda yaxshi eslayman, – dedi u. – Bu ming yillar oldin San-Kristobal-de las-Kasas degan ovulda bo'lgandi.

– Bu mening ovulim, – dedi Omero va suratdan o'zini ko'rsatdi. – Mana bu menman.

Prezident uni tanidi.

– Hali bolakay ekansiz!

– Shunday desa ham bo'ladi, – dedi Omero. – Men janub safarida doim sizning yoningizda yurgandim, universitet brigadalariga rahbarlik qilgandim.

Prezident ta'naning oldini oldi:

– Men bo'lsam, albatta, sizga e'tibor qilmaganman, – dedi u.

– Aksincha, siz bizga juda yaxshi munosabatda bo'lgansiz. Endi, biz ko'pchilik edik, hamma esda qolmaydi.

– Undan keyin-chi?

– Buni mendan yaxshiroq biladigan bormi? – dedi Omero. – Harbiy to'ntarishdan keyin siz bilan bu yerda buqaning yarmini yemoqchi bo'lib turganimizning o'zi bir mo'jiza. Bunaqa omad hammaga ham kulib boqqani yo'q.

Ularga likopcha keltirishdi. Prezident, xuddi bolalarday, bo'yniga sochiq osdi va mehmonlarning sal-pal hayron qolganini sezdi. „Shunday qilmasam, har gal ovqatdan keyin bir galstukdan kechishga to'g'ri keladi“ – g'uldiradi. Taomga qo'l urishdan oldin go'sht pishgan-pishmaganini tekshirib ko'rdi, so'ng ma'qullab, bosh irg'adi va mavzuga qaytdi.

– Lekin bir narsani tushunolmayotirman, – dedi u. – Mening ortimda ayg'oqchiday izg'ib yurmay, nega oldinroq ro'para bo'lmaodingiz?

Shunda Omero Prezident kasalxonaning alohi-da holatlarda ochiladigan eshididan kirgan zahotiyoq uni taniganini aytdi. Yoz avjida edi. Prezidentning egnida oppoq kanop kostyum, oyog'ida oq-qora tuqli, kamzulining qaytarma yoqasida dastorgul, chiroyli sochlarini shamol to'zg'itib yuborgandi. Omero Prezident Jenevada yolg'iz ekanini, unga hech kim yordam bermayotganini, Jenevani yuristlikka o'qigan vaqtlaridan buyon besh qo'lday bilishini bilib oldi. Kasalxona direksiyasi, Prezidentning iltimosiga ko'ra, unga maxfiylikni ta'minlash uchun tegishli farmoyish bergandi. O'sha oqshomda xotini bilan maslahatlashib olgan Omero, Prezident bilan uchrashishga qaror qildi. Shunday bolsa-da, qulay fursatni kutib, orqasidan rosa besh hafta poylab yurdi, ehtimol, agar Prezidentning o'zi u bilan yuzma-yuz bo'l-

maganda, salomlashishga ham yuragi betlamay yuravergan bo'lardi.

– Shunday qilganimdan xursandman, – dedi unga Prezident. – Lekin, to'grisini aytganda, yolg'izlik meni ezolmaydi.

– Bu adolatdan emas.

– Nega? – chinakamiga hayron boldi Prezident. – Meni unutishlariga erishganim – hayotim-dagi eng katta g'alabamdir.

– Biz sizni siz o'ylagandan ko'proq eslaymiz, – dedi Omero hayajonini yashirmay. – Sizni mana shunday sog'lom va yosh ko'rib turganimizning o'zi katta gap.

– Holbuki, – dedi Prezident bamaylixotir, – hamma narsa yaqinda o'lishimdan dalolat ber-moqda.

– Axir, siz har qanday vaziyatdan chiqa olasiz-ku, – dedi Omero.

Prezident hayratdan sapchib tushdi, bu harakatni u juda nafislik bilan qildi.

– Jin ursin! – xitob qildi Prezident. – Nima, go'zal Shveytsariyada vrachlarning sir saqlash qoidasi bekor qilinganmi?

– Dunyoning birorta kasalxonasida tez yordam shofyorining bilmaydigan siri yo'q, – dedi Omero.

– Buni atigi ikki soat oldin bu gapni bilishi lozim bo'lgan yagona odamdan eshitdim.

– Nima bo'lgandayam, siz bekorga o'lib ketmaysiz, – dedi Omero. – Sizni yuksak shon-sharaf namunasi sifatida munosib o'ringa qo'yadiganlar topiladi.

Prezident o'zini hayratlanganga soldi.

– Tasalli uchun rahmat, – dedi u.

U ovqatni, hamma ishlarini qanday qilsa shunday, shoshilmay yeyayotgandi va tanovul

qilarkan, Omeroning ko'zlariga tik boqardi. Bunda Omeroga Prezident uning fikrlarini ko'rib-bilib turganday tuyulardi. Qo'msashdan iborat xotiralarga to'la uzoq suhbat so'ngida Prezidentning yuzida masxaraomuz tabassum zohir bo'ldi.

– Men jasadimning qismati haqida, tashvish tortmaslik haqida bir qarorga kelganday bo'lувдим, – dedi u. – Lekin endi ko'ryapmanki, murdamni hech kim topolmasligi uchun detektiv romanlarda yozilganiga o'xshatib, ba'zi ehtiyot choralarini ko'rishimga to'g'ri keladi, shekilli.

– Befoyda, – deb g'uldiradi Omero. – Kasalxonalarda bir soat o'tmay, oshkora bo'lmaydigan birorta sir yo'q.

Qahvani ichib bo'lishgandan keyin Prezident finjon tubida qolgan quyqaga nazar soldi va yana seskandi: quyqadan yana o'sha majhul ma'no chiqqan edi. Shunday bo'lsa-da, pinagini buzmadidi. U naqd to'ladi, lekin oldiniga hisobni bir necha bor tekshirib ko'rdi va pulni qattiq diqqat bilan qayta-qayta sanadi. Shunchalik arzimagan choy-chaqa berdiki, ofitsiant qovog'ini solib to'ng'illab qo'ydi.

– Men haqiqatan ham juda maza qildim, – dedi u yakunda Omero bilan xayrlesharkan. – Operatsiya qachon bo'lishini hozircha bilmayman, operatsiya qildirishga jur'atim yetadimi, yo'qmi, buni ham hozircha bilmayman. Lekin hammasi yaxshi o'tsa, biz yana ko'rishamiz.

– Nega undan oldinroq emas? – so'radi Omero. – Xotinin Lasara boylarnikida oshpazlik qiladi. Qisqichbaqali guruch taomini hech kim unchalik zo'r pishira olmaydi. Bir kuni kechki payt mehmonimiz bo'lishingizni biz juda xohlaymiz.

- Dengiz ne'matlari menga man etilgan, lekin shunday bo'lsa-da, zo'r mamnuniyat bilan yegan bo'lardim, – dedi u. – Qachon borishim kerak?
- Payshanba kuni bo'shman, – dedi Omero.
- Juda zo'r, – dedi Prezident. – Payshanba kuni kechki soat yettida siznikiga kelaman. Mamnuniyat bilan.
- Sizni opketgani kelaman, – dedi Omero. – Manzilingiz Oteleri Damedagi Industri ko'chasi, o'n to'rtinchi uyda. Vokzal ortida. To'g'rimi?
- To'g'ri, – dedi Prezident va tavoze bilan o'rni-dan turdi. – Ko'ryapmanki, hatto, tuflimning raz-merini ham bilasiz.
- Albatta, senyor, – dedi Omero mamnun bo'-lib, – qirq birinchi.

Lekin Omero Rey Prezidentga bir gapni aytma-di. Keyinchalik u uzoq yillar mobaynida eshitgisi kelgan har bir kishiga bu gapni takrorlab yurdi: dastlab uning niyati unchalik yaxshi bo'limgan-di. Kasalxonaning barcha haydovchilari singari, u dafn idoralari va sug'urta kompaniyalari bilan bemorlar, ayniqsa, kambag'al ajnabiylar haqida kelishib qo'ygan edi. Bundan keladigan daromad aytishga arzigulik emasdi, buning ustiga bu pulni og'ir bemorlar to'g'risidagi maxfy ma'lumotlarni og'izdan og'izga yetkazadigan boshqa xizmatchi-lar bilan baham ko'rishga to'g'ri kelardi. Lekin, shunga qaramay, hech qanday istiqboli yo'q, xo-tini hamda ikki bolasi bilan arzimagan maoshga amal-taqal qilib kun kechiradigan qochoq uchun bu biroz madad edi.

Uning xotini Lesara Devis ancha tadbirli edi. U San-Xuandan chiqqan tipik puerto-rikolik durragay ayol bo'lib, to'ladan kelgan, past bo'yli, te-

risi jigarrang, quturgan qanqiqnikiga o'xshagan ko'zlar fe'l-atvoriga juda mos edi. Ular bemorlar shafqat yuzasidan tekin davolanadigan bo'limda tanishgandilar. Qizni vatandoshi bo'lgan bir sudxo'r Jenevaga egalik qilishga olib kelgan, keyin tashlab ketgandi. Shundan keyin u navbatchi sanitar bo'lib ishga kirgan edi. Garchi qiz Yoruba qabilasiga mansub malika bo'lsa-da, ular katolik marosimiga ko'ra turmush qurishgandi. Ular afrikalik muhojirlar yashaydigan liftsiz to'qqiz qavatlari uyning sakkizinch qavatida joylashgan ikki xona va bir mehmonxonadan iborat xonadonda istiqomat qilishardi. Ularning to'qqiz yoshli Varvara ismli qizi, yetti yashar Lasaro ismli o'g'li bo'lib, o'g'lida aqliy zaiflik alomatlari bor edi.

Lasara Devis aqlli, badfe'l, lekin botinan mushfiq ayol edi. U o'zini aniq-tiniq Buqa burjiga mansub deb hisoblar va yulduzlar bashoratiga ko'r-ko'rona ishonardi. Biroq uning millionerlariga fol ochib pul ishlash orzusi amalga oshmagandi. Aksincha, u boyvuchcha xonimlarga taom pishirib, tasodifan ishlab topgan pullari hisobiga ro'zg'or tebratardi. Ba'zan bu daromadlar tuzukkina bo'lardi. Bu boyvuchchalar mehmonlarni ishtaha qitiqlovchi antiqa ovqatlar bilan siylashar, ularni o'zim pishirganman deb maqtanar edilar. Omero risoladagidan chetga chiqmaydigan tortinchoq odam bo'lib, qilayotgan ishidan boshqa narsa qo'lidan kelmasdi. Shunday bo'lsa-da, Lasara hayotini usiz tasavvur qilolmas, pokiza qalbli erini qadrlar edi. Yil o'tgan sayin hayot og'irlashib borayotgan, bolalar voyaga yetayotgan bo'lsa-da, qiyinchiliklarga qaramay, ular totuvlikda yashardi. Prezident paydo bo'lgan vaqtga ke-

lib, ular besh yil davomida yig'gan pullarini oz-ozdan sarflashga kirishgan edilar. Shuning uchun ham Omero Rey Prezidentni kasalxonada maxfiy kasallar orasida ko'rdi deguncha, ishtahalari karnay bo'lib ketgandi.

Ular Prezidentdan bu ishni qanday va qaysi huquqqa asosan iltimos qilishlarini aniq bilmasdi. Avvaliga jasadni mumiyolash va Vatanga jo'natishni ham hisobga olgan holda butun dafn ishlarini taklif qilmoqchi bo'lishdi. Asta-sekin Prezident dastavval tuyulganidek, tez orada o'lmasligini tushunishdi. Mehmonga chaqirishgan kuni ular gumanlar girdobida qolgandi.

To'g'risini aytganda, Omero universitet brigadalarining boshlig'i bo'lmagandi, bunaqa gap asli bo'lmagan ham, saylov kompaniyasida ham bir marta, mana shu fotosurat olingan kuni ishtirot qilgan edi. Fotosuratni javonda qalashib yotgan eski qog'ozlar orasidan zo'rg'a qidirib topishgandi. Lekin uning hissiyotlari qizg'in va samimiy edi. U haqiqatan ham harbiy to'ntarishga qarshi ko'challardi namoyishlarda qatnashgani uchun mammakatdan qochishga to'g'ri kelgan, lekin Jenevada bunchalik uzoq yashashining sababi bor-yo'gi quyonyurakligi edi, xolos. Yolg'on kattaroq bo'ladimi, kichikroq bo'ladimi, nima farqi bor, Prezidentning mehrini qozonsa bo'ldi-da.

Har ikkalasi uchun ham birinchi kutilmagan yangilik: mashhur qochoq, ko'rimsiz Grott da-hasidagi to'rtinchi toifa mehmonxonada osiyolik muhojirlar va fohishalar orasida yashar hamda arzon oshxonalarda ovqatlanardi. Vaholanki, quvg'inga uchragan siyosatchilar uchun Jenevada munosib rezidensiyalar tiqilib yotibdi. Omero Pre-

zident ular tanishgan kunda nima qilgan bo'lsa, har kuni shunday qilganini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Prezident eski shaharning vahimali, sariq qo'ng'i-roqgullar chirmashgan devorlari orasida qiladigan sayrlarida Omero uni kuzatib borar, ba'zan ehtiyyotsizlik qilib, masofani qisqartirib qo'yardi. U Prezidentning Kalvin haykali poyida soatlab o'yga cho'mib turishlarini ko'rdi. Uning orqasidan yasminlarning issiq bo'yidan nafasi tiqilay-tiqilay deb, tosh zinapoyalardan Bur-de-Fur tepaligiga qadam-baqadam ko'tarilar, yozgi quyoshning asta-asta botishini tomosha qildi. Bir kuni kechki payt uni paltosiz va shamsiyasiz, yomg'ir ostida Rubinshteyn konsertiga bilet olmoqchi bo'lib turgan talabalar orasida ko'rdi. „Shamollab qolmaganiga hayronman“, dedi Omero xotiniga. Yaqinda havo ayniy boshlagan shanba kuni Prezident quvg'indagi amirlar savdo qiladigan Ryu-de-Ron ko'chasidagi hashamatli magazindan emas, balki, eski-tuski bozoridan sun'iy mo'yna yoqali eski palto sotib olganini ko'rdi.

– Demak, bosh qotirib o'tirishning keragi ham yo'q! – Xitob qildi Lasara Omero bu haqda so'zlab berarkan. – O'taketgan qurumsoq ekan. U o'zini davlat hisobiga umumiyoq mozorda dafn qildirsa kerak. Biz hech qachon undan bir chaqa ham undira olmaymiz.

– Balki, u haqiqatan ham qashshoqdir! – dedi Omero. – Necha yillardan beri ishsiz!

– Men senga shuni aytayki, baliq burji ostida tug'ilgan kishilarning hammasi ham unga o'xshab suvdan quruq chiqishni eplay olmaydi, – dedi Lasara. – Davlatning oltinlarini o'marib ketganini va Martinikadan chiqqan eng boy odam ekanini hamma biladi.

Xotinidan o'n yosh katta bo'lgan Omero Prezident Jenevada o'qigan vaqtłari qurilishda oddiy ishchi bo'lib ishlaganini bilar va shu taassurot ostida o'sib-ulg'aygandi. Lasara esa, aksincha, Prezidentga dushman bo'lgan matbuotning shovshuvli fosh etishlari muhitida o'sib katta bo'lgandi. Bu shov-shuvlar u yoshligidan enaga bo'lib ishlagan Prezident dushmanining xonadonida yanada bo'rttirilardi. Shuning uchun ham Omero Prezident bilan ovqatlanganidan boshi ko'kka yetib qaytgan kuni Prezidentning Omeroni qimmat restoranga taklif qilgani Lasara uchun asosiy narsa bo'ldi. Omeroning o'zları orzu qilgan narsalarning birortasi – na bolalar uchun nafaqa, na o'zi uchun kasalxonadan tuzukroq ish so'ramagani unga ma'qul bo'lmadi. Lasaraning gumonlari to'g'ri bo'lib chiqdi: Prezident mullajiringlarini jasadini munosib tarzda dafn qilish uchun shon-sharaf bilan vataniga qaytarishga sarflashdan ko'ra, murdasini quzg'unlarga tashlashlari ni afzal ko'radi, shekilli. Omero gapning so'ngiga asrab qo'ygan xabar – Prezidentni payshanba kuni qisqichbaqali guruch tanovul qilishga taklif etgani Lasaraning sabr kosasini toshirib yubordi.

– Bizga shu yetmay turuvdi, – bo'kirdi Lasara, – qisqichbaqa konservasidan zaharlanib shu yerda o'lib qolsa va bolalarga asrab qo'ygan arzimagan pulimizni uni ko'mishga sarflamasak go'rga edi.

Shunday bo'lsa-da, xotinlik burchiga sodiq qoldi. Qo'shni ayoldan uchta melxior qoshiq-pichoq, shisha salatdon, boshqasidan elektr qahva qaynatgich, uchinchisidan kashtali dasturxon va xitoycha qahva finjonlari olib turishga to'g'ri keldi. U eski pardalarni yangisiga almashtirdi, holbuki,

ularni faqat bayram kunlari osardi. Mebellarning g'ilofini tashladi. Kun bo'yi pollarni yuvib tozaladi, changlarni artdi, narsalarni u yoqdan bu yoqqa surdi. Xullas, oxir-oqibat natija niyatining tamomila teskarisi bo'lib chiqdi, vaholanki, u halolligi uchun kambag'al yashashlarini ko'z-ko'z qilib, Prezidentning ko'nglini yumshatmoqchi edi.

Payshanba oqshomi eski palto va urfdan qolgan shlyapa kiyib olgan, qo'lida Lasaraga atalgan atirgul ushlagan Prezident sakkizinch qavatga ko'tarilib, nafasini rostlab olgach, ostonada hozir bo'ldi. Lasara uning mardonavor qiyofasi va o'zini zodagonlarga xos tutishidan hayratda qoldi, lekin baribir uni qanday xohlagan bo'lsa, shunday ikki-yuzlamachi va yirtqich deb topdi. Prezident unga qo'pol, beandisha bo'lib ko'rindi, chunki ovqat pishirarkan, uyni qisqichbaqa hidi tutib ketmasin deb, oynalarni lang ochib qo'ygandi, u bo'lsa, ostonadan hatlar-hatlamas, go'yo to'satdan hayratga tushganday ko'zlarini yumdi va qo'llarini yozib: „Oh, dengizimizning bo'yлari!“ deya xitob qildi. U Lasaraga xasislarning xasisi bo'lib tuyuldi, chunki atigi bir dona atirgul keltirgan edi. Uniyam, albatta, jamoat bog'idan o'g'irlagan. U takabbur bo'lib tuyuldi, chunki uning sobiq shon-shuhrat haqidagi gazeta qiyqimlarini, saylovoldi kampaniyasi vimpellari va bayroqchalarini nafrat bilan ko'zdan kechirdi. Ularni Omero soddalik bilan mehmonxona devorlariga osib chiqqandi. U Lasaraga bag'ritosh bo'lib tuyuldi, chunki o'z qo'llari bilan Prezidentga sovg'a tayyorlagan Barbara va Lasara bilan hatto salomlashgani ham yo'q, buning ustiga ovqat payti gap orasida ikki narsa – itlar va bolalarga toqati yo'qligini qistirib o'tdi.

Lasara uni yomon ko'rib qoldi. Biroq, karibcha tug'ma mehmondo'stlik taassuf ustidan ustun chiqdi. Lasara bayramlarda kiyiladigan afrikacha keng va uzun choponini egniga ildi, o'zining bor muqaddas taqinchoqlari, bilaguzuklarini taqdi, dasturxon ustida birorta ortiqcha qiliq qilmadi, ortiqcha gap aytmadidi. U faqat bekam-u ko'stlik emas, balki, baayni mukammallik timsoli edi.

To'g'risini aytganda, qisqichbaqali guruch uning oshpazlik san'atining shoh asari emassi, lekin u bor hunarini ishga soldi va, natijada, taom juda zo'r bo'lib chiqdi. Prezident, garchi uy egalarining qo'msash to'la xotiralariga qo'shilmasa-da, maqtay-maqtay likopchasini ikki marta guruchga to'ldirdi, yetilgan bananlar, qovurilgan bo'laklar va ovakado salatidan boshi osmonga yetdi. Lasara shirinlikka gal kelguncha va Omero Parvardigor barhaqligi masalasining mohiyatiga yetib bormasidanoq butunlay chalkashib qolgun-ga qadar sabr bilan tingladi.

– Men Xudoning borligiga ishonaman, – dedi Prezident, – lekin u odamlarning ishiga aralashmaydi. Uning o'z ishlari bor.

– Men bo'sam, faqat yulduzlarga ishonaman, – dedi Lasara Prezidentning yuzida zohir bo'lgan qiziqishdan boshi osmonga yetib. – Tug'ilgan kunningiz qachonligini aytинг.

– O'n birinchi mart.

– O'zim ham shunday deb o'ylagandim, – dedi Lasara shodon ovozda va tavoze bilan so'radi: – Bir dasturxon ustida ikkita baliq ko'plik qilmasmikan?

Erkaklar Xudo to'g'risidagi suhbatni davom ettirdilar, Lasara qahva qaynatish uchun oshxo-

naga ketdi. Dasturxon dagi ovqat qoldiqlarini u allaqachon yig'ishtirib olgan va mehmondorchilik yaxshilik bilan tugashini juda xohlayotgandi. U qahvani ko'tarib mehmonxonaga kirar ekan, gap davomida Prezident aytgan gapdan qotib qoldi.

– Hech shubhalanmang, aziz do'stim, agar men yana Prezident bo'sam, badbaxt mamlakatimiz uchun eng katta falokat bo'lardi.

Omero xitoy finjonlari va qarzga olingen qahva qaynatgichni ko'targancha ostonada qotib qolgan Lasaran ni ko'rni va u hozir hushidan ketib yiqilsa kerak deb o'yladi. Prezident ham ayolga qarab qo'ydi.

– Menga bunaqa qaramang, senyora, – dedi u yumshoqqina qilib. – Men samimi y gapiryapman. – So'ng Omeroga o'girilib, so'zini yakunlandi: – Tentakligim bois mana shunday kunlar bo'shimga tushgani ko'p yaxshi bo'ldi.

Lasara qahvani tarqatdi, yorug'lik suhbatga xalaqit bermasligi uchun, stol ustidagi chiroqni o'chirdi. Mehmonxonaga farahbaxsh g'ira-shira qorong'ilik cho'kdi. Nihoyat, mehmon Lasarda qiziqish uyg'otdi. Gapga chechanligi uning qayg'u-hasratini pardalay olmayotgandi. Prezident qahvani ichib bo'lgach, finjonnini likopchaga to'nnarib qo'yanida Lasaraning qiziqishi yanada ortdi.

Shirinlikni tanovul qilishgach, Prezident ularga quvg'inda yashash uchun nega Martinikani tanlaganini aytib berdi: chunki u shoir Emey Sezer bilan do'st edi – u o'sha kunlari „Cahir d'un retour au pays natal“¹ kitobini chop ettirgan va

¹ „Vatanga qaytish kundaliklari“ (frans.).

yangi hayot boshlashi uchun Prezidentga yordam qilishi mumkin edi. Xotiniga qolgan meros pullariga ular For-dey-Frans tepaligidagi qimmatbaho yog'och uyni sotib olishdi. Uyning derazalariga simto'r tutilgan, dengizdan yoqimli shabada esgan, stol ustida shakarqamish romiga to'la staikan turgan, chirildoqlar sayrayotgan vaqtarda dengizga qaragan va oddiy gullarga to'la ayvonda mudrash juda orombaxsh edi. U bu yerda o'zidan o'n to'rt yosh katta bo'lgan, bor-yo'g'i bir marta tug'gan vaqtidan buyon kasal xotini bilan azaлий nuqsoni – lotin klassiklarini originalda o'qish bilan taqdirdan qochib, o'z umrini oxirgi, yakuний bosqichini boshidan kechirayotganiga ishonib yashardi. Ko'п yillar davomida sanoqsiz vasvasalarga qarshi bardosh berishga to'g'ri keldi. Tor-mor qilingan tarafdlari unga qanday qaltis avantyuralarni taklif qilishmadi.

– Men birorta maktubni ochib ko'rganim ham yo'q, – dedi u. – Eng shoshilinch narsalar bir haf-tadan keyin unchalik shoshilinch bo'lmay qolishi, ikki oydan so'ngra esa, hatto, bu xabarni yozgan kishilar ham uni unutishlarini tushunib yetganimdan so'ng bu maktublarni biror marta och-ganim yo'q.

U olov shu'lasida Lasaraga qaradi. Ayol chekayotgan edi va u ochko'zlarcha sigaretni yulib oldi. So'ngra qattiq tortdi va tutunni tomog'ida ushlab turdi. Hayron bo'lgan Lasara sigareta qutisi va gugurtni olib, yangisini tutatmoqchi bo'ldi, lekin u sigaretani qaytarib berdi.

– Siz shunday huzurlanib chekyapsizki, nafs qutqusiga bas kelolmadim, – dedi u. Shunday derkan, tutunni chiqarishga to'g'ri keldi va yo'tal

tutdi. – Bu qusurdan ko'p yillar oldin voz kechgandim, lekin u mendan kechgani yo'q, – deb qo'ydi u. – Ko'pincha u g'olib keladi. Xuddi hozirgiday.

Yo'taldan uni bir necha bor qaltiroq tutdi. Og'riq paydo bo'ldi. Prezident chog'roqqina cho'n-tak soatiga qaradi va oqshomgi ikkita xabdori ichdi. So'ngra qahva finjoni tubini diqqat bilan tekshirdi: yana hech narsa o'zgarmagan, biroq u endi seskanmadi.

– Sobiq tarafdarlarimning ba'zilari mendan keyin Prezident bo'lishdi, – dedi u.

– Sayago, – dedi Omero.

– Sayago va boshqalari, – dedi u. – Hammasi menga o'xshab munosib bo'lмаган sharafni, eplay olmaydigan lavozimga qo'shib tortib olishdi. Ayrimplari faqat hokimiyatga, ko'pchilik bo'lsa bundan ham kamrog'iga, mansabga intilishdi.

Lasaraning jahli chiqdi.

– Siz haqingizda nimalar deyishlaridan xabar ringiz bormi? – deb so'radi undan.

Cho'chib ketgan Omero gapga aralashdi.

– Bu gaplarning hammasi yolg'on.

– Ham yolg'on, ham rost, – dedi Prezident bama'yixotir. – Prezident haqida gap borganida eng dahshatli ig'vo ayni vaqtida unisi ham bunisi ham: rost ham, yolg'on ham bo'lishi mumkin.

Quvg'inlik yillarida u rasmiy gazetalardagi kamchil ma'lumotlarni hisobga olmaganda, tashqi dunyo bilan hech qanday aloqa qilmasdan, Martinikada yashadi. Kun ko'rish uchun davlatga qarashli litseyda ispan tilidan dars berdi, goh-goh Emey Sezer berib turgan narsalarni tarjima qildi. Avgust oyining issig'iga chidab bo'lmassdi, u

yotoqxonasidan chiqmay, osma to'rbelanchakda peshingacha shamol parrakning bir maromda shovqini ostida o'qib yotardi. Quyoshdan saqlanish uchun sun'iy mevalar va gullar bilan bezatilgan, ayvoni keng somon shlyapa kiyib olgan xotini, hatto, kunning eng jazirama pallasida ham erkin qushlarni boqish bilan shug'ullanardi. Jazirama susaygan vaqtłari salqin ayvonda o'tirish rohat bo'lardi. U qosh qoraygan pallada qimirlamay dengizni, yirtiq shlyapa kiygan, barcha barmoqlariga yirik toshli uzuklar taqib olgan xotini esa, tebranma to'rkursiga yastangancha yonlaridan suzib o'tayotgan jahon kameralarini tomosha qilardi. „Bu Puerto-Rikodan kelyapti, – deb qo'yardi u. – To'ldirib banan ortgani uchun zo'rg'a imillab kelayotgan bunisi bo'lsa, Puerto-Santodan“. Qadrdon o'lkasidan boshqa mamlakatlarning kemalari ham bu yerdan o'tishi mumkinligi uning xayoliga ham kelmasdi. Prezident hamma narsaga loqayd edi, lekin unutish borasida, har qalay, xotini undan ham o'tib tushdi, u xotirasini yo'qotdi. Quyosh botib, qosh qoraygunga qadar ular shunday o'tirishar, shundan keyin hasharotlar hujumidan qochib, uyga kirishardi. Ana shunday avgust kunlaridan birida gazeta o'qiyotgan Prezident hayratdan sakrab turdi:

– Jin ursin, bu qanaqasi?! Men Estorileda o'lgan emishman!

Yaxshigina mudrayotgan xotini qo'rqib ketdi. Shundoqqina biqinlarida, muyulishda bosiladi-gan gazetaning beshinchi sahifasida olti qator xabar bosilgan edi. Gazetada uning tarjimalari onda-sonda bosilib turar, gazeta mudiri goho ularni ziyyorat qilib turardi. Endi shu gazetada uning Lis-

sabonda, Estorileda vafot etgani haqida yozish-gandi. Ehtimol, u o'lishni hecham xohlamaydigan yagona joy o'sha yer edi. Xotini esida qolgan ya-gona xotira – yakka-yu yolg'iz o'g'lining hasratida bir yildan keyin o'ldi. O'g'il otasini ag'darishda qatnashgan va keyinchalik hamtovoqlari tomoni-dan otib tashlangandi.

Prezident tin oldi.

– Biz ana shundaymiz va taqdirdan qochib qutulib bo'lmaydi, – dedi u. – Qit'a dunyoning sevgi nimaligini yetti uxbab tushida ko'rmagan pastkashlaridan homilador, bolalar bo'lsa, hay-voniy yoki qaroqchilarcha zo'ravonlik, bir-birini asti ko'rolmaydigan dushmanlarning og'iz-burun o'pishishlari mevasidir.

U Lasaraning uni ayovsiz tilkalayotgan afrika-chacha ko'zlariga tik qaradi va ayolni o'zining sinov-dan o'tgan quroli – gapga chechanligi bilan maf-tun qilmoqchi bo'ldi.

– „Metislashтирish“, qorishtirish yoki chatishti-rish degan so'z ko'z yoshi bilan qonni aralashti-rishni anglatadi. Bunaqa qorishmadan nimani ham kutish mumkin?

Lasara miq etmadni, sukuti bilan uni o'tirgan joyiga mixladi. Biroq yarim kechga yaqin o'zini bosib oldi va xayrashuv oldidan uni tavoze bilan o'pib qo'ydi. Prezident Omeroni mehmonxonaga-cha kuzatib borishiga yo'l qo'ymadni, lekin taksi topishga yordam berishiga qarshilik ko'rsatmadni. Qaytib kelgan Omero xotinining jahldan jig'ibiy-ron bo'lganini ko'rdi.

– Uni ag'darib juda to'g'ri qilishgan, – dedi xo-tini. – Borib turgan itvachcha.

Omero xotinini tinchitishga harchand urinma-sin, kechani bedor o'tkazishdi. Lasara Prezident-

day kelishgan erkakni ko‘rmaganini, u o‘ta maf-tunkor va nasldor ayg‘irga xos barcha sifatlarga ega ekanini e‘tirof qildi. „Qari tullak va tinkasi qurigan bo‘lishiga qaramay, hatto hozir ham to‘shakda yo‘lbarsday kuchli bo‘lsa kerak“, – dedi u. Biroq, uning fikriga qaraganda, Xudoning bu ne‘matini u mug‘ambirlik yo‘lida isrof qilgan. Uning maqtanchoqligiga, go‘yo, mamlakatning eng yomon Prezidenti bo‘lganman deyishiga toqat qilib bo‘larmidi?! O‘zini zohid qilib ko‘rsatganiga nima deysiz, u Martinkadagi shakar fabrikalari yarmining egasi ekaniga Lasaraning imoni komil-ku. Hokimiyatni yomon ko‘raman, deb munofiqlarcha yolg‘onladi, ko‘rinib turibdi: dushmanlariga tuproq chaynatish uchun bir lahzaga bo‘lsa-da, Prezidentlikni qaytarib olish uchun borini beradi.

– Bularning hammasi, – deb xulosa qildi ayol, – bizni oyoqlari ostida ko‘rish uchun, xolos.

– Bundan unga nima naf? – so‘radi Omero.

– Hech qanday, – dedi Lasara. – Shunchaki noz-firoq – bu illatni to‘ydirib bo‘lmaydi.

U g‘azabdan shu daraja quturgan ediki, Omero to‘sakda qola olmadi va ko‘rpaga o‘ralib, divanda uxbab olish uchun mehmonxonaga ketdi. Uy ichida qip-yalang‘och yurishga va uxlashga odatlangan Lasara ham tongga yaqin to‘sakdan turdi, qip-yalang‘och o‘tirgancha, o‘ziga o‘zi uzundan uzoq so‘zlandi. Nihoyat, vaqt kelganida u bu istalmagan ziyofatni, zarracha iz qoldirmay, xotirasidan butunlay sidirib tashladi. Ertalab qarzga olingan narsalarni egalariga qaytarib berdi, yangi pardalarni eskilariga almashtirdi, mebellarni o‘z joyiga qo‘ydi va uy yana kechagi oqshomgacha

bo'lgan holatiga, munosib va faqirona ko'rinishga qaytdi. Pirovardida devorlardagi gazeta parchalari va fotosuratlarni, la'nesi saylovoldi kampaniyasining bayroqlarini yulib oldi va hammasini axlat qutisiga uloqtirarkan, hayqirdi.

– Olib ketsin!

Ziyofatdan bir hafta o'tgandan keyin Omero kasalxonaning chiqish eshigi oldida Prezidentni ko'rdi. Prezident uni kutib turgan ekan. U Omerordan birga mehmonxonaga borishini iltimos qildi. Ular baland-baland uch qavatni bosib o'tib, yagona derazasi kulrang osmonga qaragan boloxonaga ko'tarilishdi. Xona bo'ylab tortilgan dorda yuvilgan kiyimlar osig'liq edi. Xonaning yarmini ikki kishilik karavot egallagan, bundan tashqari, stul, yuz yuvadigan jo'mrak, mo'jazgina bide va oynasiga parda tutilgan oddiygina javon ham bor edi. Prezident bularning hammasi Omeroga qanday ta'sir ko'rsatganini ko'rdi.

– Talabalik yillarim o'tgan uy xuddi shu, – dedi u go'yo kechirim so'raganday. – Men uni oldindanoq, hali For-de-Fransda ekanimdayoq ijaraga oldim.

U duxoba sumkadan qolgan-qutgan zaxiralarini, qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan bir nechta oltin bilaguzuk, uch qator dur shodasi, nodir toshli ikkita tilla zebigardon, avliyolar tasviri tushirilgan tilla zanjirli uchta medal, zumrad isirg'alar, bitta brilliant, bitta yoqut zirak, ikkita ladanli tumor, turli toshlari bo'lgan o'n bitta uzuk, ehtimol, qirolichaniki bo'lgan brilliant tillaqoshni olib, to'shak ustiga yoydi. Keyin maxsus g'ilofdan uch juft kumush zaponka, galstukka qadaladigan ikki juft oltin to'g'nag'ich, yana oq oltin suvi

yuritilgan cho'ntak soatini oldi. Nihoyat, poyabzal solinadigan karton qutidan o'zining oltita – ikkita oltin, bitta kumush, qolganlari shunchaki temir-dan ishlangan ordenlarini oldi.

– Menda qolgan narsalarning bori shu, – dedi u.

Nima ham qilardi, davolanish haqini to'lash uchun ularni sotishga to'g'ri kelgandi. U Omeroning bu katta sirni saqlagan holda o'ziga yordam berishini xohlayotgan edi. Ammo Omero iltimosni do'kondan patta olmasdan bajara olmasligini aytdi.

Prezident bu buyumlar xotiniga tegishli ekanini, unga mustamlaka yillaridan, buvisidan meros bo'lib qolganini aytdi. Buvi bo'lsa, o'z navbatida, Kolumbiyadagi tilla konlari hissasini meros tariqasida olgandi. Soat, zaponka va galstuk to'g'-nag'ichlari uning o'ziniki. Ordenlar bo'lsa, tabiiyki, oldin hech kimga tegishli bo'lmasigan.

– Kimdir bu narsalarga da'vogar bo'ladi deb o'ylamayman, – dedi u.

Omero o'z so'zida turib oldi.

– Unday bo'lsa, – dedi Prezident, – hammasini o'zim qilishimdan boshqa chora yo'q.

U xotirjamlik bilan javohirlarni yig'ishtira boshladи.

– O'tinaman, azizim Omero, meni afv eting, faqir Prezidentning qashshoqligidan dahshatli-roq narsaning o'zi yo'q, – dedi u. – Hatto, tirik yurishning o'zi ham nomaqbul.

Shunda Omeroning qalb ko'zi ochildi va u taslim bo'ldi.

Shu kuni Lasara uyga kech qaytdi. Ostona-dan hatlar-hatlamas, mehmonxonada yaltirayot-

gan javohirlarga ko'zi tushib, to'shabida chayon ko'rganday qotib qoldi.

– Maynavozchilikni bas qil, hoy bola, – dedi u qo'rqa-pisa. – Bu narsalar qayerdan kelib qoldi?

Omero hamma gapni tushuntirgandan keyin battar xavotirlandi. U o'tirib olib, javohirlarni go'yo zargardek bitta-bittalab sinchiklab tekshira boshladi. Nihoyat, tin oldi. „Aftidan, dunyoning boyligi bo'lsa kerak“. Omeroga tikilib qoldi, nima gapligini tushunib yetmoqchi bo'ldi, lekin u gan-gib qolgandi.

– Jin ursin, – dedi u. – Bu odam to'g'risini ayt-yaptimi-yo'qmi, qanday tekshirish mumkin?

– Nega endi to'g'risini aytmas ekan? – dedi Omero. – Haligina o'z ko'zim bilan ko'rdim. U kiri-ni o'zi yuvib, xuddi biz singari, xonasida quritar ekan.

– Bu ochko'zlikdan, – dedi Lasara.

– Yoki kambag'allikdan, – dedi Omero.

Lasara yana javohirlarni ko'zdan kechira bosh-ladi, lekin endi oldingiday diqqat qilmayotgandi. Dili vayron bo'ldi. Shunday qilib, ertasiga o'zicha eng qimmat ko'ylaklarini kiygan, bo'yniga taqin-choqlarni osgan, har ikkala qo'lining barmoq-lariga, hatto bosh barmog'iga sig'ganicha uzuk taqqan, bilaklariga bilaguzuk solgan holda, u ja-vohirlarni sotgani ketdi. „Qani, ko'raylik-chi, La-sara Devisdan kim patta so'rар ekan“ dedi u ger-dayib uydan chiqarkan va kulib qo'ydi. U ataylab hashamatli bo'lмаган odmiroq tilla do'konni tan-ladi, chunki bu yerda ortiqcha savol berib o'tir-masdan tilla buyum olib-sotishlarini bilardi. La-sara do'konga ichida qo'rquv bo'lsa-da, shaxdam qadam tashlab kirdi.

Forma kiygan ozg'in va rangpar sarkor uni tavoze bilan kutib oldi, qo'lini o'pib, xizmatga shay ekanini aytdi. Do'konning ichkarisi kunduzgidan yorug' bo'lib, oynalar va yorqin chiroqlardan hamma yoq brilliantga to'lib ketganday bo'lib tuyulardi. Lasara hiylasini sezib qolishidan cho'chib, sarkorga deyarli qaramay, do'kon to'riga yo'naldi.

Sotuvchi Lyudovik XV zamonasi uslubiga xos, xususiy peshtaxta sifatida ishlataladigan uchta stolning biri ortiga o'tirishni taklif qildi va oldiga oppoq sochiq yozdi. O'zi bo'lsa uning ro'parasiga o'tirib, kuta boshladи.

– Xo'sh, xizmat?

Lasara uzuklar, bilaguzuklar, dur-u isirg'alarни taqib, osib kelgan javohirlarining barchasini peshtaxta ustida shaxmat tartibida qo'yib chiqди. O'zi bu narsalarning haqiqiy qiymatini bilishni xohlayotganini aytdi.

Zargar chap ko'ziga monoklni qistirdi va javohirlarni tekshira boshladи. Tekshirishda davom etar ekan, nihoyat, so'radi:

– O'zingiz qayerlik bo'lasiz?

Lasara bunday savolni kutmagandi.

– O, senyor, – uf tortdi u. – Uzoqdan.

– Men ham shunday bo'lsa kerak, deb o'ylagandim.

Sotuvchi yana jim qoldi, Lasara bo'lsa sariq ko'zлari bilan unga teshib yuborguday tikilib o'tiraverdi. Zargar brilliant tillaqoshga alohida e'tibor berdi va uni boshqalardan ajratib qo'ydi. Lasara xo'rsindi.

– Sizning parizod ekaningiz ochiq-oydin ayon bo'lib turibdi, – dedi u.

– Bu gapni qayerdan oldingiz?

– Xatti-harakatlaringiz aytib turibdi, – dedi Lasara.

Zargar javohirlarni tekshirib bo'lguncha boshqa hech narsa demadi, so'ngra xuddi oldingiday rasmiy sipolik bilan Lasaraga murojaat qildi:

– Bularni qayerdan olgansiz?

– Buvimdan meros qolgan, – dedi Lasara ovozida betoqatlik ohangi paydo bo'lib. – U o'tgan yili Paramariboda vafot etdi, to'qson olti yoshga kirgandi.

Shunda zargar uning ko'zlariga tikildi.

– Qattiq afsusdaman, – dedi u. – Bu narsalarning yagona qiymati oltinligiga, ya'ni vazniga ko'ra.

U barmoq uchida tillaqoshni ko'tardi. Tillaqosh ko'zni qamashtirguday yaraqlab ketdi.

– Mana shundan boshqasi, – dedi u. – Bu juda qadimiy narsa, Misrniki bo'lsa kerak. Brilliantlari unniqmagانida uning bahosi yo'q bo'lgan bo'lardi. Lekin, baribir, u tarixiy ahamiyatga molik. Boshqa taqinchoqlardagi toshlar – safsarlar, zumradlar, opallarning hammasi istisnosiz soxta. Shubhasiz, oldiniga ularning o'rnila haqiqiy toshlar bo'lgan. – Zargar Lasaraga qaytarib berish uchun javohirlarni yig'ishtira boshladi. – Lekin bu narsalar avloddan avlodga o'tavergan, haqiqiy toshlar yo'qolib, o'rnini shisha egallagan.

Lasaraning ko'ngli behuzur bo'lib ketdi, chuqrutin oldi va qo'rquvini bosdi. Sotuvchi unga tasalli berdi:

– Bunaqa ishlar tez-tez bo'lib turadi, senyora.

– Bilaman, – dedi Lasara tinchlanib. – Shuning uchun ham ulardan qutulmoqchiman.

Shu chog'da u o'yin tugaganini his qildi va o'zini tutib oldi. Ortiqcha sipogarchilik qilib o'tirmay, sumkasidan zaponka, cho'ntak soatlari, galstuk to'g'nag'ichlari, oltin va kumush ordenlarini, Prezidentning barcha qaqir-ququrini olib, stol ustiga qo'ydi.

- Bularni hammi? – so'radi zargar.
- Ha, hammasini, – dedi Lasara.

Unga haqini yap-yangi Shveytsariya pullari bilan to'lashdi. Hatto, Lasara pullarning yangi bo'yog'i barmoqlarimni kir qilmasmikan, deb cho'chidi. U pulni sanamay oldi. Zargar bo'sag'a-da ayol bilan qanday sopolik bilan salomlashgan bo'lsa, shunday xayrlashdi. Oyna eshikni ochib, uni o'tkazar ekan, xiyol imilladi.

- Oxirgi gapni aytay, senyora, – dedi u, – men suvchiman.

Shu oqshomda Omero bilan Lasara birga pulni mehmonxonaga olib borishdi. Qayta-qayta sanashdan keyin ma'lum bo'ldiki, yana ozroq pul yetmas ekan. Shunda Prezident nikoh uzugi, zanjirli cho'ntak soati, zaponka va galstuk to'g'nag'ichini chiqarib, to'shakka qo'ydi.

Lasara nikoh uzugini qaytarib berdi.

- Faqat bu emas, – dedi u. – Xotira sotilmaydi.

Prezident uning vaj-korsonini to'g'ri deb topdi va uzukni barmog'iga taqdi. Lasara cho'ntak soatini qaytib berdi. „Buni ham“, – dedi u. Prezident bu gapga qo'shilmadi, lekin Lasara soatni joyiga solib qo'ydi.

- Shveytsariyada kim ham soat sotishi mumkin?

- Biz bittasini sotdik-ku, – dedi Prezident.
 - Lekin soat bo'lgani uchun emas tilla bo'lgani uchun olishgan.

- Bunisi ham tilladan, - dedi Prezident.
- Ha, shunday, - dedi Lasara. - Lekin siz ope-ratsiya qilinmasangiz ham yashay olasiz, soatsiz yashay olmaysiz.

Garchi Prezidentning boshqa, muguz ko'zoy-nagi bo'lsa-da, Lasara tilla gardishli ko'zoynagini olmadi. Ayol buyumlarni kaftida salmoqlab ko'rdi va shubhalarga chek qo'ydi.

- Bo'ldi, - dedi u. - Shular yetadi.

Eshikdan chiqishdan oldin bir og'iz so'zlamay, dorga osig'liq ho'l kiyimlarni yig'ishtirib oldi, qu-ritish va dazmollash uchun olib ketdi. Ular mototsiklda, Omero rulda, Lasara orqada belidan quchgan holda ketishdi. Oqshom osmon qizg'ish tusga kirganida ko'cha chiroqlari yondi. Shamol daraxtlarning so'nggi yaproqlarini ham uchirib ketdi va ular pati yulingan qushga o'xshab qoldi. Rona daryosi bo'ylab quyiga suzib ketayotgan yuk kemasida radio varanglab, sohilbo'yи ko'chalarini musiqaga to'ldirdi. Jorj Brasssen kuylayotgan edi:

„Mon amour tient la barre, le temps va passer par la, et le temps est un barbare dans le genre d' Attila, par la où son chèvre passe l amour ne repousse pas“¹ Omero bilan Lasara ashuladan va so'limaydigan sunbullar hididan sarmast holda churq etmay ketib borishardi. Biroz vaqt o'tgan-dan keyin Lasara uzoq uyqudan uyg'onganday bo'ldi.

- Jin ursin, - dedi u.
- Nima demoqchisan?

¹ Biz sevgini yo'llarga o'xshatamiz, vaqt yo'ldan o'tib bora-di, vaqt - vahshiy, Xun Atilla qo'shini bilan Rimga bostirib borayotir. Sevgi, sen meni uning otining tuyoqlari ostiga tashlaysan.

– Sho'rlik qariya, – dedi u. – Bu hayot degani b...ning o'zginasi!

* * *

Keyingi juma kuni, yettinchi oktyabrdan Prezidentni operatsiya qilishdi. Besh soat davom etgan operatsiyadan keyin ham ahvol oldin qanday bo'lsa shunday mujmalligicha qolaverdi. Gapping po'stkallasini aytganda, uning tirik qolgani yagona tasalli edi. O'n kundan keyin Prezidentni umumiy palataga o'tkazishdi. Endi uni borib ko'rish mumkin edi. U tamomila boshqa: pariszon, ozib-to'zgan, siyrak sochlari yostiqqa tegishi bilan to'kiladigan odamga aylangandi. Uning birinchi marta bir juft maxsus ortopedik qo'lтиq-tayoq yordamida yurishga uringanini ko'rib, kishining yuragi ezilib ketardi. Lasara kechki sanitarkaga pul ketkazmaslik uchun palatada tunab qoldi. Kasallardan biri o'limdan qo'rqib, kechasi bilan baqirib chiqdi. Bedor o'tgan bu kecha Lasaraning qalbidagi Prezidentga nisbatan so'nggi g'azab qoldiqlarini tag-tomiri bilan quritdi.

Prezidentga kasalxonadan chiqishga ruxsat berishganida uning Jenevaga kelganiga rapparaso to'rt oy to'lgandi. Prezidentning taqchil mablag'larining tejamkor boshqaruvchisi bo'lgan Omero kasalxona xarajatlarini to'ladi, o'zining „Tez yordam“ karetasida uni o'z uyiga olib bordi va ko'makka kelgan hamkasblari bilan uni sakkizinch qavatga olib chiqdi. Ular Prezidentni bolalarning xobxonasiga joylashtirdilar va Prezident asta-sekin tuzala boshladi. U harbiylarcha intizom bilan tiklovchi mashqlar qilardi, so'ngra asta-sekin hassasiga suyanib yura boshladi. Le-

kin endilikda, hatto po'rim kiyimda ham u tashqi ko'rinishi bilan ham, xulq-atvori bilan ham oldingisiga hecham o'xshamasdi. Qish sovug'idan cho'chib (qish qattiq keladi deyishgandi, darhaqiqat, bu keyingi yuz yil ichida eng qahraton qish bo'ldi) vrachlarning yana biroz vaqt kuzatuda tutish niyatiga qaramay, o'n uchinchi dekablda Marseldan jo'naydigan kemada uyga qaytishga qaror qildi. Oxirgi lahzalarda unga pul yetmasligi ma'lum bo'lib qoldi va Lasara eriga bildirmay, bolalar uchun yig'ib qo'ygan pulidan ozroq qo'shamoqchi bo'ldi. Ammo qarasa, o'zi o'ylaganidan kamroq pul qolgan ekan. Shunda Omero unga bildirmay, bu pullarning bir qismini kasalxonan xarajatini to'lashga sarflaganini tan oldi.

– Mayli, – yon berdi Lasara. – Uni bizning katta o'g'limiz deb hisoblab qo'ya qolamiz.

Qorbo'ron quturib turgan o'n birinchi dekabr kuni ular Prezidentni Marselga boradigan po'yezdga o'tqazishdi. Uyga qaytib kelishganida esa bolalar xonasidagi kichik javon ustida uning vidolashuv maktubini topishdi. O'zining nikoh uzungini va marhum xotinining sotishni hech qachon xayoliga ham keltirmagan uzugini Barbaraga, zanjirli soatni esa, Lasaraga qoldirgan edi. Prezidentning ketadigan kuni yakshanbaga to'g'ri keldi va sirdan allaqachon voqif bo'lgan kariblik ba'zi qo'shnilar arfa chaladigan verakruslik sozandalar bilan Kornaven vokzaliga kelishdi. Prezident unniqib ketgan palto va ilgarilarini Lasaraniki bo'lgan uzun, rangdor sharfda hansirab nafas olayotgan bo'lsa-da, oxirgi vagonning ochiq tamburida turgancha bo'ralab yog'ayotgan qor ostida kuzatuv-chilarga shlyapasini silkitib ketdi. Omero qo'lida

Prezidentning hassasi qolganini to'satdan sezib qolganida, poyezd tezlikni oshirgan edi. Omero platforma oxirigacha chopib bordi va Prezident ilib olishi uchun hassani bor kuchi bilan otdi, lekin hassa g'ildirak tagiga tushib, bo'lak-bo'lak bo'lib ketdi. Bu juda ayanchli manzara edi. Lasaraning eng oxirida ko'rgani – hassani tutishga uringan, lekin tutolmagan qaltiragan qo'llar va havoda muallaq qolgan, boshdan oyoq qor ga belangan qariyani sharfidan ushlab qutqarib qolgan yo'lboslovchi bo'ldi. Ko'zlar yoshga to'la bo'lsa-da, kulishga uringan Lasara dahshatga tu shib, eri tomonga oshiqdi.

– Yo Xudoyim-ey, – hayqirdi u. – Uni oladigan ajalning o'zi yo'q.

Prezident uzundan uzoq minnatdorchilik telegrammasida yozganida, manzilga eson-omon yetib borgandi. Keyin bir yildan ko'proq vaqt ichida ular u haqida xabar eshitishmadi. Undan so'ng ra qo'lda yozilgan olti sahifalik maktub keldi. Bu xatni tamomila boshqa odam yozganga o'xshardi. Yana ilgarigiga o'xhash qattiq va ketmas og'riqlar boshlangan, lekin u bunga parvo qilmay, boriga shukr qilib yashashga qaror qilgandi. Shoир Eme Sezer unga yaltiroq qadama naqshli hassa sovg'a qildi, lekin u hassa ishlatmaslikka qaror qildi. Mana olti oy bo'ldiki, u muntazam suratda go'sht iste'mol qiladi, kuniga yigirma finjon eng achchiq qahvadan ichadi. Lekin qahva quyqasi ga qaramaydigan bo'ldi, chunki ochilgan follar ning teskarisi bo'lib chiqdi. Yetmish besh yoshga to'lgan kuni u bir necha qadah zo'r martinika romi ichdi, o'zini juda yaxshi his qildi va yana chekishni boshlab yubordi. Albatta, uning ahvo-

li yaxshilangani yo‘q, lekin yomon ham bo‘lmadi. Biroq maktub yozishdan maqsadi adolat va Vatan shon-shuhrti uchun yangidan boshlangan harakatga boshchilik qilishdir, balki. Ehtimol, keksalik to‘sagida o‘lib ketmaslikdek mag‘ruro-na istak uchungina Vatanga qaytishga harakat qilayotganini ularga bildirish bo‘lgandir. Shu ma’noda, deb yakunlagandi u maktubini, Jeneva safari uning uchun tub burilish bo‘lgandi.

Boboxon MUHAMMAD SHARIF tarjimasi

HAYOTNING BESH TORTIG'I

Bir kuni erta tongda Pari o'z savatini ko'tarib yosh yigitning huzuriga tashrif buyuribdi.

– Bular mening sovg'alarim. Ulardan xohlagan bittasini tanlab ol, qolganini qaytarib olib ketaman. Ammo tanlovda juda ziyrak bo'l, ularning orasida faqat birgina sovg'a juda qimmatlidir! – debdi Pari yigitga.

Sovg'alar quyidagilar edi: Shuhrat, Sevgi, Boylik, Rohat va Halollik.

Yosh yigitcha besabrilik bilan debdi:

– O'y lashga hojat yo'q. Men Rohatni tanlayman!

Shunday qilib, yigitga uch yil muhlat berilibdi. Ammo qisqagina shu hayot behuda va zerikarli o'tibdi. Oxir-oqibat yigit uch yilini xazon qilgach, „Vaqt ortga qaytsa, Parining boshqa tortig'ini tanlagan bo'lardim“, deb o'kinibdi.

Bir payt uning yonida Pari paydo bo'libdi va debdi:

– Mening to'rtta sovg'am qoldi. Senga yana bir bor tanlash imkonini beriladi. Ular ichidan a'losini tanla!

Yigit uzoq o'y lab, Sevgini tanlashga qaror qilibdi. Ammo Parining ko'zidan tomayotgan ko'z

yoshlarni sezmabdi. Oradan belgilangan yil o'tib, erkak qabr tepasida turardi, yonida esa hech kim yo'q edi.

„Hamma suygan ayollarim mendan voz kechdi. Mana, oxirgi sevgan insonim ham mendan oldin u dunyoga yo'l oldi. Sevgi deya minglab soatlarim anduhda o'tdi. Tanlovimdan afsusdaman!..“

Pari yana uning yonida paydo bo'libdi:

– Yana bir bor tanla. Unutma, ular ichida birgina qimmatlisi mavjud. Juda ehtiyotkor bo'l!

Erkak o'ylay-o'ylay Shuhratni tanlabdi. Pari esa unga bir so'z demay ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Yillar o'tib, Pari uning yoniga yana kelib, erkakning xayolidan o'tayotgan har bir fikrni o'qib olibdi.

„Mening nomim dunyoga tanildi. Ismim tillarda doston bo'ldi, bundan avvaliga mamnun edim. Keyin esa hasad, g'iybat, ig'vo, ko'rolmaslik kabi qora xayollar meni o'rab oldi. Yonimda ishonchli qadrdonim qolmadi, juda g'aribman. Tanlovda yana adashgan ekanman!..“

– Unda yana bir bor urinib ko'r. Atigi ikkita sovg'am qoldi.

– Boylik – bu kuch. Avval ko'r bo'lgan ekanman. Hayotda eng badavlati o'zim bo'laman. Hatto odamlarni ham sotib olaman. Dunyoning bari lazzatlari oyog'im ostiga to'kiladi, umr bo'yi rohatda yashayman. Umrin ni noto'g'ri tanlovlarga bag'ishladim, bu gal adashmayman.

Oradan uch yil o'tgach, erkak eski-tuski ro'dapoga o'ralgancha bir chetda turardi. Uning ahvoli g'oyat achinarli, ko'zlaridan tinmay yosh oqardi.

– Men to'rt ajoyib sovg'ani tanladim. Ammo nega bari menga omadsizlik keltirdi? Naqadar ah-

moq ekanman! Pari nazarda tutgan sovg'ani nega olmadim-a?! Hoy-u havasga, aldamchi va o'tkin-chi narsalarga uchdim.

Pari uning yoniga kelib, bergan to'rt sovg'asi-ni qaytarib olibdi.

– Menga atalgan o'sha oxirgi sovg'ang qani?
– Afsuski, uni boshqa bir inson tanladi. Endi Halollik u bilan toabad birga, qaytarib ololmayman. Senga esa faqat uzoq keksalik hamroh bo'ladi.

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasi

HAYOTGA MUHABBAT

Ular oqsoqlanib, soyga tomon tushib borishardi. Hamrohlardan biri, oldinda ketayotgani, toshloq yerda qoqilib, gandiraklab ketdi. Ikkalasi ham charchab holdan toygan, yuzlaridan chidam va itoatkorlik ifodalari ko'rinib turadi – bu uzoq vaqt qiyinchilik chekish natijasi. Orqalaridagi qayish bilan tortib bog'langan og'ir yuklari yelkalarini ezadi. Ikkalasida ham bittadan miltiq. Ikkalasi ham bukchayib, engashib, ko'zlarini yerdan uzmay boradilar.

– Qani endi yashirib qo'ygan joyimizdagи o'qlardan hozir ikkitaginasи bo'lsa, – deb qо'ydi ulardan biri.

Azbaroyi madorsizligidan ovozi zaif chiqdi. O'zi behafsala gapirar edi; toshlarga urilib, ko'piklanib oqayotgan sutdek oppoq suvga endi oyoq bosgan sherigi esa, unga hech narsa deb javob bermadi.

Ikkinchisi ham sherigi orqasidan suvga tushdi. Suv muzdek sovuq bo'l shiga qaramay, ular oyoq kiyimlarini yechmadilar, suv shu qadar sovuq ediki, ularning oyoqlari, hatto oyoq barmoqlari ham sovuqdan uvushib qoldi.

Ba'zi joylarda suv tizzadan kelar, shitob bilan urilganda o'zlarini tutolmay gandiraklab ketardilar.

Orqada kelayotgan yo'lovchi silliq toshga tiyg'a-nib ketib yiqilishiga oz qoldi, og'riqdan qattiq ihrab yubordi-yu, ammo yiqilmadi. Boshi aylandi, shekilli, munkib ketib, xuddi havodan tayanch topishga intilgandek bo'sh qo'lini oldinga cho'zdi. O'zini o'nglab oldi-da, oldinga qadam bosdi, lekin yana toyib ketib, sal bo'lmasa yiqilayozdi. Shundan keyin to'xtab, o'z sherigiga qarab qo'ydi: sheri-gi esa orqasiga ham qaramay, hamon oldinga ketmoqda edi.

Bir narsani o'layotgandek, birpas qimirlamay turdi, keyin:

– Menga qara, Bill, oyog'imni chiqarib oldim! – deb qichqirdi.

Bill oyoqlarini sudrab sutdek oppoq suvdan kechib borardi. U orqasiga biror marta ham qayrilib qaramadi. Sherigi uning orqasidan qarab turardi, yuzi hali ham avvalgidek hech narsani ifoda qilmasa-da, ko'zlarida yaralangan bug'u singari chuqur qayg'u belgilari paydo bo'ldi.

Mana, Bill qarshi qirg'oqqa o'tib oldi-da, kallovlanib yurib ketdi. Suvning o'rtasida turgan hamrohi undan ko'zini olmay qarab turdi. Uning lablari shu qadar titrar ediki, o'siq sariq mo'ylo-vining tuklari uchib-uchib ketardi. U tilining uchi bilan qoq qurigan lablarini bir yalab oldi-da:

– Bill! – deb qichqirdi.

Bu falokatga yo'liqqan odamning jon achchig'i-dagi hayqirig'i edi, ammo Bill qayrilib qaramadi. Orqada qolib ketgan sherigi uning orqasidan uzoq vaqt qarab turdi: sherigi lapanglab, oqsoqlanib, qoqilib-suqilib, tepalikda ko'ringan egri-bugri ufq chizqlari tomon asta-sekin ko'tarilib borardi, Bill to tepalikni oshib, ko'zdan g'oyib bo'lib ketgun-

cha, sherigi uning orqasidan qarab turdi. Shundan keyin u tarafdan ko'zini uzdi va Bill ketgandan keyin o'zi yolg'iz qolgan yerni bir-bir ko'zdan kechirib chiqdi.

Xuddi ufq tepasida g'ira-shira va cheksiz-che garasiz quyuq tuman pardasi ortidan zo'rg'a ko'ri nayotgan quyosh xira nur sochib turadi. U butun og'irligini bir oyog'iga solib turib, soatini oldi, soat to'rt edi. So'nggi ikki hafta ichida u hisobni yo'qtib qo'ydi: iyulning oxiri yoki avgustning boshlari bo'lganidan quyosh shimoli-g'arbda bo'lishi kerak edi. U janub tomonga qaradi, mana shu yoqimsiz tepaliklar orqasida allaqayerda Katta Ayiq ko'li bor, xuddi o'sha tomonda Kanada sahrosidan mudhish shimoliy Qutb doirasi o'tadi, deb o'y lab qo'ydi, u turgan soy Koppermayn daryosining irmog'i, Koppermayn esa shimol tomonga oqib, Koronatsiya ko'rfa ziga, Shimoliy Muz dengiziga quyiladi. Uning o'zi u yerkarta hech qachon bormagan, lekin buning hammasini bir kun Gudzon ko'rfa zi kompaniyasining xaritasida ko'rgan.

U o'zi yolg'iz qolgan joyini yana bir marta ko'z dan kechirdi. Tevarak-atrof sovuqdan sovuq bir manzarani tashkil etardi. Pastakkina tepachalar bir xildagi egri-bugri chiziq hosil qilib, to ufqqa tutashguncha cho'zilib ketgan. Na biror daraxt, na buta, na o't-o'lan ko'rinaradi – poyonsiz va dahshatli sahrodan boshqa hech narsa yo'q. Uning ko'zlarida qo'rquv ifodalari ko'rindi.

– Bill! – deb pichirladi u, ketidan yana: – Bill! – deb takrorladi.

Poyonsiz sahro go'yo qudratli kuchi bilan bosayotganday, mudhish sokinligi bilan ezayotganday, u loyqalanib oqayotgan soy o'rtasida

cho'qqayib o'tirib qoldi. U xuddi bezgak tutayot-gandek qaltirab ketdi, shu payt miltig'i shalp etib suvga tushdi. Bu uni o'ziga keltirdi. U qo'rquvni yengib, es-hushini yig'di, keyin qo'lini suvga tiqib paypaslandi-da, miltig'ini topdi. So'ng mayib oyog'iga og'irlik kamroq tushsin uchun yukni chap yelkasiga surib oldi va har oyoq bosganda og'riqdan basharassini burushtirib, zo'r ehtiyot bilan sekin-asta qirg'oqqa yura boshladi.

U to'xtamay yuraverdi. Og'riqqa sira e'tibor bermay, o'lgudek tirishqoqlik bilan shoshib Bill oshib o'tib ketgan tepalik ustiga chiqaverdi, shunda o'zi kalovlanib zo'rg'a oyoq sudrab bora-yotgan Billdan ham kulgiliroq va qo'polroq bo'lib ketdi. Tepalikka chiqib qarasa, vodiya hech kim yo'q ekan! Uni yana qo'rquv bosdi, keyin qo'rquvni yana yengib, qopini chap yelkasiga yana ham surib oldi-da, oqsoqlanib-oqsoqlanib pastga tu-sha boshladi.

Vodiyning pastligi balchiqzor bo'lib, chimlik jiqla suv edi. Har qadam bosganda suv sachrar, oyog'ini nam chimlikdan har ko'tarib bosganda shalop-shulup etgan tovush chiqardi. U Billning izidan yurishga intilib, ko'loblarni aylanib o'tar yoki chimliklar ustida xuddi orol singari qaqqayib turgan toshlar ustidan borardi.

U yolg'iz qolgan bo'lsa ham yo'ldan adashmadi. Yana biroz yurgandan keyin atrofini pastakkina nimjon quruq pixta va archalar o'rab yotgan kichkina Titchinnichili ko'liga yetib borishini bilardi, bu ko'lning ismi mahalliy tilda „Kichik Og'ochlar O'lkasi“ degan ma'noni anglatardi. Shu ko'nga bir ariq kelib quyiladi, suvi ham loyqa emas. Ariq bo'ylarida qamish o'sadi. Buni u yaxshi eslaydi,

lekin u yerda daraxt yo‘q. U ariq bo‘ylab yuqoriga, soygacha boradi. Shu yerdan g‘arbga oqayotgan boshqa bir ariq yoqalab Diz daryosiga qadar boradi. Xuddi o‘sha yerda ustiga tosh bostirilgan, to‘nkarib qo‘yilgan qayiq ostiga yashirib qo‘yilgan narsalarni topadi. U yerda miltiq o‘qi, baliq tutadigan qarmoq va qarmoq iplari, kichik bir to‘r, umuman, ovqat topish uchun zarur narsalarning hammasi yashirib qo‘yilgan. Bundan tashqari, o‘sha yerda oz bo‘lsa ham un, bir parcha go‘sht, loviya ham bor.

Bill uni o‘sha yerda kutib turadi, keyin ikkisi Diz daryosi bilan Katta Ayiq ko‘liga boradilar, undan keyin ko‘ldan o‘tib janubga, to Makkenzi daryosiga yetib olguncha doim janubga qarab boraveradilar. Janubga, hamma vaqt janubga qarab boraveradilar – qish esa ularni quvib boradi. Tez-oqar soy va jilg‘alar muz bilan qoplanadi, sovuq tushadi, ular esa janubga Gudzon ko‘rfazidagi faktoriyalardan biriga yetib oladilar, u tomonlarda baland-baland, azamat daraxtlar o‘sadi va oziq-ovqat ham istagancha topiladi.

Zo‘rg‘a sudralib borayotgan yo‘lovchi mana shular haqida o‘ylar edi. Lekin yurish qanchalik og‘ir bo‘lmasin, Bill uni yolg‘iz tashlab ketmaydi degan fikrga ishonish undan ham qiyin edi. Bill hech shubhasiz uni narsalar yashiringan joyda kutib o‘tiradi. U shunday deb o‘ylashi kerak, aks holda bundan keyin kurashni davom ettirishning hech qanday ma’nisi yo‘q, unda oyoqni cho‘zish-u, o‘lib qo‘ya qolishdan boshqa iloj yo‘q. Qu-yoshning xira gardishi shimoli-g‘arb tomonga sekin-asta yashirina borar ekan, u Bill bilan birga yaqinlashib kelayotgan qishdan qochib, janub to-

monga qo'yiladigan har qadamini hisoblab chiqdi. U narsalar yashirilgan joydagi va Gudzon ko'rfazi kompaniyasining omboridagi oziq-ovqat zaxirasini qayta-qayta xayolidan kechirdi. Ikki kundan beri u hech narsa yegani yo'q, lekin undan ilgari ham to'yib ovqat yemagan edi. U tez-tez egilib, rangsiz botqoq mevalarini uzib og'ziga solar va chaynab yutib yuborardi. Mevalar juda ser-suv, suvi ichiga ketib, og'zida faqat taxir va qattiq urug'lаригина qolardi. Bu mevalar qorin to'yg'az-masligini bilardi, shunday bo'lsa ham ularni sabr bilan chaynar, chunki umid achchiq haqiqat bilan hisoblashmoqni istamas edi.

Soat to'qqizlarda u oyog'ining katta barmog'ini o'tkir tosh qirrasiga urib oldi. Charchoq va darmonsizlikdan gandiraklab yiqilib tushdi. Bir yon-boshiga ag'anab, anchagacha qimirlamay yotdi. Undan keyin orqasidagi qop qayishini yelkasiдан chiqarib, ihrab-ihrab o'tirib oldi. Hali uncha qorong'i tushganicha yo'q edi, shu g'ira-shirada toshlar orasini paypaslab, quruq xas-cho'p yig'a boshladi. Bir tutam xas-cho'p yig'ib o't yoqdi, keyin kotelokka suv solib, tutab-burqsib yonayotgan o'tga qo'ydi.

U qopni ochib, hammadan burun gugurtlarni sanab ko'rди. Hammasi bo'lib oltmish yetti dona gugurt cho'pi bor edi. U, yanglishgan bo'lmay, deb gugurtni uch marta sanab chiqdi. Gugurt-ni uch bo'lakka ajratib, har bir bo'lagini qog'ozga o'radi. Bir bo'lagini bo'sh hamyoniga solib qo'ydi, ikkinchisini eskirib ketgan shapkasingning astariga tiqdi, uchinchisini esa ko'kragiga yashirib qo'ydi. Bu ishni tamom qilgandan keyin uni bordan qo'rquv bosdi: uch bo'lak gugurtni yana ochib,

qaytadan sanab ko'rdi. Gugurt avvalgidek olt-mish yetti dona edi.

Oyoq kiyimini o'tga tutib quritdi, mokasini yirtilgan, adyoldan tikilgan paypoqlari chilteshik, oyoqlari bo'lsa qontalash bo'lib ketgandi. To'pig'i qattiq og'rirdi, u to'pig'ini ko'zdan kechirdi. To'pig'i xuddi tizzasidek yo'g'on tortib, shishib ketgandi. U adyollaridan bittasining chetidan uzun qilib yirtib oldi, to'pig'ini mahkam siqib bog'ladi. Keyin yana bir necha parcha yirtib olib, mokasin va paypoq vazifasini o'tasin, deb oyog'ini aylantirib o'radi-da, qaynagan suvdan ichib oldi, soatini buradi, so'ng adyolga o'ranib yotdi.

U dong qotib uxladi. Yarim tunga borib qorong'i tushdi, lekin bu uzoqqa cho'zilmadi. Shimoli-sharqdan quyosh ko'tarildi, to'g'rirog'i o'sha tomondan tong yorisha boshladni, chunki quyosh yuzini quyuq tuman qoplagan edi.

Soat oltida u chalqancha yotgani holda uyqu-dan uyg'ondi, kulrang osmonga qaradi va och qolganini sezdi. Tirsagiga suyanib qaddini ko'tardi va qayrilib qaragan edi, qulog'iga qattiq pish-qirgan tovush eshitildi. Qarasa, sezgirlik va qiziqish bilan bir bug'u unga qarab turgan ekan. Bug'u undan ellik qadamcha joyda turardi. Shu ondayoq tovada jizillab qovurilayotgan bug'u go'shtining hidi dimog'iga urilgandek, o'zi go'sht mazasini totgandek bo'ldi. Beixtiyor o'qi yo'q miltig'ini olib o'qtaldi, tepkini bosib yubordi. Bug'u cho'chib bir chekkaga tashlandi va tuyoqlarini ta-pillatib qochib ketdi.

Odam so'kinib, miltig'ini uloqtirib tashladi, ixrab-ixrab o'rnidan turishga urinib ko'rdi. An-cha uringandan keyin zo'rg'a turib oldi. Bo'g'inla-

ri xuddi zanglab qolgandek edi, ularni to'g'rilash yoki egish juda mashaqqat edi. Nihoyat, u oyoqqa turgandan keyin ham odamga o'xshab tik turib olish uchun rosa bir daqiqacha urindi.

U chog'roq bir tepalik ustiga chiqib, atrof-ga nazar tashladi. Bo'zrang chimlik dengizidan boshqa hech narsa – na biror daraxt, na biror buta – hech narsa ko'rinnmasdi. Onda-sonda bo'z-rang xarsangtoshlar, bo'zrang ko'lchalar, bo'z-rang ariqlargina ko'zga tashlanadi. Osmon ham bo'zrang edi. Quyosh na nur sochadi, na uning yilt etgan shu'lesi ko'riniq qoladi. U shimol qa-yoqda ekanini, kecha kechqurun bu yerga qaysi tomondan kelganini eslay olmadi. Lekin u yo'ldan adashmagan edi. Buni yaxshi biladi. U tezda Kichik O'g'ochlar O'lkasiga yetib oladi. U o'lka shu yaqin orada, chap tomonda bo'lishi kerak, ehtimol, xuddi mana shu ko'riniq turgan tepalikning narigi tomonidadir.

U qaytib tushib, yo'lga otlandi; tugunini tug-di, uch bo'lak qilib qo'ygan gugurtlarim turib-dimi-yo'qmi, deb paypaslab ko'rdi, lekin sanab o'tirmadi. U bug'uning terisidan tikilgan xalta-chaga qarab turib, xayol surib qoldi. Xalta uncha katta emas, ichidagi narsalari bilan bir hovuch kelardi. Lekin og'irligi o'n besh qadoq bo'lib, qol-gan yukning og'irligi bilan teng – uni mana shu tashvishga solardi. U xaltani bir tomonga surib qo'yib, boshqa narsalarni o'ray boshladi. Keyin xaltachaga qaradi-da, apil-tapil qo'liga oldi, xuddi sahro uning qo'lidan oltinni tortib olayotgandek, xo'mrayib atrofga qaradi. Yangidan o'rnidan turib, yo'lga tushganda boshqa narsalar qatori xal-tacha ham uning orqasida edi.

U chapga tomon burildi. Ahyon-ahyonda to'xtar va botqoq mevalaridan terib yer edi. Uning oyog'i butunlay qotib qoldi, o'zi borgan sari kuchliroq oqsar, lekin oyoq og'rig'i qornidagi og'riq azobi oldida hech gap emasdi. Ochlik azobi uni hammadan ko'proq qiynar, qornidagi og'riq esa ich-ichidan azob berardi. Endi u Kichkina Og'ochlar O'lkasiga yetib olish uchun qaysi tomonga yurishni ham bilmasdi. Mevalar uni ochlik azobidan qutqarolmas, til va tanglaylarini lovullatib achitardi. Kichikroq bir soylikka yetib borganda, toshlar orasidan qanotlarini qoqib va qir-qirlashib bir to'p oq kaklik ko'tarildi. U kakliklarga tosh otdi, lekin tekkizolmadi. Keyin u yukini yerga qo'yib, xuddi chumchuq poylagan mushukdek, kakliklarning orqasidan pusib o'rmalab bora boshladi. O'tkir tosh qirralari uning shimlarini parchalab tashladi, tizzalaridan oqqan qon qonli iz qoldirib bordi. Lekin ochlik azobi shunchalik kuchli ediki, u boshqa hech qanday og'riqni sezmasdi. U balchiqzor chimliklar ustidan o'rmalab, kiyimlari ho'l-shalabbo bo'lib ketgan, badani sovuqdan qotgan edi-yu, lekin faqat ovqat haqida o'ylar, boshqa hech narsani sezmasdi. Atrofidan hadeganda par etib uchib ketayotgan kakliklarning qir-qiri uni masxara qilayotgandek tuyuldi. U kakliklarni so'kib qo'ydi-da, ularga taqlid qilib qichqira boshladi.

Bir marta u bir kaklikka juda yaqin kelib qoldi, qush, chamasi, uxbab yotardi. U qush toshlar orasidagi o'z uyasidan yuziga tegib ketay deb parillab uchib chiqmaguncha, kaklikni ko'rmadi. Kaklik bexosdan parillab chiqib qolganiga qaramay, u changal soldi. Qo'lida qushning uchta

pati qoldi. U uchib ketayotgan qushning orqasidan qarab turdi, kaklik go'yo uning boshiga katta falokat keltirgandek, odam ko'nglida unga nisbatan cheksiz nafrat uyg'ondi. Keyin orqasiga qaytib, yukini ko'tarib oldi.

Choshgoh paytida u bir botqoqqa yetib keldi, bu yerda ov ko'proq edi. Xuddi unga o'chakishganday oldidan yigirmatacha bug'u o'tib ketdi, ular shunday yaqindan o'tdiki, miltiq o'qi bahu-zur yetardi. U jonivorlarni quvlagisi kelib ketdi, quvlasa, ushlab olishiga juda ishonardi. Uning oldidan og'ziga kaklik tishlagan bir qora tulki o'tib ketdi. U qichqirib yubordi. Shunday qattiq qichqirdiki, cho'chib ketgan tulki o'zini bir chetga urdi, ammo kaklikni og'zidan tushirib yubormadi.

Kechqurun u qamishlar orasidan ohakdek oppoq loyqalanib oqayotgan ariqcha yoqalab borradi. Bir qamishning ostidan mahkam ushlab, xuddi piyozga o'xshagan bir narsani sug'urib oldi. Qamishning tomiri yumshoq bo'lib, chaynaganda ishtahani olib, qars-qars qilardi. Lekin o'zi mazasi taxir, xuddi mevaga o'xshagan sersuv bo'lib, och qorinni to'yg'azmasdi. U yukni yerga tashla-di-da, xuddi kavsh qaytarayotgan molga o'xshab kavshana-kavshana qamishlar orasidan o'rmalab ketdi.

U juda charchagan, biroz orom olgisi, yotib uxlagisi kelardi; lekin Kichik Og'ochlar O'lkasiga yetib olish orzusi, undan ham zo'rroq bo'lgan ochlik azobi unga tinchlik bermasdi. U bunday uzoq Shimolda qurt va qurbaqalar bo'imasligini bilsa ham, chuqurchalardan qurbaqa axtarar va oyoqlari bilan yerni titkilab, qurt qidirar edi.

U har bir ko'makni sinchiklab qarardi. Pirovardida, qosh qoraygan paytda, bir chuqurda

bittagina baliqcha suzib yurganini ko'rib qoldi. U yelkasigacha qo'lini suvga tiqdi. Lekin baliqcha uning qo'lidan sirg'alib chiqib ketdi. Shunda u qo'lini suvga tiqib, butun chuqurchani ostin-ustun qilib loyqalatib yubordi. Butun fikr-u yodi baliq bilan bo'lib, hayajondan suvga tushib ketdi, beligacha suvga botdi. Suvni shunday loyqalatib yubordiki, baliqni ko'rib bo'lmay qoldi, shundan keyin loyqa suv tiniqlashguncha kutib turishga to'g'ri keldi.

U yana baliqni ov qila boshladi-da, suvni yana loyqalatib yubordi. Ortiq kutishga toqat qolmadidi. Yukka qo'shib bog'langan paqirchani oldi-da, chuqurdagi suvni bu yoqqa olib to'ka boshladi. Suvni quritish uchun zo'r berib ishladi, ust-boshi shalabbo bo'lib ketdi, shoshilganidan suvni chuqurga shunday yaqin to'kardiki, suv yana qaytib chuqurga oqib tushardi. So'ngra u qo'lining titrashi va yuragining qattiq urishiga qaramay, xotirjam bo'lib ishslashga harakat qildi. Yarim soatdan keyin chuqurchada hatto bir hovuch ham suv qolmadi. Biroq baliq yo'q bo'lib qolgandi. Uning ko'zi toshlar orasidagi bir teshikchaga tushdi. BAliq o'sha yerdan katta bir chuqurga o'tib ketidi, u chuqurda suv shu qadar ko'p ediki, uning suvini bir kecha-yu bir kunduzda ham tamom qilib bo'lmasdi. Teshik borligini ilgari bilganda, hammadan burun uni tosh bilan berkitib qo'ygan bo'lardi, shunda baliq uning qo'lidan qochib qutulolmasdi.

Odam holdan toyib chalchiq yerga o'tirib oldi-da, yig'lab yubordi. Oldin sekin-sekin yig'ladi. Keyin atrofni o'rab yotgan shafqatsiz biyobonni uyg'otmoqchi bo'lgandek borgan sari qattiqroq,

ho'ng-ho'ng yig'layverdi; ho'ngrab-ho'ngrab, a'zoyi badani titrab yana uzoq yig'ladi.

U o't yoqdi, qaynagan suv ichib, biroz isidi va kechagidek yotish uchun tosh ustiga joy soldi. Yotishdan avval u gugurtning ho'l-quruqligini tekshirib ko'rdi va soatini burab qo'ydi. Adyol ho'l va muzdek edi. Og'riqdan oyoqlari o'tday yonar, lekin u faqat ochlik azobini sezardi. Kechasi har xil ziyofatlar, mehmondorchiliklar va dasturxonga tortilgan turli noz-ne'matlarni tush ko'rib chiqdi.

U sovuq qotib, kasal bo'lib uyg'ondi. Quyosh ko'rinasdi. Yer-u osmonning bo'zrang tusi yana ham quyuqlashgan; qattiq shamol urib turar, birinchi yog'gan qor tepaliklarni oppoq tusga kiritgan. U o't yoqib suv qaynatguncha, havo yana ham quyuqlashgandek, yana ham oqargandek tuyuldi. Bu yog'ayotgan qorning ho'l laylakqorga aylanganidan edi. Qor boshida yerga tushgan zamon erib turdi, lekin bora-bora ko'payib, yerning usti qor bilan qoplama boshladi-da, qor quruq xas-cho'plarni ho'l qilib, o'tni o'chirdi.

Bu unga yukini orqasiga ko'tarib, boshi og'gan tomonga yo'lga chiqish uchun belgi bo'ldi. U endi Kichik Og'ochlar O'lkasi haqida ham, Bill haqida ham, Diz daryosi sohilidagi qayiq ostiga yashirilgan narsalar haqida ham o'ylamasdi. Uning fikr-u xayoli ovqat bo'lib qolgan edi. Ochlik uni aqldan ozdirdi. U qayoqqa ketayotganini ham o'ylolmay qoldi. Ishqilib, to'g'ri va tekis vodiydan borsa bo'lgani edi. U ho'l qor ostidan sersuv mevalarни paypaslab qidirar, qamishlarni tomiri bilan sug'urib olardi. Lekin bu bemaza yemish uning qorniga orom bermasdi. Yolda u mazasi achchiq bir o'simlik topdi, bu o'tdan qancha topsa, ham-

masini yedi, ammo o'simlik juda oz ekan, bu o'r-
malovchi bir o'simlik bo'lib, qor tagida qolgandi.

Shu kecha u o't yoqmadni, suv ham qaynat-
madi, adyol ichiga kirib oldi-da, och holda yotib
qoldi. Qor asta-sekin sovuq yomg'irga aylandi.
Yuziga yomg'ir tomchilari tushayotganini sezib,
tez-tez uyqusidan uyg'onib ketardi. Tong otib,
yana quyoshsiz bo'zrang kun boshlandi. Yomg'ir
to'xtagan. Endi undagi ochlik tuyg'usi o'tmas-
lashdi. Qornida allaqanday bezillab turgan bir
og'riq qoldi, xolos, ammo bu unga uncha azob
bermasdi. Uning fikri biroz ravshanlashdi, endi u
yana Kichik Og'ochlar O'lkasi haqida, Diz daryosi
bo'yiga yashirib qo'yilgan narsalar haqida o'lay
boshladi.

U yirtiq adyoldan qolgan qismini yana uzunasi-
ga yirtib, qoni chiqar darajada shilinib ketgan
oyog'ini bog'ladı, chiqqan to'pig'ining lattasini
yangiladi-da, yana yo'lga tushishga hozirlandi.
Yukni ko'tarib olishdan oldin bug'u terisidan ti-
kilgan xaltaga uzoq tikilib turdi-yu, yana xaltani
ham olib ketdi.

Yomg'ir qorni eritib ketgandi, faqat tepacha-
larning uchi oqarib turardi. Quyosh ko'rinish qol-
di, bundan foydalaniib, yo'lovchi dunyoning to'rt
tomonini belgilab oldi, yo'ldan adashganligi aniq
bo'ldi. So'nggi kunlarda chap tomonga ko'proq ke-
tib qolgan bo'lsa kerak, endi u to'g'ri yo'lga tushib
olish uchun o'ng tomonga qarab yura boshladi.

Ochlik azobi o'tmaslashgan edi-yu, lekin o'zi-
ning holdan ketganini sezdi. Dam olish uchun
tez-tez to'xtar, yerdan meva terar va qamishlar-
ni tomiri bilan sug'urib olardi. Uning tili qaqrab,
shishib ketdi, og'zi achchiq va bemaza. Hamma-
dan ko'proq yuragi bezovta qildi. U bir necha qa-

dam bosmasdan yuragi duk-duk urib ketar, keyin qinidan chiqib ketar darajada dukullab ura boshlardi-da, yo'lovchi bo'g'ilar, o'zdan ketar darajada boshi aylanardi.

Tush paytida u katta bir chuqurda ikkita tanga baliq suzib yurganini ko'rib qoldi. Chuqurning suvini quritib bo'lmasdi, lekin endi u ancha o'zini bosib olgandi, paqirchasi bilan baliqlarni tutib oldi. Baliqlar jimjiloqdek-jimjiloqdek kichkina edi, lekin u ovqat yeyishni uncha istamasi di. Qorin og'rig'i xuddi mudrayotgandek, borgan sari bosib borardi. U baliqlarni xomligicha og'ziga solib, g'ayrat bilan chaynay boshladidi. Ishtahasi bo'lmasa ham, ovqat yeyishga o'zini majbur qildi, chunki yashamoq uchun ovqat yeyish zarurligini yaxshi bilardi. Kechqurun u yana uchta tanga baliq tutdi, ikkitasini yeb, uchinchisini ertalabga olib qo'ydi. Quyosh onda-sonda uchrab turgan yo'sinlarni quritganda, u suv qaynatib ichib, biroz isidi. O'sha kuni u o'n mildan ortiq yo'l bosolmadi, ertasiga yuragi gupullab urib ketaverib, besh milga yaqin yo'lni zo'rg'a bosib o'tdi. Qorni uyquga ketgandek ortiq og'rimay qo'ydi. Endi u notanish yerlardan borardi, bug'ular tez-tez uchrar, hatto bo'rilar ham ko'rinish qolardi. Ularning uvullagan tovushi uzoqdan qulog'iga chalinardi. Bir marta u pusib yo'lini kesib o'tayotgan uchta bo'rini ko'rib qoldi.

Yana tun kirdi, tongda u biroz o'ziga kelib, xaltaning qayishini yechdi-da, ichidagi oltinni yerga to'kdi. Oltinni bab-baravar qilib, ikki qismiga bo'ldi. Bir bo'lagini lattaga o'rabi, uzoqdan yaxshi ko'rinish turadigan bir tepalikka, toshlar orasiga yashirib qo'ydi. Ikkinchi qismini yana xaltaga so-

lib, og'zini bog'ladi. Keyin u bitta-yu bitta adyolini yirtib, oyoqlarini o'radi. Lekin u hali ham miltig'i-ni tashlamadi, chunki Diz daryosi bo'yida yashirib qo'yilgan narsalar orasida patronlar bor edi.

Bugun hamma yoqqa tuman tushdi. Shu kun ochlik yana o'zini bildirdi. Yo'lovchi juda zaiflashib qolgan, tez-tez boshi aylanar, vaqtı-vaqtı bilan hech narsani ko'rmay qolardi. U endi tez-tez qoqilib ketar, yiqilar edi, bir marta to'ppa-to'g'ri kaklik uyasiga yiqilib tushdi. Uyada endigina tuxumni yorib chiqqan kaklik bolalari bor ekan. U shoshib-pishib ularni tiriklayin og'ziga sola boshladi. Kaklik bolalari uning tishlari orasida xuddi tuxum po'stlog'i singari qisirlar edi. Ona kaklik uning tepasida charx aylanib uchib yurar va achchiq-achchiq yig'lardi. Yo'lovchi miltiq qo'n-dog'i bilan kaklikni urib tushirmoqchi bo'ldi, lekin qush chap berib qochdi. Keyin u kaklikka tosh ota boshladi-da, qanotini sindirdi. Kaklik yarlangan qanotini sudrab, bir tomonga qarab uchib ketdi, odam uning orqasidan quvlashga tushdi.

Kaklik bolalari uning ishtahasini yana ham ochib yubordi. U kalovlanib, oqsoqlanib goh kaklikka tosh otar va bo'g'iq qichqirar, goh har yiqilganida chidam bilan o'rnidan turib, qovog'ini solib indamay qadam bosardi, boshi aylanganda hushdan ketmaslik uchun ko'zlarini ishqalar edi.

Kaklik orqasidan quvib, pastlikdagi bir chal-chiqzorga borib qoldi. Ko'zi ho'l chimlikda odam iziga tushdi. Bu izlar uniki emasligi ravshan edi. Billning izlari bolsa kerak. Lekin u to'xtab turolmasdi, chunki kaklik borgan sari undan uzoqlashib qochib ketmoqda edi.

U quvlay berib qushni charchatdi, lekin o'zining ham tinkasi quridi. Kaklik yonboshiga ag'darilib,

og'ir-og'ir nafas olib yotardi, lekin u ham o'n qadamcha berida entikib yotar, qushga yetib olishga sira madori qolmagan edi. Odam biroz dam oldi, lekin qush ham nafasini rostlab olgandi. U qo'l uzatgan zamon qush tipirlab qochdi. Quvish yangidan boshlandi. Qorong'i tusha boshlagach, qush ko'zdan g'oyib bo'ldi. Juda charchaganidan qoqilib, orqasidagi yuki bilan yiqildi-da, yuzlari shilinib ketdi. U uzoq vaqtgacha qimirlamay yotdi, keyin yonboshiga ag'darilib, soatini burab qo'ydi-da, tong otguncha shu holatda yotib qoldi.

Yana tuman. Adyolning yarmisi oyog'ini o'rashga ketdi. Billning izini u qaytib topolmadni, lekin unga baribir edi. Ochlik uni hamon olg'a haydar-di. Bordi-yu... Bordi-yu, Bill ham adashib qolgan bolsa-chi? Tushga borib u juda ham holdan toydi. U yana oltinni ikkiga bo'ldi. Bu gal o'lchab o'tirmay, yarmini yerga to'kib qo'ya qoldi. Kechga borib, adyolning yarmini, paqircha va miltiqni olib qolib, oltinning hammasini yerga to'kib tashladi.

Unga bir xomxayol yopishib oldi. Tasavvurida miltiqda xuddi bir o'q qolgandek, buni ko'rmay qolgandek edi. Shu bilan bir vaqtda miltiqda o'q yo'qligini yaxshi bilardi. Lekin xomxayol uni sira tinch qo'ymadi. Bir necha soatgacha mana shu xomxayolga qarshi kurashdi. Pirovardida, miltig'i-ni qarab, o'qning yo'qligiga ishonch hosil qildi. Hafsalasi shunday pir bo'ldiki, go'yo u haqiqatan ham o'q borligini kutgan edi.

Yarim soat o'tdi, keyin boyagi xomxayol yana paydo bo'ldi. U xomxayolga qarshi kurashib yengolmadi-da, o'zini biroz ovutish uchun yana miltig'ini tekshirib chiqdi. Ahyon-ahyonda miyasi ishlamay qolar, o'zi esa jonsiz bir narsadek beixti-

yor kalovlanib borardi; g'alati xayollar va bema'ni tasavvurlar uning miyasini aynitar edi. Lekin u tez o'ziga kelardi, chunki ochlik azobi uni hamma vaqt haqiqatga qaytishga majbur qilardi. Bir marta ko'z o'ngida shunday g'alati bir manzara paydo bo'ldiki, hushidan ketib qolishiga sal qoldi. U o'zini tutolmay qoldi va yiqilib ketmaslik uchun mast kishidek gandiraklab ketdi. Uning oldida ot turardi. Ot! U ko'zlariga ishonmasdi. Ko'z oldi jimirashib, atrofni tuman bosgandek bo'ldi. U zo'r berib ko'zini ishqaladi, ko'zoldi ravshanlashganda qarasa, qarshisida ot emas, kattakon bir targ'il ayiq turgan ekan. Ayiq unga yovqarash qilib turar edi.

U miltig'ini yelkasidan oldi-yu, shu ondayoq esini yig'di. Miltiqni qo'yib, munchoq qadalib tilgan qindan pichog'ini sug'urdi. Uning oldida go'sht va hayot turar edi. U bosh barmog'i bilan pichoqning tig'ini paypaslab ko'rди. Pichoqning tig'i ham, uchi ham o'tkir edi. U hozir ayiqqa tashlanib, uni o'ldiradi. Lekin uning vuragi xuddi xavfdan ogohlantirayotgandek di bashladi. Keyin birdan yuragi qinida tar darajada hapriqib ketdi; miyasi xuga olgandek qattiq og'ridi, ko'z oldi qo:

Hozirgina jo'sh urib turgan boti qo'rquv egalladi. U shunday zaif edi jum qilsa, unda nima bo'ladi? Mu haybatliroq bo'lib ko'rinish uchun qa'di, pichoqni qo'liga olib, to'g'ri ayiqnii tikildi. Yirtqich lapanglab oldinga bir qauam uosdi, ikki oyog'ini ko'tarib, o'kirib yubordi. Odam qochib ketganda, ayiq uning orqasidan quvgan bolardi. Lekin odam qo'rquvning kuchliligidan

botirlanib, o'rnidan qimirlamadi; u ham yirtqich hayvon singari vahshiyona ovoz bilan o'kiring yubordi, bu o'kirik qo'rquv ifodasi edi, chunki qo'rquv yashash uchun kurash bilan chambarchas bog'liq edi.

Ayiq undan qo'rqlay, tik turgan mana shu sirli maxluqdan hayiqib, o'kirib-o'kirib bir tomonga chekindi. Lekin odam o'rnidan qimirlamadi. U xavf o'tib ketguncha qaqqayib tek turdi, keyin xuddi bezgak tutgandek qaltirab, ho'l chimlikka yiqildi.

U biroz o'ziga kelib, qo'rquv azobidan qiyngalgan holda yana yo'nga tushdi. U endi ochdan o'lishdan emas, balki hayot uchun kurashning so'nggi intilishlari so'nguncha yirtqich hayvonlar qo'lida o'lishdan qo'rqlardi. Atrofda bo'rilar izg'ib yurardi. Sahroda hamma yoqdan ularning uvullagan tovushlari eshitilardi, tevarak-atrofda xavf shu qadar ko'p ediki, u o'sha xavfni bartaraf qilmoqchi bo'lgandek beixtiyor ikki qo'lini yuqori ko'tardi.

Bo'rilar ikkita-ikkitadan, uchta-uchtadan bo'lib tez-tez uning yo'lini kesib o'tardilar. Lekin ular odamga yaqinlashmadilar. Ular juda ham ko'p emasdi. Bundan tashqari, ular qarshilik ko'rsatmaydigan bug'ularni ovlashga o'rgangan edilar, ikki oyoqli bu g'alati maxluq esa chang solib qolsa ham, tishlab olsa ham ajab emasdi.

Kechga borib, u yerda sochilib yotgan suyaklarni ko'rib qoldi. Bo'rilar xuddi mana shu yerda ovni qo'nga tushirgan edilar. Bundan bir soat ilgari tirik bo'lgan bug'ucha hansirab, yugurib, ma'rab yurgandi. Odam top-toza qilib qo'yilgan yarqiroq qizg'ish suyaklarga qarab turdi. Suyaklarning rangi qizg'ish edi, chunki undagi hayot hali so'n-

magandi. Kechqurunga borib, ehtimol, uning taqdiri ham shunday bo'lar. Hayot shunaqa, hayot bevafo va bebaqo. Lekin hayot alam chektiradi. O'limda qiynalish yo'q. O'lim uxlamoqdir. O'lim orom olmoqdir. Bo'lmasa, nima uchun u o'lishni istamaydi?

Lekin u uzoq o'ylab o'tirmadi. Ko'p o'tmay u cho'kka tushib olib suyaklarni og'ziga soldi, suyaklarga qizg'ish tus berib turgan hayotning oxirgi nishonalarini so'rardi. Go'shtning o'tmishdan qolgan xotira singari tuyulgan sezilar-sezilmas mazasi uni o'zini yo'qotar darajada hayajonga soldi. Suyakni tishlari orasiga olib g'ajiy boshladi. Goh suyak sinar, goh uning tishi sinardi. Keyin u suyakni tosh bilan yanchib, ochko'zlik bilan yuta boshladi. Shoshilganidan toshni barmoqlariга urar, ammo qancha hovliqmasin, nima uchun og'riqni sezmayotirman, deb ajablanib qo'yardi.

Qor va yomg'irli eng og'ir kunlar yetib keldi. U endi qachon yotib, qachon yo'lga tushgani ni eslay olmasdi. Vaqt ni surishtirmay, kecha-yu kunduz yo'l bosa bordi, yiqilgan yerida dam oldi, undagi so'nayotgan hayot sal jonlandi deguncha yana oldinga qarab o'rmaladi. Hayot uchun endi odam kurashmay qo'ydi. Undagi hayotning o'zi o'lishni istamas va uni ilgari haydardi. U ortiq azob chekmasdi. Uning asablari uvushib qolgan, o'tmaslashgan, miyasi esa g'alati xayollar, shirin tushlar bilan to'la edi.

U bitta qo'ymay yig'ib, o'zi bilan olib ketgan suyaklarni tinmay so'rар va chaynar edi. U ortiq tepaliklarga ko'tarilmas, ariqlarni kechib o'tmasdi, u endi keng vodiyidan oqib o'tayotgan anhor yoqalab borardi. Uning ko'ziga xayoliy manzaralar

ko'rinardi. Uning tani bilan joni birga borardi-yu, shunday bolsa ham bir-birlaridan ajralgandek edi: ularni bir-birlariga bog'lab turgan hayot rish-tasi shu qadar ingichka edi.

Bir kuni ertalab yassi bir tosh ustida yotganda hushi o'ziga keldi. Quyosh nur sochib, isitib turardi. Uzoqdan uning qulog'iga bug'ularning ma'ragan ovozlari eshitildi. Yomg'ir, shamol, qor yog'ib turgani g'ira-shira esida, lekin yog'ingarchilik necha kun bo'lganini, ikki kun bo'ldimi, yo ikki hafta davom etdimi – buni bilmasdi.

U uzoq vaqtgacha qimirlamay yotdi, quyosh mo'l-ko'l nur sochib, uning ayanchli badaniga issiqlik bag'ishlar edi. „Yaxshi kun“, deb o'yladi u. Ehtimol, quyoshga qarab, qayerda ekanini aniqlab olar. U ming azob-uqubat bilan bir yonboshiba ag'darildi. Pastda katta sokin bir daryo oqib yotardi. Bu daryo yo'lovchiga notanish edi, bu uni ajablantirdi, shoshilmay suvning oqishini ko'zdan kechira boshladi. Daryo shu vaqtgacha u ko'rib kelgan tepalardan ham yalang'ochroq va yoqimsiz tepaliklar orasidan buralib-buralib oqayotganiga qarab yotdi. U shoshmasdan, beparvo va sira qiziqmay notanish daryoning oqimini to ufqqa qadar kuzatdi-da, daryo o'z suvini uzoqda yarqirab turgan dengizga quyayotganini ko'rди. Shunday bo'lsa ham bunga hayajonlanmadni. „Qiziq, – deb o'yladi u. – Bu yo sarob yoki o'tmaslashgan tasavvurning mevasi“. Yarqiroq dengizda turgan kemani ko'rganda, bu fikrning to'g'ri ekanligiga yana bir marta ishondi. U bir zum ko'zlarini yumbib, yana ochdi. Ajab, xayoliy manzara yo'qolmadi. Hayron qoladigan hech gap yo'q edi ham. Uning miltig'ida patron bo'lmaganidek, mana shu

sahroning qoq o'rtasida dengizning ham, kema-ning ham bo'lishi mumkin emasligini bilardi.

Orqadan xirillagan bir tovush eshitildi, bu xo'rsinishmi, yo'talmi – bilib bo'lmasdi. G'oyat zaiflik va karaxtlikni juda sekinlik bilan yengib, u ikkinchi yonboshiga ag'darildi. Yaqinida hech narsa ko'rinnadi, u sabr bilan kuta boshladi. Yana xirillagan va yo'tal tovushi eshitildi. Yigirma qadamcha narida o'tkir qirrali ikki toshning orasidan bir bo'rining kulrang boshi ko'rindi. Uning quloqlari boshqa bo'rilmarniki singari tik emas, ko'zlar xira va qon quyilgan, boshi zaif ravishda solingan. Bo'ri kasal bo'lsa kerak: u hamma vaqt aksa urar va yo'talar edi.

„Hech bo'limganda bunisi haqiqatdir“, – o'yaldi u va tasavvur olamidagi dunyoni emas, haqiqiy dunyoni ko'rish uchun boshqa yonboshiga ag'darildi. Lekin dengiz hali ham ilgarigidek uzoqda yaltirab turar, o'rtasidagi kema ham aniq ko'zga chalinardi. Ehtimol, bu rostdan ham haqiqatdir? U ko'zlarini yumib o'ylay boshladi – pirovardida, hamma narsa ayon bo'ldi. U shimoli-sharqqa qarab yurgan va Diz daryosidan uzoqlashib Koppermayn daryosi vodiysiga kelib qolgan. Sokin oqayotgan mana shu keng daryo Koppermayn daryosining xuddi o'zginasi. Yaltirab turgan dengiz – Shimoliy muz dengizi. Bu kema kit ovchilari kemasi bo'lib, Makkenzi daryosi dengizga quyiladigan joydan sharq tomonga ancha ketib qolgan. Bu kema Koronatsiya ko'rfazida turibdi. U bir vaqtlar ko'rgani Gudzon ko'rfazi kompaniyasining xaritasini esladi-yu, bor gap ravshan, tushunarli bo'lib qoldi.

U yerga o'tirib oldi-da, eng zarur ishlar haqidagi o'ylab ketdi. Oyoqlarini o'rabi bog'lagan adyol

parchalari titilib ketgandi, shu sababdan oyoqlari shilinib qip-qizil go'sht bo'lib qolgandi. Eng so'nggi adyolni ham ishlatib bo'lgan. Miltiq bilan pichog'i yo'qolgan. Qalpog'i ham tushib qolibdi, u bilan birga astariga yashirilgan gugurt ham yo'qolgan-di, lekin qog'ozga o'rab, hamyoniga solib qo'ygan gugurt hali ham quruq turibdi. U soatiga qaradi. Soati, hamma vaqt u soatini burab turgan bo'lsa kerak, yurib turar va o'n birni ko'rsatardi.

O'zi tinch, aqli joyida edi. Juda holdan toyaganiga qaramay, og'riqni sezmas, ovqat yegisi ham kelmasdi. Ovqat haqidagi fikr uni qiziqtirmasdi ham. Har bir harakatni idrok hukmi bilan qilar-di. U shimming pochasidek to tizzasigacha yirtib oldi-da, to'pig'ini o'rab bog'ladi. Chelakchasinini nima uchundir tashlamadi: kemaga qarab yo'l olishdan avval suv qaynatib ichishi kerak, bu safarning juda og'ir bo'lishini u oldindan bilardi.

U juda sekin harakat qilar, shol odamdek qaltirar edi. Quruq yo'sin yig'moqchi bo'ldi, lekin o'rnidan turolmadi. Bir necha marta o'rnidan turishga intilib ko'rdi, bo'lmagach, emaklab ketdi. Bir marta hatto kasal bo'rining oldiga juda yaqin borib qoldi. Bo'ri istar-istamas o'zini chetga oldi va zo'rg'a tilini qimirlatib tumshug'ini yalandi. Uning tili sog'lom bo'rinikidek qizil emas, kул-rang-sarg'ish bo'lib, yelim singari quyuq shilliq bilan qoplangan. Odam biroz qaynagan suv ichib oldi-da, deyarli kuch-quvvatdan qolgan bo'lsa ham, o'rnidan turishga, hatto yurishga o'zida yetarli kuch borligini his qildi. Daqiqa sayin to'xtab dam olardi. Zaiflik bilan yakkam-dukkam qadam tashlar, bo'ri ham uning orqasidan xuddi shu xilda sudralib borardi.

Qorong'i tushib, yarqirab turgan dengiz zulmat ichiga g'arq bo'lganda, u oraliqdagi masofa ko'p emas, to'rt milga qisqarganini anglatdi. Tun bo'yi kasal bo'rining yo'talishi va ba'zan bug'u bolalarining ma'rashi eshitilib turdi. Atrofda hayot qaynamoqda, ammo u hayot kuch-quvvatga to'la, sog'lom hayot. U esa orqasidan kasal bo'ri ergashib kelayotganini, kasal odam avval o'ladi, degan umidda ekanligini tushunar edi. Ertalab turib qarasa, bo'ri unga g'amgin va ochko'zlik bilan ko'z tikib turibdi. Bo'ri dumini qisib, xuddi tinkasi qurigan g'arib it kabi, boshini quyi solib turardi. Bo'ri sovuq shamolda qaltirar, odam unga xirillagan tovush bilan so'z qotganda, tishini tirjaytirib irillar edi.

Ufqdan yorqin quyosh ko'tarildi. Odam choshgohga qadar qoqilib-suqilib yaltiroq dengizda turgan kemaga qarab yurdi. Havo juda yaxshi, shu shtatlarga xos bo'lgan erta kuz kunlari edi. Bunday kunlar ko'pi bilan bir hafta davom etar, erta, yo indin tamom bo'lishi ham mumkin edi.

Tushdan keyin u bir izga duch keldi, bu boshqa bir odamning izi bo'lib, u odam yurib emas, emaklab ketgani bilinib turardi. Ehtimol, bu Billning izidir, deb o'yladi u hech qanday hayajonsiz. Unga baribir edi. To'g'risi, u biror narsani sezish va hayajonlanish tuyg'usini yo'qotib qo'ygan edi. U hatto og'riqni ham sezmasdi. Qorni bilan asablari go'yo mudrab ketgandek. Lekin hali so'nmagan hayot uchquni uni olg'a haydardi. U juda charchagan, lekin undagi hayot o'lishni istamasdi. Shuning uchun ham u chalchiqzordan meva terib yer, tanga baliq ovlar, suv qaynatib ichar va olazarak bo'lib kasal bo'rini kuzatar edi.

U o'rmalab o'tgan boshqa odamning izidan borardi.

Ko'p o'tmay u o'zidan oldingi odamning manziliga yetib keldi. Ho'l chimlik ustida kemirib tashlangan suyaklar va bo'rilarning iziga ko'zi tushdi. Yerda xuddi o'zinikiga o'xshash, o'tkir tishlar tortqilab yirtgan bug'u terisidan tikilgan xalta yotardi. Bunday og'ir yukni ko'tarishga madori kelmasa ham kuchsiz barmoqlari bilan qopni yerdan ko'tarib oldi. Bill oltinlarini so'nggi daqiqalarga qadar tashlamagan ekan. Xa-xa-xa! U hali Billning ustidan masxara qilib kuladi. Tirik qoladi va xaltani yarqirab turgan dengizdag'i kemaga olib ketadi. U xuddi qarg'aning qag'illashiga o'xshagan bo'g'iq va beo'xshov ovoz bilan kulardi. Kasal bo'ri ham unga taqlid qilib xirillagan tovush bilan uvulladi. Odam darhol jim bo'ldi. Agar mana shu suyaklar Billniki bo'lsa, shu toza kemirilgan, qizg'ish suyaklar Billniki bo'lsa, qanday qilib uning ustidan kulyapti-ya!

U yuzini o'girib oldi. Nima qilsin, Bill uni tashlab ketdi, lekin u Billning oltinlarini ochmaydi, uning suyaklarini kemirmaydi. Agar mening o'rnimda Bill bo'lganda shunday qilgan bo'lardi, deb o'ylab qo'ydi va kalovlanib yo'lga tushdi.

U kichkina bir ko'lga duch keldi. Baliq yo'qmiikan, deb chuqurchaga engashib qaradi-yu, xuddi ilon chaqqandek seskanib o'zini orqaga tashladi. Suvda u o'z aksini ko'rib qoldi. Uning basharasи shu qadar qo'rqinchli ediki, hatto o'tmaslashib qolgan ongini ham uyg'otib yubordi. Ko'lchada uchta baliq suzib yurardi, lekin ko'lcha kattagina bo'lib, suvini quritishga uning qurbi yetmasdi. U baliqlarni chelakcha bilan tutishga urinib ko'rdi,

keyin bu fikrdan qaytdi. Olgudek charchagani-dan suvgaga yiqilib, cho'kib ketaman, deb qo'rqi-di. Xuddi shu sababga ko'ra u qumloq sohilda yo-g'och xodalar ko'p bo'lsa ham, sol yasab, daryo-dan suzib ketishga jur'at qilomadi.

O'sha kuni u kemagacha bo'lgan masofani uch milga qisqartirdi, ertasiga esa ikki mil yo'l bosdi. Endi u xuddi Billga o'xshab o'rmalab borardi. Beshinchchi kuni kechqurun kemaga yetish uchun yana yetti mil yo'l qolgan edi; endi bir kunda bir mil yo'l bosishga ham madori qolmadi. Erta kuzning iliq kunlari hali tugamagandi, u esa goh o'rmalar, goh hushidan ketib yiqilardi, kasal bo'ri esa yo'talib, aksa urib, uning orqasidan qol-may sudralib borardi. Odamning tizzalari qip-qizil go'sht bo'lib ketgan, tovonlari bundan ham bat-tar edi. Ko'ylagidan yirtib olib, tizza va tovonlarini o'rabi bog'lagan bo'lsa ham, orqasidan chimlik va toshlar ustiga qonli iz qoldirib borardi. U bir mar-ta orqasiga qayrilib qarab, bo'ri ochko'zlik bilan qonli izlarni yalayotganini ko'rib qoldi. Agar bo'ri-ni bir yog'lik qilmasa, o'zining umri nima bilan tugashini yaxshi tasavvur etdi. Shundan keyin hayotda uchrashi mumkin bo'lgan kurashlarning eng shiddatlisi boshlandi: emaklab borayotgan kasal odam, uning orqasidan sudralayotgan ka-sal bo'ri; ikkisi ham chala o'lik holda, bir-birini poylashib, sahrodan sudralib bordilar.

Bo'ri sog' bo'lganda, odam bunchalik qarshili-k ko'rsatib o'tirmagan bolardi, lekin mana shu eng badburush, deyarli o'laksa bo'lib qolgan razil maxluqning qorniga tushishini o'ylasa, ko'ngli aynir edi. U yana alahlay boshladi, yana ko'ziga xomxayollar ko'rina boshladi, ongi ravshanlash-

gan vaqtlar borgan sari qisqarib va tobora siyraklashib borardi.

Bir marta xuddi qulog'i ostida kimdir tez-tez nafas olayotganini eshitib hushiga keldi. Tepasi-da turgan bo'ri o'zini orqaga tashladi va qoqilib ketdi-da, zaiflikdan yiqilib tushdi. Bu kulgili bir manzara edi, lekin odam kulmadi. U hatto qo'rqmadi ham. U endi qo'rqish nimaligini ham sezmay qolgandi. Uning ongi bir daqiqaga ravshanlashdi, u o'ylab ketdi. Kemaga qadar endi ko'pi bilan to'rt mil yo'l qolgandi. U tuman bosgan ko'zlarini ishqalab, kemani juda ravshan ko'rdi. Yarqirab turgan dengizni kesib o'tayotgan oq yelkanli qayiqchani ham ko'rdi. Lekin bu to'rt millik masofani bosishga asti madori qolmagandi. Odam buni bilardi, shuning uchun ham bezovtalanma-di. Yarim millik yo'lni ham bosa olmasligiga aqli yetardi. Shunday bo'lsa ham yashashni istardi. Shuncha azob-uqubatlar chekkandan keyin o'lib ketish be'manilik bo'lardi. Taqdir undan juda ko'p narsa talab qilardi. O'layotib ham u o'limga bo'ysunishni istamas edi. Ehtimol, bu aqlsizlik edi, lekin o'limning changaliga tushib qolgan bo'lsa ham, uning changalidan qutulib ketish uchun kurashni davom ettirdi.

U ko'zlarini yumib, ming ehtiyot bilan kuchini to'pladi. Xuddi to'lqin singari uning butun vujudini qoplab olayotgan hushidan ketish xavfini yengish tilagida u o'ziga dalda berardi. Bu to'lqin o'qtin-o'qtin ko'tarilib, uning ongini xiralaشتirardi. Ba'zan u chorasiz tipirchilab, hushsizlik dengiziga botib ketar, ongning qandaydir noma'lum kuchi ta'sirida yana qaytadan irodasini zo'rg'a to'plab, hushsizlik dengizidan suzib chiqdi.

U qimirlamasdan chalqancha yotgan holda kasal bo'rining xirillagan tovushi tobora yaqinroq eshitilayotganiga qulq soldi. Onlar juda sekin o'tar, lekin odam biror marta ham qimirlamasdi. Bo'rining nafasi juda yaqindan eshitilla boshladi-yu, qurib qolgan til xuddi shildiroq qog'oz singari uning yuzini timdaladi. Uning qo'l-lari yuqoriga cho'zildi, barmoqlari xuddi changak singari bukildi, lekin mehnati zoye ketdi. Tez va ishonch bilan harakat qilish uchun kuch kerak, unda esa kuch yo'q.

Bo'ri sabrli edi, lekin odam undan ham sabrli edi. U hushdan ketib qolmaslik uchun urinib va bo'rini poylab, yarim kun qimirlamasdan yotdi. Bo'ri uni yemoqchi edi, qo'lidan kelsa, odam ham bo'rini yemoqchi edi. Vaqtı-vaqtı bilan u hushdan ketib qolar, shunda u uzoq-uzoq tushlar ko'rар edi; lekin hamma vaqt: tushida ham, o'ngida ham mana hozir bo'rining xirillagan tovushi eshitiladi, g'adir-budur tili bilan meni yalaydi, deb kutib yotardi.

Nafas tovushini eshitmadи, lekin bo'ri uning qo'lini yalayotganligini sezib o'ziga keldi. Odam kutib yotdi. Bo'ri uning qo'lini tishlari orasiga olib so'nggi kuchlarini sarf qilib qisdi, keyin tishlari-ni borgan sari qattiqroq botira berdi, u shuncha vaqtdan beri kutgan ovqatiga erishgan edi. Le-kin odam ham shu paytni ko'pdan beri kutardi, uning tishlangan qo'llari bo'rining jag'ini qisdi. Bo'ri zaiflik bilan o'zini himoya qilarkan, odam bir qo'li bilan uning jag'ini qisardi, ikkinchi qo'lini ham uzatib bo'rining tomog'idan bo'g'a boshladi. Besh daqiqadan keyin odam o'zining butun og'irligi bilan bo'rini bosib tushdi. Bo'rini bo'g'ib o'ldi-

rish uchun uning kuchi yetmasdi, shunda odam tishi bilan bo‘rining tomog‘iga yopishdi, uning og‘zi yungga to‘ldi. Yarim soat o‘tdi, odam o‘z to-mog‘iga issiq qon quyilayotganini sezdi. Xuddi uning og‘ziga eritilgan qo‘rg‘oshin quyilayotgan-dek uni yutish qiyin edi. Lekin faqat iroda kuchi bilan o‘zini chidashga majbur qildi. Keyin odam chalqanchasiga ag‘darildi-da, uyquga ketdi.

Kit ovlovchi „Bedford“ kemasida ilmiy ekspe-ditsiya a’zolari bor edi. Ular kema palubasida tu-rib, qirg‘oqda g‘alati bir maxluqni ko‘rib qolishdi. Bu maxluq qum ustida zo‘rg‘a o‘rmalab, dengiz tomonga kelardi. Olimlar buning nima ekanini bilolmadilar, tabiatshunos bo‘lganliklari uchun qayiqchaga o‘tirib qirg‘oqqa suzib ketdilar. Ular tirik bir maxluqni ko‘rdilar, lekin uni odam deb atash mumkinmidi? U hech narsani eshitmas, hech narsani tushunmas, qum ustida ulkan qurt singari buralar edi. U oldinga deyarli siljimas, le-kin orqaga ham chekinmasdi va buralib-buralib oldinga qarab harakat qilar va soatiga yigirma qa-damdan yo‘l bosardi.

Uch hafta o‘tgandan keyin u „Bedford“ kema-sida karavotda yotgan holda ko‘z yoshlari ni oqizib, o‘zining kimligi va qanday mashaqqatlarni boshidan kechirgani haqida hikoya qilib berdi. U bir-biriga qovushmagan hikoyasida o‘zining ona-si, serquyosh janubiy Kaliforniya, apelsin daraxtlari va gullar orasiga ko‘milgan uyi haqida gapirib berdi.

Bir necha kun o‘tgandan keyin u olimlar va kapitan bilan birga kayut-kompaniyada o‘tirardi. U ovqatning serobligidan quvonar, boshqalarning og‘ziga tushib yo‘q bo‘lib ketayotgan har bir luq-ma uni zo‘r tashvishga solardi. Uning aqli joyida,

lekin stol atrofida o'tirgan odamlarga nafrat bilan qarardi. Ovqatning tamom bo'lib qolishidan qo'rqib bezovta bolardi. U hadeb oshpazdan, xizmatchi boladan, kapitandan ovqat zaxirasini surishtirardi. Ular yuz martalab tasallli bersalar ham ishonmas, o'z ko'zi bilan ko'rib ishonish uchun ovqat omboriga tez-tez tushib turardi.

Kemadagilar uning semirayotganligini sezib qoldilar. Kun sayin uning etiga et qo'shilardi. Olimlar bosh chayqab turli taxminlar qilishardi. Unga ovqatni kamroq bera boshladilar. Lekin shunda ham borgan sari semirib ketaverdi, qorin sola boshladi.

Matroslar bunga kulishardi, ular gapning nimada ekanini bilishardi. Olimlar uning orqasidan poylab, sirni bilib oldilar. Ertalab nonushtadan keyin u bakka chiqar va xuddi tilanchi singari matroslarga qo'l cho'zardi. Matros kulib, unga suxari berardi. U ochko'zlik bilan suxarini olar va xuddi oltinga ko'zi tushgan xassisdek, nonni qo'ltig'iga urardi. Boshqa matroslardan ham xudi shunday yo'l bilan sadaqa olardi.

Olimlar indamadilar va uni o'z holiga qo'yib qo'ydilar. Ular o'ziga bildirmay uning karavotini tekshirdilar. Karavotning osti suxari bilan to'la edi. To'shakning ichiga ham suxari to'ldirilgan ekan. Har bir burchakka suxari yashirilgan. Lekin uning miyasi joyida edi. U faqat ikkinchi marta och qolmaslik chorasin ko'rardi, xolos. Olimlar bu kasallik tez o'tib ketadi, degan fikrda edilar. Haqiqatan ham „Bedford“ kemasasi San-Fransisko limoniga langar tashlamasdanoq bu kasallik o'tib ketdi.

F. ABDULLAYEV tarjimasi

OYNI OLIB BERING!

Kattalar uchun ertak

Qadim o'tgan zamonda, olis dengiz tomonda bir Qirol yashagan ekan. Qirolning Leonora ismli qizi o'n yoshga to'lib, o'n birga qadam qo'yibdi.

Malika kunlarning birida xo'jag'at qiyomidan ko'p yeb qo'yib, kasal bo'lib qolibdi. Oqibat ko'rpgaga burkanib yotib olibdi va uni davolash uchun Qirollik Tabibini boshlab kelishibdi. Tabib avval Malikaning haroratini o'lchabdi, keyin tomir urishini eshitib ko'ribdi, nihoyat tilini ko'rsatishini so'rabdi. Qirollik Tabibi xavotirga tushib qolibdi. Darhol Leonoraning otasi, Qirolga odam yuboribdi.

– Nimani xohlasang, hammasini muhayyo qilaman, – debdi Qirol Malikaga. – Ayta qol, qizalog'im, ko'ngling nima tusaydi?

– Oyni olib bering, – javob beribdi Malika. – Oyni olib bersangiz, darrov tuzalamon.

Qirolning ko'plab donishmandlari bo'lib, ko'ngli nimani tusamasin, ular darhol barchasini muhayyo qilar ekan. Binobarin, qiziga ko'ngling xotirjam bo'lsin, senga oyni olib beraman, deb va'da qilibdi.

Qirol taxtda savlat to'kib o'tirgancha qo'ng'iroq ipini uzun-uzun uch marta, qisqa qilib bir marta tortibdi – ko'p o'tmay huzuriga Lord Obergoft meyyster kirib kelibdi.

Lord Obergoft meyyster tarvuzday baqaloq ekan. Ko'zoynagi ham qalindan qalin bo'lgani uchun ko'zlar ikki baravar katta ko'rinar kan. Natijada, Lord Obergoft meyyster odatdagidan ikki karra aql- liroq tuyularkan.

– Menga oyni olib berishingni istayman, – debdi Qirol. – Malika Leonora betob bo'lib qoldi va oyni olib berishimni so'rayapti. Oyni olib bersam, sog'ayib ketadi.

– Oyni? – hayratdan qichqirib yuboribdi Lord Obergoft meyyster ko'zlarini yana ham katta-katta ochib. Natijada, to'rt karra aqliroq qiyofa kasb etibdi.

– Ha, oyni, – debdi Qirol. – Oyni! Uni bugun kechgacha, uzog'i bilan ertagacha olib kel.

Lord Obergoft meyyster peshanasini dastro'moli bilan artib, burnini qattiq qoqibdi.

– Umrim bo'yi, Hazrati oliylari, men siz uchun son-sanoqsiz narsalarni topib berdim, – debdi u. – Darvoqe, sizga turli davrlarda topib bergen narsalarimning ro'yxati kutilmaganda yonimda ekan-a. – U shunday deb uzundan uzun qog'oz o'ramini chiqaribdi. – Men siz uchun fil suyagi, maymunlar va tovuslar, dur-u yoqtular, zumradlar va javohirlar, pushtirang fillar va moviyrang jingalak yungli itlar, tilla qo'ng'izlar, kahrabodan yasalgan pashshalar-u hasharotlar, hurlarning qanotlari, to'tilarning tillari, bir shoxli otlarning shoxlarini; pahlavonlar, liliputlar va suv parilarini; maddohlar, menestrellar va raqqoslarni topib

berganman; qolaversa, yarim kilogrammcha yog‘, yigirma to‘rtta tuxum va bir qop shakar... afv etasiz, keyingilarini xotinim qo‘sib qo‘yibdi.

– Moviyrang jinglagak yungli itlarni negadir eslay olmayapman, – e’tiroz bildiribdi Qirol.

– Ro‘yxatda aynan „moviyrang jingalak yungli itlar“, deb yozilgan. Oldim, deb imzo ham qo‘ygansiz, – debdi Lord Obergofmeyster.

– Mayli, olgan bo‘lsam, olgandirman, – debdi Qirol.

– Hozir esa menga oy kerak.

– Sizning istaklaringizni bajo keltirish uchun, Hazrati oliylari, hatto Samarqand-u Buxoroga, Arabiston-u Habashistonga ham odam yuborganman, – debdi Lord Obergofmeyster. – Biroq oy haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Zotan, oy 75 ming chaqirim olisda joylashgan, u Malika yotgan xonadan ham katta. Qolaversa, oy – eritilgan misdan yasalgan.

Qirol g‘azab bilan Lord Obergofmeysterga, ko‘zimdan yo‘qol, deb qichqiribdi. Huzuriga Qirollik Sehrgarini yuborishni buyuribdi. Qirollik Sehrgari otga o‘xshaydigan cho‘zinchoq yuzli ozg‘in kishi ekan. Boshida yulduzlar shakli bilan to‘la terakday qirrador kuloh bo‘lib, egniga tillarang boyqushlar rasmi tushirilgan uzundan uzun ko‘m-ko‘k yomg‘irpo‘sh kiyib olgan ekan. Qirolidan qizi uchun oyni olib berish kerakligini eshitgani hamono bechora Sehrgar vahimaga tushib rangi dokaday oqarib ketibdi.

– Men o‘z vaqtida, Hazrati oliylari, siz uchun juda ko‘p mo‘jizalar sodir etganman, – debdi Qirollik Sehrgari. – Men siz uchun sodir etgan barcha mo‘jizalarning ro‘yxati, sira kutilmaganda yo-

nimda ekanini qarang-a. – Qirollik Sehrgari ham yonidan uzundan uzun qog'oz o'ramini chiqaribdi. – Mana, eshititing. Men sholg'omni siqib qon olganman, qondan esa sholg'om paydo qilganman. Shoyi qalpoqlar ichidan quyonlarni chiqarganman, quyonlarni esa shoyi qalpoqlarga aylantirganman. Men hech narsadan gullar, childirmalar va kabutarlar yaratganman hamda gullar, chidirmalar va kabutarlarni hech narsaga aylantirganman. Yalmog'izlar, ins-u jinslar va qorong'i kechalarda sakraydigan balo-qazolardan saqlanishingiz uchun men hushtak, ituzum va burgutning ko'z yoshidan maxsus sharbat tayyorlab bergenman. Sizga so'laqmonday g'aroyib etik va sehrli qalpoqcha bergenman. Mening sharofatim bilan qo'lingiz tekkan narsa oltinga aylanadigan bo'ldi.

– Sehrli qalpoqchang naf bermayapti, – debdi Qirol. – Uning nimasi sehrli?

– Yo'q, u rostakam sehrli qalpoqcha, – e'tiroz bildiribdi Qirollik Sehrgari.

– Yo'q, sehrli emas, – gapni cho'rt kesibdi Qirol. – Uni kiyib yurganimda turli narsalarga haliyam qoqilib ketyapman.

– Bu qalpoqning xosiyati – sizni ko'zga ko'rinnmaydigan qilishdan iborat, – tushuntiribdi Qirollik Sehrgari. – U yo'lingizdagi turli to'siqlarni bartaraf qilolmaydi...

– Sehrli qalpoq bo'lganidan keyin bartaraf qilishi kerak, – o'z gapida turib olibdi Qirol.

Qirollik Sehrgari yana ro'yxatga tikilibdi:

– Men sizga Afsonalar o'lkasidan sibizg'alar, Rivoyatlar diyoridan qumlar va kamalakdan oltin olib bergenman. Shuningdek, bir g'altak ip, bir

shoda igna hamda bir bo'lak mum... bir qoshiq qonimdan keching, bularni xotinim ro'yxatga tirkab qo'yibdi...

– Hozir esa oyni olib berishingni istayman, – debdi Qirol. – Malika Leonora oyni olib berishimni xohlayapti. Oyni olib bersam, u yana tuzaladi.

– Oyni hech kim olib berolmaydi, – debdi Qirollik Sehrgari. – U bizdan 150 ming chaqirim narida, ko'kimir pishloqdan qilingan, ustiga ustak mana shu qasrdan ikki hissa katta.

Qirolning g'azabi yana qaynab-toshibdi, Qirollik Sehrgarini qafasday g'origa haydab solibdi. So'ng bong urib, Qirollik Hisobdonini talab qilibdi.

Qirollik Hisobdoni kaltabin bo'lib, hamisha kallapo'sh kiyib yurarkan. Har doim ikki qulog'i-ga ikkita qalam ham qistirib olarkan. Qora kamzuliga esa oppoq qilib raqamlar yozib tashlangan ekan.

– 1907-yildan buyon men uchun nimalarni hisoblab berganiningni uzundan uzun ro'yxatini eshitmoqchi emasman, – deya gap boshlabdi Qirol. – Menga darhol Malika Leonora uchun oyni qanday olib berishni hisoblab bergen. Oyni olib bersak, u tuzaladi.

– 1907-yildan buyon siz uchun hisob-kitob qilib berganlarimning hammasini eslatganingiz uchun juda minnatdorman, Hazrati oliylari, – deb ta'zim qilibdi Qirollik Hisobdoni. – Ularning ro'yxati sira kutilmaganda o'zim bilan birga ekan.

U ham yonidan uzundan uzun qog'oz o'ramini chiqarib, ro'yxatga tikilibdi.

– Eshiting, Hazrati oliylari! Men ikkilanishlar shoxlari orasidagi masofani, kun va tunni, A va Zni siz uchun hisoblab berganman. YUQORI qan-

chalar balandlikda ekani-yu NARIDAN NARIga qancha vaqtida yetish mumkinligini hamda KET-DI qayoqqa g'oyib bo'lganini hisoblab chiqqanman. Men dengiz ilonining uzunligi va bebahoning narxini kashf qilganman. BIZ hosil bo'lishi uchun qancha MEN kerakligini ham bilaman. Agar siz uchun qiziqarli bo'lsa, dengiz tuzi bilan 781 796 132 ta qush ovlasa bo'ladi.

– Hammasini sanaganda ham shuncha qush chiqmasa kerak, – debdi Qirol.

– Men shuncha qush bor deganim yo'q, – javob beribdi Qirollik Hisobdoni. – „Agar dengiz tuzi bo'lsa...“, deganimni unutmang.

– Son-sanoqsiz qushlar to'g'risidagi safsatangi yig'ishtir! – dag'dag'a qilibdi Qirol. – Malika Leonora uchun menga oy kerak.

– Oy bizdan 300 ming chaqirim narida, – debdi Qirollik Hisobdoni. – U tangaday yumaloq va yapaloq, toshpaxtadan qilingan, o'lchami esa qirrolligimizning yarim maydoniga teng.

Qirolning yana qahri qaynab-toshibdi va Qirollik Hisobdonini quvib chiqaribdi. Keyin Saroy Masxarabozini chaqirtiribdi. Masxaraboz qiziq-chilarning qirqyamoq kamzuli va qo'ng'iroqchalar qadalgan qalpog'ida echkiday sakragancha kirib kelibdi-da, taxtning poyiga o'tirib olibdi.

– Xizmatingizga tayyorman, Hazrati oliylari! – ta'zim qilibdi Saroy Masxaraboz.

– Hech kim xizmatimni uddalay olmayapti, – debdi Qirol alam bilan boshini qay toshga urishni bilmay. – Malika Leonora oyni olib berishimi ni xohlayapti, toki oyni olib bermas ekanman, utuzalmaydi, lekin mening qizim uchun oyni olib beradigan mard topilmayapti. Qolaversa, men

odamlardan oyni so'raganim sayin tobora yiriklashib, tobora bizdan uzoqlashib borayotir. Se ning qo'lingdan ham hech narsa kelmaydi, mayli, sozingni chalib, qo'shiq aytib bera qolarsan.

– Oyning kattaligi qancha ekan? – so'rabdi Saroy Masxarabozi. – Oygacha masofa-chi?

– Lord Obergofmeysterning aytishicha, oyga cha masofa 75 ming chaqirim bo'lib, hajmi Malika Leonoraning xonasidan ham katta emish, – javob beribdi Qirol. – Qirollik Sehrgarining fikriga ko'ra esa, bizdan 150 ming chaqirim olisda bo'lib, mana shu saroydan ikki baravar katta ekan. Qirollik Hisobdoni esa oy 300 ming chaqirim nari-da, u sizning saltanatingizning yarmicha keladi, deb meni ishontirmoqchi bo'layotir.

Qirollik Masxarabozi sozini ting'illatibdi.

– Ularning bari – donishmand, – debdi u, – shu bois gaplari to'g'ri bolsa, ajab emas. Oy – har bir odam o'zicha tasavvur qilganday katta va olis bolsa kerak. Binobarin, Malika Leonora uni qanchalar katta va qanchalar olisda deb o'ylashini bilish kerak.

– Bu xayolimga ham kelmabdi, – tan olibdi Qirol.

– Hozir, uning o'zidan so'rayman, – debdi Saroy Masxarabozi.

Malika Leonora uyg'oq ekan, Saroy Masxarabozini ko'rib quvonib ketibdi, lekin juda g'amgin bo'lib, ovozi ham juda zaif ekan.

– Menga oyni olib keldingmi? – deb so'rabdi u.

– Hozircha yo'q, – javob beribdi Saroy Masxarabozi, – lekin tezda olib kelaman. Ayt-chi, oy juda kattami?

– Yo‘q, – debdi Malika Leonora. – Boshmal-dog‘imning tirnog‘idan sal kichik, chunki bosh-maldog‘imni ko‘tarib qaraganimda, oy tamomila ko‘rinmay qoladi.

– Oy juda uzoqdam? – yana so‘rabdi Saroy Masxaraboz.

– U deraza ortidagi katta daraxtdan baland-da emas, – debdi Malika, – chunki ba’zida yuqori shoxlarga o‘ralib qoladi.

– Senga oyni olib bergenim bo‘lsin, – va’da beribdi Saroy Masxaraboz. – Bugun kechqurun anavi daraxtning yuqori shoxlariga o‘ralib qolgan-da, daraxtga chiqaman-da, oyni senga olib kelib beraman.

Daf’atan bir gap esiga tushib so‘rabdi:

– Ha-ya, Malikam, oy nimadan qilingan?

– Shuni ham bilmaysanmi, nodon, albatta, ol-tindan qilingan-da!

Saroy Masxaraboz Leonoraning xonasidan chiqib, Qirollik Zargarining huzuriga yo‘l olibdi. Qirollik Zargaridan Malika Leonoraning boshmal-dog‘ini tirnog‘idan sal kichik, tangaday yumaloq tilla oy yasab berishni so‘rabdi. Keyin esa uning talabi bilan Qirollik Zargari Malika bo‘yniga osib olishi uchun tilla oyga zanjir o‘tkazib beribdi.

– Men nima yasadim-a? – ajablanibdi Qirollik Zargari.

– Sen oy yasading, – javob beribdi Saroy Masxaraboz.

– Oy bizlardan 500 ming chaqirim olisda-ku, – hayratlanibdi Qirollik Zargari. – Ustiga ustak shisha shar singari yumaloq bo‘lib, bronzadan qilingan.

– Sen oyni shunday tasavvur qilasan, – debdi Qirollik Masxarabizi.

Masxaraboz oyni Malikaga olib borib bergan ekan, uning boshi osmonga yetibdi. Ertasiga so-g‘ayib, bog‘chada bolalar bilan o‘ynay boshlabdi.

* * *

Ertasiga Qirol yana tashvishga tushib qolibdi. U kechqurun osmonda yana oy paydo bo‘lishini o‘ylab, Malika Leonora uni ko‘rsa nima bo‘ladi, deb o‘zini qo‘ygani joy topa olmas emish.

Darhol Lord Obergoftmeysterni chaqirtirib, shunday debdi:

– Kechqurun oy chiqqanda, Malika Leonora uni ko‘rmasligi uchun nimaiki zarur bo‘lsa, hammasini qiling.

Lord Obergoftmeyster ko‘rsatkich barmog‘ini chekkasiga tiragancha o‘ylab-o‘ylab shunday debdi:

– Topdim. Eng yaxshi chora shu. Malika Leonoraga qop-qora ko‘zoynak yasab berish kerak. Ko‘zoynak shu darajada qora bo‘ladiki, Malika uni taqib olgandan keyin hech narsani, jumladan oyni ham ko‘rmaydi.

Qirolning g‘azabi kelib, boshini sarak-sarak qilgancha unga o‘shqiribdi:

– Esing joyidami, galvars! Agar Malika shunday ko‘zoynak taqib yuradigan bo‘lsa, qoqilib ketadi-da, yiqiladi, oqibatda yana betob bo‘lib qoladi!

Qirol Lord Obergoftmeysterni haydab yuborib, Qirollik Sehrgarini chaqiribdi.

– Bugun kechqurun oy chiqqanida uni Malika Leonora ko‘rmasligi uchun oyni yashirish kerak, – debdi Qirol.

– Nima qilish kerakligini juda yaxshi bilaman, – debdi Qirollik Sehrgari. – Baland-baland ustunlar o'rnatib, qora duxoba pardalar tortamiz. Bu pardalar sirkning gumbazi singari qasrdagi barcha bog'lar ustini qoplaydi, natijada, kechqurun oy chiqqanda uni Malika Leonora ko'rmaydi.

Bu gapni eshitib, Qirol battar darg'azab bo'libdi, qo'lini qilichday sermab Qirollik Sehrgariga bor zahrini sochibdi:

– Qora pardalar havoni o'tkazmaydi, ovsar! Havo yetishmaganidan Malika Leonoraning nafasi qisilib, yana kasal bo'lib qoladi!

Xullas, u Qirollik Sehrgarini ham haydab yuboribdi va Qirollik Hisobdonini chaqiribdi.

– Biz oqshom payti oy chiqqanda, – debdi Qirol, – uni Malika Leonora ko'rmasligi uchun nimadir qilishimiz kerak. Agar sen chinakam donishmand bo'sang, menga darhol shuning hisob-kitobini qilib ber.

Qirollik Hisobdoni avval doira bo'ylab pildirab aylanibdi, so'ng chorburchak bo'ylab odimlabdi va nihoyat bir joyda to'xtabdi.

– Hisobini chiqardim, – debdi u. – Har kuni oqshomda mushakbozlik qilamiz. Kumush favvralar-u oltin sharsharalar barpo qilamiz. Mushaklar yarqirab, favvora-yu sharsharalar porlaganida xuddi kunduz kuni kabi hamma yoq charog'on bo'lib ketadi. Shunday qilib, Malika Leonora oyni payqamaydi.

Qirol shu darajada darg'azab bo'libdiki, goh depsinib, goh taxtni mushtlab qichqira ketibdi:

– Mushakbozlik paytida Malika Leonora uxlay olmaydi! Tun bo'yи mijja qoqmagandan keyin yana betob bo'lib qoladi!

U shunday deb Qirollik Hisobdonini quvib chiqaribdi va hafsalasi pir bo'lib, boshini changallagancha o'tirib qolibdi.

Boshini yana ko'tarib qaraganda esa tashqari-da shom qorong'isi tushib qolgan, olis ufqda yor-qin oy gardishi bir tilim qovunday ko'rinish tur-ganmish.

U vahima qilib sapchib o'rnidan turibdi-da, Qirollik Masxarabozini chorlabdi.

– Nima qilib berishimni istaysiz, Hazrati oliyalar? – ta'zim qilibdi Saroy Masxaraboz.

– Men uchun hech kim hech narsa qilib bera olmayapti, – debdi alam bilan Qirol. – Ana, yana oy chiqayotir. Hademay Malikaning darchasidan uning yog'dusi tushadi. O'shanda zanjirlangan oy o'zining bo'ynda emas, balki hamon osmonda ekanini bilib, Malika Leonora yana betob bo'lib qoladi.

Qirollik Masxaraboz qo'lidagi sozining torlari-ni ting'illatibdi.

– Sizning donishmandlaringiz bu borada nima deyapti? – so'rabdi u.

– Ular oyni yashirish chorasini topa olmayapti, – deb javob beribdi Qirol.

Qirollik Masxaraboz Qirol yaxshi ko'radigan qo'shiqlardan birini asta kuylabdi.

– Sizning donishmandlaringiz hamma narsani biladi, – debdi u. – Ular oyni yashirishning uddasidan chiqa olmagan ekan, demak, bu ishni qilib bo'lmaydi.

Qirol yana boshini changallagancha oh-voh qila boshlabdi. Kutilmaganda taxtdan sakrab turibdi-da, derazadan oyga ishora qilib debdi:

– Ana, qara! Oy Malika Leonoraning xonasiga ham mo'ralayapti!

Saroy Masxarabozи sozini bir chetga qo'yib, shunday debdi:

– Sizning donishmandlaringiz oy juda ham katta va bizlardan juda ham uzoq deb taklifingizni rad etganda, oyni qanday qilib qo'lga kiritish yo'lini kim aytgandi? Malika Leonora. Bundan kelib chiqadiki, sizning barcha donishmandlaringizdan Malika Leonora aqlliroy ekan, demak, oy bilan bog'liq masalalarni ularning barchasidan ko'ra Malika yaxshi biladi. Shuning uchun buni ham uning o'zidan so'raganim bo'lsin.

Malika oppoq to'shakda, biroq hali uxlama-gan, osmondagи oydan ko'zlarini uzmay yotardi.

Qirollik Masxarabozи yasatib bergan oy hamon unda edi. Qirollik Masxarabozи juda g'amgin hol-da, hatto ko'zlarida yosh tomchilari o'ynab asta-gina shunday debdi:

– Men bir narsani tushuna olmayapman, Ma-lika Leonora. Oyni zanjirlab bo'yningga taqib ol-gansan. Osmondagи oy qayoqdan paydo bo'ldi?

Malika unga qarab kulib yuboribdi.

– Shuni ham bilmaysanmi, masxaraboz, – debdi u. – Bitta tishim tushsa, o'rniغا yangi tish chiqmaydimi, axir?

– Albatta, chiqadi, – uning fikrini ma'qullab-di Saroy Masxarabozи. – O'rmonda yakkashox-ning shoxi tushib qolsa, uning manglayidan yana yangi shox o'sib chiqadi.

– Juda to'g'ri, – debdi Malika. – Qirollik Bog'bo-ni bog'dagi atirgullarni kesib chiqqandan keyin ular yana g'unchalab ochiladi.

– Bu sira xayolimga kelmabdi, – debdi Saroy Masxarabozи, – tun o'tgandan keyin yana kun boshlanadi-ku.

– Oy ham shunday, – debdi Malika Leonora. – Mening nazarimda, butun dunyodagi hamma narsalar shunday xususiyatga ega.

Malika Leonora bu gaplarni deyarli shivirlab aytibdi. Saroy Masxaraboz qarasa, Malika uxlab qolibdi. U uyqudagи Malikaning ko'rpasini ohista to'g'rilab qo'yibdi.

Lekin xonadan chiqib ketishdan oldin deraza oldiga kelib, oyga qaragan ekan, oy unga ko'zini qisganday tuyulibdi, u ham oyga qarab ko'zini qisib qo'yibdi.

Dildora ARZIKULOVA tarjimasi

ODDIY TEKSHIRUV

Tashqarida qor derazani ko'mib yuborguday yog'gandi. Quyoshning zaif nurlari deraza tirqishlari oralab, kulba ichiga quylarkan, ular ayniqsa, kulbaning yog'och devoriga osib qo'yilgan xarita yuzini yoritib turardi. Oftob tobora yuqorilagan sayin uning shu'lalari ham qor uyumi tepasida shuncha ko'p tovlanardi. Kulbaning bir tomoniga chuqur xandaq ham kovlab qo'yilgandi, quyosh charaqlab turgan kunlari nurlar devor ustida turli shakl-u shamoyil yasab, ajib o'zin etishar, ular xuddi oxirgi sovuq qordan o'ch olmoqchiday bor taftini to'kishardi. Martning oxirgi kunlari edi. Kulba ichida devorga tirab qo'yilgan stol yonida bir mayor o'tirardi. Stolning narigi tomonidan esa unga hamroh adyutant joy olgan.

Mayorning ko'zi atrofida quyoshda qor ko'zini qamashtirmasligi uchun tutib yuradigan ko'zoy-nakdan qolgan ikkita oppoq aylana iz paydo bo'lgandi. Yuzining qolgan qismini oftob olgan, qoraytirgan, o'sha qoraygan tanasi issiq harorat taftida yanayam kuyib ketgandi. Shishinqiragan burni terisi ham negadir po'rsildoq-po'rsildoq bo'lib yorilib qolgandi. U qo'lidagi gazetalarga tez-tez ko'z yugurtirib chiqar, ayni damda chap qo'lini yonidagi moy solingan likopcha tomon uzatib, bar-

moqlarini moyga bular va uni butun yuzi bo'ylab yaxshilab surkardi, uning barmoqlari bu vazifani juda mayinlik bilan bajarmoqda edi. Boshliq qo'llarini likopcha chetiga g'oyatda ehtiyotkorlik bilan olib borar, moy yuqi singib qolmasligi uchun nihoyatda muloyim harakatlanardi, peshonasi bilan ikkala yonog'iga ham o'shanday ehtiyorkorlik bilan moy surtib olgach, eng oxirida shishgan burni atrofini ham barmoqlari bilan zo'r hafsa-la qilib ishqalay ketdi. Nihoyat bu ishini tuga-tib, mayor o'rnidan sekin turdi-da, moy solingen likopchani ko'tarib, dam oladigan xonasi tomon yo'naldi.

– Men biroz mizg'ib olmoqchiman, – deb qo'ydi u adyutantga qarata. Adyutant bu armiyada boshqa harbiylar singari hech qanday buyruqqa javobgar ofitser emas, balki o'z holicha mustaqil bir harbiy edi.

– Sen bermalol yeb-ichib o'tiraverjin.

– Mayli, senor Maggore, – deb javob bergen bo'ldi adyutant. Shunday dedi-da, u ham stuli orqasiga bor gavdasini tashlab, uzoq esnab qo'ydi. Ozgina vaqt o'tgach, paltosining cho'ntagidan qog'ozga o'rog'liq qandaydir kitob olib ochdi-yu, biroq uni darrov stol ustiga tashlab qo'ydi, so'ng-ra bamaylixotir tamakisini olib tutatdi. Adyutant tamakini yutoqib tortib, buruqsitib tutun chiqardi-da, boyagi kitobni o'qish uchun stol ustiga eringancha engashdi. Ammo baribir o'qishga shashti bo'lmay, uni tag'in yopdi-yu, qaytarib cho'ntagiga solib qo'ydi. Busiz ham adyutantning bir dunyo ishlari, o'ylaydigan o'ylari ko'p edi. O'sha ishlari bitmaguncha kitob o'qish adyutantning kallasiga sig'masdi. Tashqarida esa mart quyoshi sekin-as-

ta purviqor tog'lar ortiga bota boshlagan, kulba devorlari ustidagi o'ynoqi nurlar raqsi ham ohista so'nib bormoqdaydi. Shu paytda xonaga qandaydir bir askar yigit kirib qoldi, u hech narsa demay, burchakda uyulib turgan qarag'ay shoxlari ni oldi-da, ularni har xil uzunlikda chopib, pech ichiga birma-bir tashlay boshladи.

– Sekinroq, Penin, – deb ogohlantirgan bo'ldi uni adyutant o'tirgan yeridan. – Mayor dam ol-yapti.

Penin mayorning qo'l ostidagi askarlardan edi. U qorachadan kelgan, nimjonroq yigitcha edi, u imkon qadar ovoz chiqarmay o'tinlarni joylagach, pech eshigini yopib, yana kulba orqasiga o'tib ketdi. Adyutant endi gazeta o'qishga tutindi.

– Adyutant! – Birdan ichkari xonadan mayoring ovozi keldi.

– Nima gap, senor Maggore?

– Peninni mening oldimga kiritib yuborgin.

– Penin! – o'sha zahoti yigitchani chaqirdi adyutant.

Xonaga Penin kirdi.

– Seni boshliq ko'rmoqchi.

Yigitcha indamasdan katta xona orqali o'tib, mayorning eshigi oldiga keldi. Qiya ochiq turgan eshikni qo'rqa-pisa ikki marta taqillatgan bo'ldi.

– Senor Maggore...

– Kiraver, Penin, – adyutant mayorning boshliqlarga xos buyruqomuz ohangini eshitdi. – Eshikni orqangandan yopib kir.

Ichkarida mayor o'zining koyka devorga o'rnatilgan karavotini to'ldirib, yoyilib yotardi. Boshining tagiga allanarsalar solingen ryukzagini yu-maloq yostiq qilib qo'yib olgandi. Boshliqning

uzun, oftobda kuygan, yog'langan semiz yuzi yosh askarga boqdi. Penin mayorning adyol usti-ga uzala tashlangan jundor, baquvvat qo'llari tarafga nigohini olib qochdi.

– Yoshing o'n to'qqizdami, Penin? – deb so'radi mayor yigitchaning chehrasiga diqqat bilan razm solarkan.

– Xuddi shunday, senor Maggore.

– Hmm, shunaqa degin, – deb qo'ydi mayor jiddiy qiyofada. Keyin yana o'shanday ohangda ta'kidlagannamo qilib savol berdi: – Umringda hech sevib ko'rganmisan?

– Meni kechirasiz, bu gapingizga tushunmay qoldim, senor Maggore?

– Men sevganmisan, deb qizlarni nazarda tut-yapman?

– Ha, qizlar bilan gaplashib turaman.

– Yo'q, tushunmayapsan, men sendan buni so'ramadim. Men sendan biror-bir qizga ko'ngil qo'yanmisan, deb so'radim.

– Albatta, senor Maggore.

– Haa, demak, hozir kimnidir sevasan, shundaymi? Unga xat ham yozib turarkansan. Men hamma xatlaringni o'qib chiqdim.

– To'g'ri, men rostdanam bitta qizni yaxshi ko'raman, – deb tan oldi Penin, – ammo unga birortayam xat yozgan emasman.

– Yo'g'-ey, aniq yozmaganmisan?

– Ha, gapim rost, aniq yozmaganman.

– Adyutant! – mayor xuddi avvalgi ohangini buzmasdan ofitserni chaqirdi. – Mening gaplarimni eshitib turibsanmi sen?

Narigi xonadan hech qanday javob kelmadı.

– U bizni eshitmaydi, – deb qo'ydi mayor Penninga qarab. – Xo'sh, demak, o'sha qizni chindanam sevishingga ishonasanmi?

– Ishonaman, senor Maggore.

– Unday bo'lsa, – mayor askarning yuziga bir qur ko'z yogurtirib oldi, – sen hech qanday ahloqsizlik ham qilmagansan?

– Sizni ahloqsizlik, deb nimani nazarda tutganingizni bilolmadim, senor.

– Yaxshi, juda soz, – deya xulosa chiqargan bo'ldi mayor o'zicha, – u holda sendan hech qanaqa boshliq chiqmas ekan.

Penin boshini egib, ko'zlarini polga qadadi. Mayor uning qoracha yuzlariga, orig qo'llariga, ozg'in gavdasiga boshdan oyoq bir-bir qarab chiqdi. So'ngra yana avvalgiday jiddiy, kulmagan tarzda gapida davom etdi:

– Demak, sen chin dilingdan istamayotgan ekansan, – mayor sukut qildi. Penin hamon poldan ko'z uzmay turardi. – Eng buyuk orzuying haqiqiy emas ekan unda, – Peninning ko'zlarini halliyam polda edi. Mayor gapdan to'xtab, ryukzagi ustiga suyandi-da, jilmaydi. U yurak-yuragidan yengil tortgandi. Armiyadagi hayot jiddiy hayot ekan, u yoshlarni bulg'amay, matonatli, rostgo'y, toza qilib tarbiyalabdi. Mayor negadir xursand bo'lib ketdi.

– Yaxshi bola ekansan, – dedi u biroz yumshoqlik bilan. – Sen yaxshi bola ekansan, Penin. Lekin bu gapimga ko'pam taltayib ketmagin, senga otalarcha gapim, yigitcha, doimo kimdir-birov zimdan poylab kelib, orqangga pichoq urib ketishidan hazir bo'lib yurgin.

Penin hamon boshlig‘ining karavoti yonida bo-yagiday sukul saqlagan ko‘yi jimgina turardi.

– Mendant qo‘rqma, – dedi mayor unga meh-ribonlik bilan tikilib. U adyoli ustidagi qo‘llarini bukdi. – Men senga hech narsa qilmayman. Ista-sang, o‘zingning vzvodingga qaytib ketishing ham mumkin. Lekin eng yaxshisi, menda, mening askarim bo‘lib qolganing ma‘qulroq. Bu yerda seni hech kim o‘ldirib ketolmaydi.

– Mendant yana nimadir so‘ramoqchimisiz, se-nor Maggore?

– Yo‘q, – dedi mayor, – chiqib ketaver, xoh-lagan ishing bilan shug‘ullanaver. Ha-ya, chiqi-shingda eshikni ochiq qoldirgin.

Penin eshikni yopmasdan tashqariga chiqdi. Adyutant yigitchaning xonadan o‘ng‘aysizlanib yurib o‘tib, kulbadan chiqib ketishini kuzatib turdi. Penin pechga qalash uchun yana qarag‘ay shoxlaridan ko‘tarib kirganida, butunlay qip-qizarib ketgan, harakatlari ham oldingidan ancha o‘zgarib qolgandi. Adyutant yosh askarning bu holatini kuzatib turib, miyig‘ida kulib qo‘ydi. Penin tag‘in tashqariga chiqib, yanada ko‘proq o‘tin ko‘tarib kirdi. Ichkari xonada esa devordagi mix-ga osib qo‘yilgan qishki ko‘zoynaklari bilan latta-ga o‘rab qo‘yilgan kaskasiga termilgancha mayor o‘z karavotida o‘y surib yotar, biroq uning qulolqlari qo‘shti xonadagi Peninning qadam tovushlari-da edi. „Voy kichkina shayton-ey, – deb o‘ylardi boshliq kulimsirab, – ehtimol, u meni aldab qo‘ygandir“.

Qandilat YUSUPOVA tarjimasи

YANGI MUALLIMA

O'sha hafta Anna Teylording Yashil shahar markazidagi yozgi maktabga dars berish uchun kelgan haftasi edi. Xuddi o'sha kuni u rappa-raso yigirma to'rt yoshga kirdi. Anna Teylor bilan bir kunda esa kichkina Bob Spaulding ham o'zining o'n to'rt bahorini qarshi oldi.

Yosh muallimani hozirgacha hamma sog'inch bilan eslaydi. Negaki u hali yosh bo'lsa-da, bir-daniga barcha o'quvchilarining mehrini qozona olgan, ularning tilini topib, yaqindan muomala qila olgan eng birinchi ustoz edi. Anna Teylor sinf xonasiga ilk qadam qo'ygan kundanoq go'yo hamma yoq yashnab ketgandek bo'ldi, bolalar yangi o'qituvchilariga deb katta-katta, mazali apelsinlar, nimpushti, qiyg'och gullar, ularga hech kim tayinlamagan bo'lsa ham, yashil va sariq rang aralash dunyo xaritasini o'ramlab, darsga olib kelishgandi. Anna Teylor bu eski shahar ko'chalari bo'ylab o'tganida, ulkan eman daraxtining sershox novdalari uning boshi tomon asta egilar, hovuch-hovuch nur o'sha novdalar oralab muallimaning yuziga mayin to'kilib qolardi. Anna bolalar uchun misoli izg'irin qishdag'i mazali shaftoliday yoki bo'lmasam issiq saraton chog'i-dagi to'yimli boshoqli ekindek juda kerakli bo'lib

ko'rindi. Chindanam aynan shunday edi. Zotan, Anna Teylor yordam va daldaga muhtoj har bir o'quvchisi uchun hamma vaqt shay, jonsarak bo'lib turardi. Bolalar uni bir zumda yaxshi ko'rib qolishgandi. Ammo o'sha kunlar negadir juda tez o'tib borardi. Balkim, Anna bilan bolalarga shunday bo'lib tuyulardi dars paytlari. Ularning hech biri vaqtning bu qadar tez o'tishini aslo-aslo istamas edi.

Biroq kichkina to'polonchi Bob Spaulding uchun dunyoning ishlari hech narsamas, u oktyabrning salqin tonglaridan biridagina qo'liga darsxaltasini olib, erinchoqlik bilan endi maktab tomon yo'lga tushgandi. U uchun darslar endigina boshlangandek edi. Yo'l bo'yи bu sho'x bolakay saxovatli kuzning bor manzarasini, ariq to'la oqib ketayotgan zilol va muzdek suvni, daraxt tanałari bo'ylab o'rmalab, yuqoriga tirmashayotgan bir gala chumolilar karvonini, bayramlar arafasida bezatilayotgan ko'chalar va bog'larni astoydil, miriqib kuzatib bordi. Hatto u bir o'rindiqqa o'tirib olib, atrof-tevaragiga yana bir-bir ko'z tashlab chiqdi. Yolg'iz bir o'zi o'tirarkan, dimog'ida qandaydir bayram kuyini ming'irlagancha xirgoyi qilib, buvisining dashnomli so'zlarini esladi: „Bob, sandiroqlab yuravermasdan, to'g'ri maktabingga borgin!“

„Obbo buvijonim-ey!“ Bob shundan keyingina sekin o'rnidan turdi, o'rindiq chetida turgan darsxaltasini bo'yniga ildi-da, endi biroz jadallik bilan maktabga qarab yurib ketdi. Bob hech qachon biror bola bilan yaqin bo'limgan, har doim yolg'iz yurardi.

U xonaga kirib kelganida, o'quvchilar o'zlari-ning ikkinchi darslari uchun tayyorgarlik ko'rmoqda edilar. Bob asta sirg'alib eshikdan kirdi-yu, eng oxirgi qatordagi joyiga borib o'tirib oldi. Oradan hech qancha o'tmasdan yangi muallima Anna Teylor ham sinfxonaga kirib keldi. U hali bolalarning yodidan chiqib ketgandir, degan ehtiyyot shart bilan doskaga kattaroq harflar bilan qaytadan o'zining ismini yozib qo'ydi.

„Mening ismim Anna Teylor“, – dedi u yozib bo'lgach, bolalarga dona-dona qilib so'zlarkan, – „Men sizlarning yangi o'qituvchingiz bo'laman“.

O'quvchilar xursand bo'lib chapak chalib yuborishdi. Bob esa hayron bo'lgancha, dam doskaga, dam to'g'risida turgan notanish muallima-ga qarab, lom-mim demay jim o'tiraverdi. Ammo ichida uning shaytoni qo'zib, bu o'qituvchini bir balo qilib bo'lsa ham, tezroq ketkizish kerak, degan quvlik bilan qulay fursatni poylab qoldi ayni damda. O'sha kuni darsdan so'ng u bir chelak suv bilan tozalagich lattani olib, doskaga yozilgan keyingi mavzuga oid barcha ma'lumotlarni bitta qo'ymay, hammasini artib chiqdi. Doska top-toza bo'ldi. Bob xotirjam nafas olib, yengil tortgan hol-da uyiga jo'nadi.

– Bu nimasi? – Ertasi kuni ertalab sinf xonasiga kirib kelgan Anna Teylording ilk savoli shu bo'ldi. U hayron bo'lgancha tozalab artilgan doskaga alam bilan tikilib turar, hech narsadan xabari yo'q bolalar ham begunohlarcha yelkalari-ni qisib xomush turishar edi. Faqat birgina Bob Spaulding qilgan ishidan zavqlangancha kekkayib o'tirar, u hamma bolalarga, ko'rib qo'ylaring, mana bunday bo'ladi, degandek faxrlanib qarardi.

Shu payt birdan yosh muallimaning Bobga ko'zi tushdi-yu, bo'lgan voqeaning barini anglab oldi. Ammo qiz, bolaga hech qanaqa dakki bermadi, aksincha, u Bobni muloyimlik bilan doskaga cha-qirdi-da, uni tozalashni buyurdi.

– Axir top-toza-ku? Nimasini tozalayman bu-ni? – dedi hayron bo'lgan Bob ensasi qotib.

– Yo'q, sen uni yaxshilab tozala, qara, haliyam toza emas axir, – dedi Anna Teylor unga xotirjam va mehribonlik bilan boqarkan.

Nima qilishini bilolmay turgan Bobga qolgan bolalar ham hayrat ichida qarab qolishgandi.

– Nega turibsan? Men nima dedim senga? – dedi muallima Bobning yoniga kelib, – qani, dos-kani tozalab qo'y-chi, bolakay!

Shunday derkan, Anna Teylor Bobning yelka-siga qo'lini qo'ydi.

– Essizgina! Kecha bu darsni ataylab sen uchun yozib qo'ygandim. Axir sen mакtabga ke-chagina kelding-ku! Hali qancha-qancha darslar-dan qolib ketding. Biroq men buni senga kecha taylorlab qo'ya olmagandim. Shuning uchun bugun kelib ko'chirib olsin, deb doskaga sen uchun yozib ketgandim. Buni qara-ya, qaysidir ahmoq uni o'chirib tashlabdi-ya, essiz!

Shu payt Bob Spaulding ko'zlariga yosh to'lib qoldi. U yangi muallimasiga qarab nimadir demoqchi bo'ldi-yu, biroq gapira olmay, xonadan yugurgancha tashqariga otilib chiqib ketdi.

Ertasi kuni ertalab darsga kelgan o'quvchilar doskaga katta-katta harflar bilan yozilgan so'zlarni ko'rib, kechagidan ham battar ajablanib qolishdi. Qop-qora, tekis doskaga oppoq bo'rda aniq-tiniq qilib shu so'zlar yozib qo'yilgandi:

„Meni kechiring, miss Teylor! Siz mening eng yangi va eng yaxshi o'qituvchimsiz!“

Bolalar sinf xonasining eng oxirgi qatorida o'tirgan Bob Spauldingni ko'rib, yanayam hayratlanishdi. Negaki u oppoqqina o'quvchilik kiyimda, hech kimga qaramay, oldiga hamma kitoblarini ochib olgancha qolib ketgan darslarini o'qib o'tirardi. Uning bir tomonida esa Anna Teylor uchun keltirgan nimpushti va qiyg'och dala gullari yal-yal yashnab turardi.

Qandilat YUSUPOVA tarjimasi

ATIRGUL O'G'RISI

*Bolalik – umrning eng baxtiyor kezlaridir,
deganlari hali-hanuz yodimda...*

**„O'tmish gumrohligining zilol suvlari“
Bertran RASSEL**

Gyugo Gomerning otasi – shoir. Yaqinda Gyugo Gomer to'qqizga to'ladi. Katta bo'lsa u ham, albatta, shoir bo'ladi. Har tugul, o'g'liga qarab o'z bolaligini, to'g'rirog'i, uning mislsiz sururini ko'rgan ota shunday deydi. Gyugo Gomer – g'alati bola, o'qituvchilari, do'stlari, qarindoshlari – hamma shuni ta'kidlaydi. Otasi esa aksincha, uni sog'lom, mutlaqo sog'lom hisoblaydi. „Janob Alvares Xunko“, – dedi bir kuni ma'yus tantanavorlik bilan Bruno Andon – bo'ychan, qoqsuyak, yuzi nafarmon, ko'zları kirtaygan, qoshi qalin badqovoq kishi. U Alvares Xunkoning qo'shnisi, ilgari moliya vazirligida xizmat qilgan nafaqaxo'r, boy atirgul kolleksiyasi ko'rki bo'lgan xushmanzara hovli egasi.

– Janob Alvares Xunko, – dedi bir kuni Bruno Andon va yo'talib oldi. – Qanchalar og'ir bo'lmasin, sizni ogohlantirib qo'yish burchim: o'g'lingiz – o'g'ri...

Ayblanuvchining otasi o'zini xotirjam tutarkan:

– Muhtaram qo'shnijon, – dedi, – marhamat qilib da'vengiz sababini aytib bersangiz.

– Ha, albatta, bor gapni aytib beraman, janob Alvares Xunko! Gapning indallosi, anchadan buyon bog'imdag'i atirgullarni uzib ketishayotganini sezib qoldim. Kuzata boshladim. Nafaqadaligimni hisobga olsak, buning tagiga yetish uchun yetarlicha vaqtim bor. Avvaliga o'g'ri o'z ishini – agar birovning mulkiga ko'z olaytirishni „ish“ deydigan bo'lsak, xullas, avvalboshda men o'g'ri tunda keladi, deb o'ylovdim. Biroq necha tunni mijja qoqmay o'tkazib angladimki, yanglishibman. Hatto vaqtiniyam aniqladim: ertalabki sakkizlar atrofi. „Sabr tagi – sariq oltin“, deganlaridek, toqat bilan kutganim natija berdi, alqissa, yettidan qirq yetti daqiqa o'tganida Gyugo Gomerni, erkatoy o'g'ilchangizni bog'imdan oq atirgul uzayotgani ustida ko'rib qoldim. Unga „Nega atirgul uzyapsan?“ deb baqirdim ham. O'g'lingiz esa, ma'zur tutgaysiz, Alvares Xunko, dilingizni siyoh qilish niyatim yo'q edi, ammo o'g'ilchangizning bir tuki qilt etmadi, xijolat bo'ljadiyam. Bundan tashqari, menga iljayib bir nima dedi, nima deganini eshitmay qoldim – qulog'im og'irroq va boadabona qalpog'ini ko'tarib qo'yib, yo'liga ketdi. Gulniyam olib ketdi!

– Gyugo Gomer ekanini aniq ko'rdingizmi?

– O'z ko'zlarim bilan, janob; o'z ko'zlarim bilan ko'rdim! Tangriga ming qatla shukrlar bo'lsinki, yetmishni qarshilagan bo'lsam-da, haliyam ravshan ko'raman, – dedi Bruno Andon g'azabdan hayqirib. – Siz gapimga ishonmaysiz chog'i?

– Qo'ysangiz-chi, qo'shnijon, bu nima deganingiz! Nima bo'lgaydam, o'g'limni chaqirib, oldingizda so'roq qilaman. Rosti, bu voqeal meni xavotirga solib qo'ydi...

– Bo'lmamasam-chi, janob! Hali go'dakkina-ku, halitdan...

– O'sha so'zni tilingizga olmang! – deya uning gapini shart kesdi Alvares Xunko. – Bolani ayblashdan avval uni eshitishimga qo'yib bersangiz. Bu mojaro meni birmuncha xavotirga qo'ydi.

– O'rningizda bo'saydim, juda achchig'im chiqqan bo'lardi!

– Bundan xavotirdaman, – Gyugo Gomerning otasi boyagi vazminligini yo'qotmay so'zlardi, – negaki mening o'g'lim odobli, tarbiyali, farosatli va nozikta'b bola...

– O'zidan so'rang, janob Alvares Xunko! – dedi darg'azab Bruno Andon deyarli buyruq ohangida.

– Shunday qilaman ham, qo'shni.

Janob Alvares qo'shni xonaga qarab o'g'lini chaqirdi:

– Gyugo Gomer!

Gyugo Gomer kirib keldi, tabassumdan ko'zlarini porlardi.

– Labbay, otajon? Xayrli kech, taqsir, – deya Bruno Andon bilan so'rashdi. Janob Andon miq etmadi. Otasi qo'shnining ayblovini birma-bir so'zlab bergach, gapining so'ngida so'radi:

– Bunga nima deysan?

– Chindan shunday bo'ldi, ota.

– Demak, qo'shnikimizning bog'idan atirgul o'g'irlabsan-da?

– O'g'irlamadim, ota, janob Andonning bog'idan atirgul uzib oldim.

– Ikkisiyam bir qilmish emasmi? – g'azabdan qizarib ketgan Bruno Andon gapga aralashdi.

– Yo'q, janob. Atirgul bog'dan ko'chaga chiqib turgandi, demak, u sizga tegishli emas. Ko'chaga o'tganmi, demak, u ko'chadan o'tgan yo'lovchilariga qarashli. Men biror marta atirgul olaman deb panjaradan oshib o'tmadim. Uzgan atirgullarimning bari to'siqdan ko'chaga o'tib turgandi.

– Bahonasini qarang! – hayqirdi atirgullar ega-si qahrdan bo'g'ilib.

– O'g'lim o'zini oqlash uchun bunday gap chi-qarganiga ishonmayman, qo'shni, – dedi Gyugo Gomerning otasi.

– Nim-ma?! – o'zidan ketib qichqirdi Bruno Andon va ortiq so'z topolmay o'sha zahotiyoy qilib qoldi; uning yuziga qon tepdi, peshanasidagi tomirlari aniq-tiniq bo'rtib chiqdi.

– Atirgulni nima uchun uzding? – so'radi ota boladan.

– Ilgarigi tarbiyachimga, ikkinchi sinf mualimasi Mora xonimga bergani. U judayam chirroyli! Ovozi shunaqangi yoqimlik, og'zida obaki bormikin deysiz, ko'zlari esa yulduzdek porlaydi. Yana xira yulduz deb o'ylamang, xuddi tonggi cho'lponning o'zginasi. Buning ustiga, u menga judayam mehribon edi! Uning qo'lida o'qiyotganimda, menga qanchadan qancha ajoyib kitoblar sovg'a qilgan! Nahotki, to'rtinchchi sinfda o'qiyotganim uchungina uni esimdan chiqarishim kerak bo'lsa?

– Azizim! – qichqira ketdi Bruno Andon, u bolaga „siz“lab murojaat qilardi. – Sobiq muallimangizni, go'zal va mehribon qizni unutib yubormaganingiz tahsinga loyiq, albatta. Ammo nega

mehringizni mening hisobimdan ko'rsatishingiz kerak? Nima uchun qizga atirgullarimni uzib berasiz?

– Sizga boyta aytdim, janob, atirgullar to'siqdan oshib o'tgandi.

– Shuning uchun sen, – darg'azabligidan yana „sen“lab ketdi u, – gullarni meniki hisoblamaysan, shundaymi?

– Ha, janob.

– Hakamlar boshqa fikr bildirishgan bo'lardi, o'g'rivachcha!

– Janob Bruno Andon, – gapga aralashdi ota, – aziz avliyolar haqi, bolani qiynamang. O'zingiz ko'rib turibsiz, bo'zdek oqarib ketdi, lablari titrab, ko'zlariga yosh to'ldi, hozir yig'lab ham yuboradi.

– Axir, siz, janob Alvares Xunko, menga ma'lumki, yozuvchisiz, bo'lmag'ur mulohazalar o'ylab topib o'zini oqlashga urinayotgan manavi to'qqiz yashar mishiqining axloqsizligi sizni g'azablantirmaydimi?

– Yo'q, qo'shnijon, adashasiz: o'g'lim o'zini oqlash uchun hech qanday mulohaza o'ylab chiqarmayapti. U o'zini oqlashga harakat ham qilma-yapti. Bola atirgullaringiz to'siqdan tashqarida o'sarkan, sizniki bo'lmay qolishiga chin yurakdan ishonyapti. Qolaversa, sotish uchun uzib olmagan. Agar gullaringizni sotganida edi – chindanam o'g'ri bo'lardi. Ularni sovg'a qilgan-ku. Yana bir narsa, agar atirgullarni hozirgi o'qituvchisiga bergenida va shu orqali uning e'tiborini qozonganida edi, men xuddi siz kabi o'g'lim o'g'irlilik qilgan, derdim. Ammo u endi o'ziga hech qanday aloqasi bo'lмаган иккинчи синф муallimasiга, go'zal, dilbar, zebo hamda mehribon ayolga

bergan. Atirgullaringiz, qo'shnijon, eng yaxshi taqdirga munosib bo'libdi. Ular nafosatga va ehtimolki, muhabbatga to'liq ajib xotiralarni uyg'o-tishga xizmat qilibdi...

– Aytmoqchisizki, – xitob qildi Bruno Andon achchiqlanib, – men axir, gapingizdan shunaqa fikr kelib chiqyapti-da – atirgullarimni uzgani va go'zal, ko'r kam allaqaysi Xudo urgur muallima-ga eltib bergani uchun bolangizdan minnatdor bo'lishim kerak, shundaymi? Bilib qo'ying, janob Alvares Xunko, agar o'g'lingiz gullarimni uzib, kartezianlar ordeni asoschisi, men nomini ko'ta-rib yurgan va chin dildan hurmatlagan yagona inson – Avliyo Brunoning mehrobiga eltib qo'y-sayam, baribir u atirgullarimni o'g'irlagan, deb hisoblardim. Nahotki, fikrimga qo'shilmasangiz, janob?

– Yo'q, qo'shni.

– Demak, to'qqiz yashar o'g'lingizning kurakda turmaydigan, bo'l mag'ur, noqonuniy qarashlariga sheriksiz, shundaymi? Shundoq bo'lsayam uning xulqini... Hatto nima deb atashni ham bilmay qoldim. Uning yonini olganingizni esa, janob Alvares Xunko, hech ikkilanmay jinoyat deyman. Bolangiz, bechora o'g'lingiz ajoyib tarbiya olyapti! Omon bo'ling, janob!

Bruno Andon pishillagancha shlyapasini bos-tirib chiqib ketdi, ammo zum o'tmay uning qiza-rib ketgan basharasi eshik oldida paydo bo'ldi:

– Bir narsani aytib qo'ymoqchiman, janob, bundan buyon men bilan so'rashaman deb o'zin-gizni qiy nab o'tirmang. Sizga javob qaytarmay-man.

– Bo'pti, qo'shni.

– Ogohlantiraman: agar o'g'lingiz yana bir marta bog'imdan atirgul uzib ketgudek bo'lsa, o'z qo'llarim bilan sizdek tuturiqsiz ota qilishi lozim bo'lgan ishni qilaman, jazolayman!

– Tahdid qilyapsizmi?

– Ha, ammo, yaxshisi, men undan ham ma'qulroq ishni qilaman: bundan buyon ko'cha o'g'rilariini qiziqtirmasligi uchun to'siq yonida o'sgan o'sha butani bugunoq ildiz-pildizi bilan sug'urib tashlayman!

– Yo'q, unday qilmang! – qichqirdi bola. – Bu buta judayam chiroyli. Yulib tashlamang uni! So'z beraman, sira atirgullaringizga tegmayman...

– Men esa sug'urib tashlayman, tamom-vassalom! – bo'kirdi Bruno Andon va eshikni taraqlatib yopib chiqib ketdi.

– U aqldan ozgan! – dedi Gyugo Gomer.

– U, albatta, o'zini aqliraso sanaydi, – so'z qotdi otasi. – U va boshqalar – shaxsiy mulkning mohiyatini bo'rttiradigan kimsalar – bizni telbannamo hisoblaydilar. Nima bo'lgandayam, kelgusida bunaqangi mojarolardan qochish uchun birov-larning bog'idan atirgul uzmasliging kerakligini tushunyapsanmi, o'g'lim?

– Ular hatto to'siqdan tashqariga oshib o'tgan bo'lsayammi?

– Ha, bo'talog'im, hatto to'siqdan oshib o'tgan bo'lsayam. Men esa har hafta sevikli muallimang uchun atirgul sotib olishingga yetarlicha pul be-rib turaman.

Bola quvonganidan chapak chalib yubordi:

– Bo'pti, otajon. Bilasizmi... – u jimbiz qoldi.

– Nima demoqchiyding? – so'radi otasi.

– Bilasizmi, unga atirgul berganimda, u egilib, muchchi olishim uchun yuzini tutadi. Uning yuzi xuddi barxitdek, haqiqiy barxit: yoqimli va xush-bo'y. Otajon... – u yana to'xtadi.

– Gapir, gapiraver, o'g'lim. Nima demoqchisan?

– Dada, yigirmaga kirganimda muallimamga uy-lansam bo'ladimi?

– Yana o'n bir yil kutishingga to'g'ri keladi. Uning yoshi nechchida?

– Yigirmada. O'zim so'rab oldim.

– Demak, yigirmaga kirganingda u o'ttiz bir-da bo'ladi. Aftidan, sen uning qiziga uylanganing ma'qulroq chog'i. Nima deysan?

– Qiziyam shunday chiroyli bo'ladimi?

– Albatta-da.

– Bo'pti, ota, unday bo'lsa qiziga uylanib qo'ya qolaman.

Alisher FAYZULLAYEV tarjimasi

QUVONCHLI BIR SOAT

Misis Maledning yurak xastaligidan qiynalib yurishini bilgan holda unga erining vafoti haqidagi xabarni yetkazish oson ish emas. Ammo singlisi Jozefin buni qanchalar ehtiyotkorlik bilan, opasini avaylashga urinib, so'zlarini asl haqiqatdan olib qochib, uni berkitishga uringancha ma'lum qilgan bo'lsa ham, bu mudhish xabarning dahshatini zarracha kamaytira olmadi. O'sha dam opa-singilning oldida bo'lgan erining do'sti Richard esa bu temir yo'l halokati to'g'risida va unda qurban bo'lganlar ro'yxatining boshida Brentli Maledning ismi yozilganini gazeta tahriyatida o'qigan edi. Lekin u ham bunga ikkinchi telegrammadan keyingina ishondi va qayg'uli hodisani do'stining rafiqasiga bildirish uchun biroz ehtiyotsizlik va anchayin qahri qattqlik bilan shoshib kelgandi.

Bunday musibatdan es-hushini yo'qtayozgan boshqa ayollar singari Maled xonim ham uning mohiyatini to'liq anglashga majoli yetmay, gandiraklab qoldi. Singlisining qo'llariga osilgancha ho'ngrab yig'lab yubordi. G'am-anduh bo'ronida o'zini yo'qtib qo'ygan ayol xonasiga qamalib oldi. Hech kimni yoniga kiritmadi va eshitishdan bosh tortdi.

Xonadagi ochiq deraza qarshisiga qo'yilgan kursi oldiga keldi. Avval butun tanasini, asta-sekin ruhiyatini qamal qilayotgan anglab bo'lmash zulmat kuchi uni kursiga g'arq etdi. Deraza osha hovlisiga yuzma-yuz maydon atrofidagi daraxtlarga, ularning uchlarida endigina ko'z ochayotgan bahoriy kurtaklarga ma'yus nigoh tashladi. Sal oldin yog'ib o'tgan yomg'irning muattar bo'yi xuddi qimmatbaho farang atiri kabi dimog'ga urilar-di. Sal pastroqdag'i ko'chadan turli-tuman mollarini orqalab olgan, uyma-uy yurib savdo qiluvchi tanish savdogar ketib borardi. Olisdan kimningdir hazin xirgoyisi g'ira-shira qulqoqqa chalinib, tinimsiz chug'urlashayotgan chumchuqlarning shovqini bilan uyg'unlashib ketardi. Xuddi moviy dengizda suzgan kema kabi zangori ko'k bag'rida kezib yurgan bulutlar go'yo derazasi oldida ko'lanka solayotgandek yig'ilishardi.

Xonim esa boshini kursi suyanchig'iga tashlagancha hissiz o'tirar, hatto kiprik qoqishni ham unutib qo'ygandi. Shu payt bo'g'ziga kuchli bir yig'i tiqilib keldi va uni qo'rqinchli tushdan yig'lab uyg'ongan bola kabi ho'ngrab yuborishga majbur etdi.

Malerd xonim hali anchayin yosh bo'lib, sutday oppoq va hamisha xotirjam qiyofadagi yuzi uning ichki dunyosiga ko'zgu tutib turardi. Ammo hozir uning ko'zlarida g'aman abgor bo'lgan qarash namoyon va bu nigohlar o'sha ko'lanka solayotgan bulutlarga qadalgan. Ularda mulohaza amri emas, balki aql va fikr yuritishdan yiroqlashish ustunlik qilib turardi.

Xonimning xayolida nimadir tinimsiz charx urib aylanar, u esa buning nimaligini anglash

uchun qo'rquv bilan kutardi. Nima bo'ldi ekan bu? Qanday atashni ham bilmaydi, nahotki bu mujmal va hech bir shaklga sig'maydigan kechinchimalarni nomlash shunchalar mushkul! Ammo osmon bag'rida suzib, havodagi hidlar, ranglar va hatto tovushlar orqali u tomon yaqinlashayotgan bu sirli hisni tuyib turardi. Hozir ko'ksida bir nima besaranjomlandi, hayajonli entikdi. Butun ong-u shuurini mahv etayotgan bu g'aroyibotni taniy boshladи va shu zahotiyоq uni o'zidan quvishga, undan xalos bo'lishga intildi. U tinimsiz o'zini qo'lga olishga harakat qilar, titroq lablari bilan esa „Erkin, erkin, erkin!“ deya pichirlardi. Ko'zlarida ma'nosizlik va qo'rquv namoyon bo'lar, ular borgan sari o'tkir va yorqin tus olardi. Tomirlaridagi qon tezlashib, tobora qizib borar va vujudining har bir nuqtasida buni his etardi. O'zini chulg'ab olayotgan qo'rqinchli quvonchning sababini izlashdan to'xtay olmasdi. Yaxshiyamki vaqtida es-hushini yig'ib oldi, o'z o'rniqa qaytib, tiniqlashayotgan aqli unga bu kabi ahmoqona xayollardan voz kechishga yordam berdi.

Hozir u marhumning o'limni qarshi olib, ko'ksida yig'ilib turgan mehribon va muloyim qo'llarini, o'ziga nisbatan hech qachon muhabbat aks-lanmagan yuzini ko'rganida ko'z yoshini to'xtata olmasligini biladi. Ammo bu anduhli daqiqalar ortida uni uzoq tanholik yillari qarshilashga tayyor ekanini ham ko'rib turardi va ularga peshvoz chiqqan kabi qo'llarini ochib, keng yoydi. Oldindagi bu yillarda uning uchun yashaydigan birov yo'q, u ham endi o'zi uchun yashaydi. Aksariyat erkaklar va ayollar o'z hamrohlariiga shaxsiy xohish-istiklarini aytishga haqlari bor, deb bilisha-

di, biroq unda ham bo'lgan bu ko'r-ko'rona qat'iylikning endi hech qanday kuchi yo'q.

U erini sevadi – ba'zida! Aslida esa yo'q. Buning nima ahamiyati bor? Muhabbat nima ham qila olardi, yechilmagan jumboq. U o'zida to'satdan ichki turtkining kuchini sezib qoldi.

– Erkin! Vujud ham ruh ham endi ozod! – ohista pichirladi xonim.

Singlisi Jozefin esa eshik oldida cho'kkalab, kalit kiradigan tuynukka lablarini yaqinlashtirgancha opasiga yolvorardi:

– Luiza, iltimos, eshikni och! O'tinaman, unday qilma, o'zingni kasal qilib qo'yasan. Nima qilysan, Luiza? Xudo haqqi, eshikni och!

– Ket! Hech kimni ko'rishni istamayman. Yo'q! – ayni dam u ochiq derazaga yuzini tutgancha, go'yo obihayotga qonayotgandek turardi. Boshida gir aylanayotgan kunlar xayoli uni asir etgandi. Bahor kunlari, yoz kunlari, xullas, oldinda faqat o'ziniki bo'ladijan barcha kunlar! U hayot uzun bo'lishini tilab nafas olardi. Hayot uzunligini o'ylab qo'rquvga tushganlari kecha edi, u esa o'tmishta aylandi. Singlisining javrashralaridan bezib, eshikni ochdi. Xonimning ko'zlarida hayajonli zafar ifodasi balqir, o'zini g'alaba ma'budasidek his etardi. U singlisining bilagidan qattiq tutgancha, birgalikda pillapoyalardan tushib kelishardi. Pastda esa ularni Richard kutib taraddudlanardi.

Shu payt kimdir kirish eshigiga kalit solib, uni ochdi va ichkariga kirdi. Bu qo'lida safar sumkasi va soyabonini tutib olgan Brentli Malerd edi. U halokatdan olisda bo'lib, hatto u yerda nima bo'lganidan ham xabarsiz edi. Janob Jozefinning

faryodli yig'isidan va Richardning uni xotinining ko'zidan pana qilishga urinib, tartibsizlanib qolganidan hayratda dong qotgandi. Biroq Richard kech qoldi.

Shifokorlar yetib kelishganda esa xonimning yurak kasalligidan – quvonchdan vafot etganini ma'lum qilishdi.

Mukarram OTAMURODOVA tarjimasi

MAKTAB KO'RMAGAN QIZ

I

Keksa Jerom Uorren o'n beshinchı Sharqiy hududdagi elliginchi ko'chada naq yuz ming dollarlik uyda istiqomat qilardi. U shu shaharchada yashaydigan eski dallollardan edi. Qariya shu qadar boyvachcha ediki, mol-dunyosi bemalol besh-o'nta xo'jalikka oshig'i bilan yetib ortardi. U har kuni ertalab sog'ligi uchun idorasi tomon yayov yo'l yurardi. Bir-ikkita mahallani bosib o'tgandan keyingina yollanma mashina chaqirar edi.

Jerom Uorrenning asrab olgan bir o'g'li bor edi, eski og'aynisining Jilbert-Sirel Skot ismli zurriyoti edi bu bola. Yaratgan bu yetim bandasini tug'ma iste'dod bilan siylagandi, u ajoyib suratlar yaratishda tengsiz hisoblanardi. Jeromning oila a'zolaridan yana biri esa uning asrab olgan qiz jiyani – Barbara Boss edi.

Odam bolasining boshida har xil sinov bo'lar ekan-da. Mana masalan, Jerom buva shunchalik boy bo'lsa ham, o'z surriyodi yo'q edi. Shuning uchun ham qariya boshqalarning g'amini yelkasisiga ortib olgandi.

Jilbert bilan Barbara juda yaxshi kelishardilar, biror marta san-manga borishmagan edi. Bu

ikkisi har kech ibodatxonaning gul bilan bezatilgan katta qo'ng'irog'i tagida turib, bir-birlariga so'zsiz, ammo ko'z va nafas bilan dillaridagi kechinmalarni tuygan holda, shavkatli xojalari bo'l-mish keksa Jeromning pullari ko'payishini, uning boyligini asrab-avaylashini Xudoyimdan astoydil so'rab iltijo qilardilar. Ammo gap shu yerga kelgannida, muhtaram kitobxon, sizlarga bir chigallikni aytib ketmoqlik joiz bo'ladi, deb o'ylayman.

Bundan o'ttiz yil muqaddam, ya'ni keksa Jeromning yosh yigitlik vaqtlarida uning Dik ismli bir akasi bo'lguchi edi. O'sha akasi g'arbga qarab o'z baxtini va boyligini qidirib ketgan edi. To biri-da Jerom tog'a hech kutilmaganda akasidan bir donagina xat olgan paytga qadar Dikdan boshqa hech qanday xat-xabar kelmagan edi. O'sha maktub tuzlangan cho'chqa go'shti bilan qahva donachalarining hidi anqib turgan odatiy bir xat edi. Yozuv ham juda chalkash, o'qish nihoyatda mushkullik tug'dirardi.

Xatida ma'lum qilishicha, Dik o'zi izlagan baxt-u omadini qidirib topish o'rniga bor-budidan ayrilib, butun mulkini dushmanlariga (garovga) o'tkazib bergandi. Yozuvidan ham ko'rinish turardi, Dik bechora bu maktubni yoniga bir shisha viski qo'yib olib, undan bir ho'plab-bir ho'plab turib, nihoyatda ezilgan holatda yozganga o'xshardi. O'tgan o'ttiz yillik umridan orttirgan yagona topgani bittagina qizi bo'lgandi. Endi hayoti poyoniga yetgach, so'nggi safari oldidan keksa Dik unga vasiyat qilib, o'n to'qqiz yoshli qizini birodari Jeromga xatlab bermoqchi edi, qiz to turmush qurib, uyli-joyli bo'lib ketgunigacha Jerom uni yedirib-ichirib, ust-boshini butlab, tarbiyalab bo-

rishni o'z zimmasiga olishi lozim edi. Darhaqiqat, Jerom saxovatpeshalikda misoli hotamitoy edi.

Deydilarki, dunyo keksa bir bug'uning shoxlari ustida turar emish. O'sha bug'u esa allazamonlardan beri kichkinagina toshbaqaning tepasida tik turib yashab kelarmish. Xo'p, o'sha bug'uning-ku suyanadigan toshbaqasi bor ekan, biroq zahmatkash toshbaqa boyoqishni suyab turuvchi qanday jonzot bor ekan bu olamda? Ehtimol, o'shanday fidoyi toshbaqani suyab turish uchun, balki, Jerom tog'aga o'xshagan bag'ri keng insonlarni dunyo yaratib qo'ygandir? Ha, keksa Jerom Uorren shunday tengi yo'q, tillo odam edi. Modomiki, butun dunyo uchun o'rnak bo'lishga loyiq bir zot ko'rsatinglar deyilganda, shubhasiz, barcha yaxshi odamlar Jerom tog'ani namuna qilib ko'rsatgan bolardi.

Shunday qilib, Jerom Uorren akasining xatiga binoan uning qizi Nevadani stansiyada kutib oldi. Nevada kichkinagina, yuzlari oftobda qoraygan, istarasi issiqliqning, tetik qiz ekan. Uning xatti-harakatlarini kuzata turib, bu qizchani dastlab kalla yubka bilan to'rli paypoqlarda tasavvur qilish mumkin, biroq Nevada aksincha, oddiygina qora, eski yubkasi bilan birinchi tasavvurni chippakka chiqardi. Qo'lida jussasiga yarashmagan zilday og'ir jomadonni chirani ko'targancha, tebranib turarkan, Nevada uni u yoq-bu yoqdan yugurib kelgan hammollarga aslo tutqazishni istamasdi.

– Ishonchim komilki, bizlar eng yaxshi dugona bo'lib qolamiz, – dedi Barbara Nevadaning qattiq, quyosh kuydirgan yonog'idan cho'qilagancha o'pib qo'yarkan.

– Men ham shunday deb umid qilaman, – dedi Nevada ham.

– O'zimning kichkina jiyancham, – dedi keksa Jerom tog'a. – Xush kelibsan, malikam. O'zingni xuddi o'z otangning uyiga kelganday his qilgin, bo'talog'im!

– Rahmat, amaki, – deb qo'ydi Nevada su-yunib.

– Men esa seni tug'ishgan amakivachcham, deb atayman, maylimi? – dedi Jilbert beg'ubor tabassum bilan.

– Sizga malol kelmasa, manavi jomadonni qo'limdan olib qo'yasizmi? – dedi Nevada unga javoban. – Bu jomadon naq million pud keladi-ya. U menga dadamdan esdalik bo'lib qolgan, – shunday deb izoh berdi, keyin Nevada Barbaraga yuzlanib, – hisoblab chiqsam, bu zambilday xaltam uni ko'targan odamning qo'lini uzib yuborishi aniq ekan, biroq shunday bo'lsa-da, bu yigit uni bemalol ko'tarib keta oladi. Men bunga ishona-man.

II

Bitta erkak bilan ikkita ayol o'rtasida munosabat yaratish – bu g'oyatda mushkul savdo, yoki bir ayol bilan ikkita erkak orasidagi aloqa ham ana shunday chigallik keltirib chiqaradi, holbuki, bir ayol va bir erkak kishining o'zi ham bir-biriga mos kelib, til topishib ketishlari uchun bir talay vaqt kerak bo'ladi. Xullas, uchlik, ya'ni bir erkak va ikkita xonimcha bilan bog'liq muammojar har doim yuzaga kelaveradi. Ammo bizning qahramonlarimiz hecham bunday uchlilikka o'xshamadilar. Har uchalasi ham bir zumda til topishib, apoq-chapoq bo'lib ketishdi. Nevada Uorrenning tashrifi Jilbert va Barbara Ross bilan

bog'liq bo'lgan g'aroyib uchlikni yaratdi. Avvaliga ular qalin do'stlarday bir-biriga mehr ko'rsatib, bir-birlarini ardoqlayotgandek bo'lib ko'rindi, ammo baribir bir erkak bilan bir xonim orasidagi ziddiyat bu uchlikka ham asta-sekin o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Sho'rlik Barbara Nevada kelganidan beri ancha qisilib qoldi. U yuzaga kelgan uchlikdagi hech keragi yo'q odamday o'ksiy boshladi.

Bir kuni ertalab qariya Jerom tonggi nonush-tadan keyin nihoyatda zerikarli bo'lgan gazetasi ustida ancha imillab o'tirib qoldi. U yangiliklar-dan xabardor bo'lib yurish uchun tez-tez gazeta va jurnallarni varaqlab turardi. Ayni chog'da Jerom tog'aning jiyani Nevadadan ko'ngli to'lgan, marhum akasining erkinligi bilan ochiq ko'ngilligi qiziga meros bo'lib o'tganidan faxrlanib qo'ydi.

Shu vaqtda oqsoch xotin miss Nevada Uoren nomiga yozilgan qandaydir maktubni keltirib berdi.

– Pochtachi bola buni sizga olib kelibdi, xonim, – dedi u. – U hozir eshik oldida xatning javobini kutib turibdi.

Nevadaning parvoysi falak bo'lib, tishlari orasi-da qandaydir kuyni xirgoyi qilib chaldi-da, derazadan ko'cha yuzida u yoqdan bu yoqqa g'izillab o'tayotgan mashina bilan ot-ulovlarga ko'z tashladi. So'ngra u oqsoch tutqazgan konvertni qo'liga oldi. Nevada bu xatni Jilbertdan ekanini bilib qoldi, negaki konvert chetiga kichkinagina palitra bo'yog'i chaplanib qolgandi.

Xatni ochib, undagi satrlar uzra bir qur ko'z yogurtirib chiqarkan, Nevada bir zum maktub ichiga sho'ng'ib ketdi. Birozdan keyin u jiddiy tortdi-da, amakisi o'tirgan xonaga kirib bordi.

– Jerom amaki, – dedi Nevada amakisining yonida erklangancha turarkan, – anavi Jilbert yaxshi bola, a? Shundaymi?

– Bo'lmasam-chi, ha-da, – deb javob berdi qariya, – umridan baraka topsin Jilbert! – Jerom tog'a qo'lidagi gazetasini buklarkan, yana qo'shimcha qildi: – Uni o'zim katta qilganman.

– To'g'ri aytasiz. Menga aytинг-chi, amaki, u haligi... hech kimga sirli va yoki xufiya nomalar yozmaydi, a?

– Kim bilsin, bunaqa ishlar uning qo'lidan kelmasov, – deb qo'ydi Jerom tog'a gazetasini qaytadan ochar ekan. – Nega bularni so'rab qolding? Nima uchun?

– Amaki, mana bu xatni menga o'qib bera olasizmi? Buni u yuboribdi. O'zingiz uning qanchalar to'g'ri va xolis ekanligini bilib olasiz. Bilasiz-ku, amaki, axir men bu yerlik odamlarning fe'l-atvolariga unchalik yaxshi tushunavermayman.

Keksa Jerom tog'a gazetasini bir chetga olib qo'ydi-da, oyoqlarini bir joyga juftlab, Nevadaning xatini oldi. Avval xatni ikki marta diqqat bilan ko'zdan kechirgach, keyin yana uchinchi bora uni erinmay o'qib chiqdi:

– Voy qizalog'im-ey, – dedi u kulib. – Sal bo'lmasa o'takamni yoray deding-al! Men bu bolaga chin dildan ishonaman. Jilbert otasining o'zginasи. Tilla bola u! U bor-yo'g'i sen bilan Barbaradan bugungi o'tkaziladigan avtomobil poygasi uchun soat to'rtda tayyor bo'lib turishlaringizni so'rabi, xolos. Xatda bu gapdan boshqa qing'ir fikrni ko'rmadim. Zotan, Jilbertga nisbatan zarracha ishonchsizligim bo'lganida, uni sizlar bilan muomala qilishiga aslo yo'l qo'yмаган bo'lardim.

– Rostdanmi? U yerga borsak bo'ladimi, amaki? Avtomobillar poygasiga? – deb so'radi Nevada hovliqib.

– Ha, ha! Albatta, qizim, albatta. Nega bo'lmasin? Sizlarni xursand ko'rib boshim osmonga yetadi mening. Boraveringlar. Hech xijolatlik yeri yo'q buning.

– Buni qarang, amaki, – dedi Nevada uyalinqirab. – Birinchi bo'lib sizdan so'rash xayolimga ham kelmabdi, meni kechiring. O'sha poygaga bizlar bilan birga bormaysizmi?

– Kim? Menmi? Oh, yo'q-yo'q, qizim! Men bir gal shunday poygada qatnashib, keyin tavba qilib qo'yanman. Qayta bormaganim bo'lsin, degaman o'shanda! Lekin, mana, sen bilan Barbara u yerga borsanglar, boshqa gap. Sizlar boraveringlar. Ammo mendek qari cholga poygada nima bor? Yo'q, yo'q, yo'q!

Nevada amakisining oldidan uchib chiqdi-da, oqsochga tayinladi:

– Anavi pochtachiga borib ayt: Bizlar boradigan bo'ldik o'sha poygaga. Shoshma, miss Barbaraga bu haqida o'zim aytaman. Sen eshik oldida turgan bolaning oldiga chiq tezroq. Unga zudlik bilan borishimizni ayt. Bo'la qol!

– Nevada, – deb chaqirib qoldi shu payt Jerom tog'a. – Meni ma'zur tutasan, bo'talog'im, biroq Jilbertga shu gapni javob xati qilib yozib yuborsang yaxshi bo'larmidi, deb o'ylab qoldim. Hech bo'lmasa bir-ikki qator bo'lsa ham yozib yubora qol.

– Yo'q, amaki. Menimcha, buning hojati bo'lmasa kerak, – deb javob berdi Nevada xushchaq-chaqlik bilan. – Jilbertning o'zi hammasini dar-

rov tushunib oladi. Men umrimda sira mashina haydagan emasman, qalay bo'larkin, a? Lekin bir marta baydarkada eshkak eshgandik. Kichkina-gina Devil daryosi bo'ylab suzgandik o'shanda. Ammo bu poyga o'yini menga baydarkadan ham qiziqroq bo'lib tuyulyapti! Borib ko'ray-chi!

III

Oradan ikki oy o'tdi. Bu vaqt Barbaraga xuddi asr kabi tuyuldi. U yuz ming dollarlik qimmat-baho uyning kutubxonasida kitob o'qib o'tirar, xayollari parishon edi. Barbara faqat shu yerdagi na o'zini xotirjam his etardi. Ko'p erkak va ayollar dard-u hasratlarini aritish uchun turli joylarga qochadilar. Go'zallik salonlariga, kemalar, idor-larga, daryo, dengiz va boshqa-boshqa joylarga boshlaridan g'amlarini quvish uchun ketib qoladilar. Biroq ular qayerga bormasin, yuraklaridagi og'ir yuk toshi ham o'sha yerga ular bilan bir-ga-birga ketishini aslo tan olmaydilar.

G'aroyib uchlikdagi nokerak odam ekanligini tan olish ham odamga benihoya azob beradi. Bu, rostdanam, chidab bo'lmas xo'rlik soladi ko'ngil-ga.

Barbara bir o'zi, tanho o'tirardi. Jerom tog'a bilan Nevada teatrغا ketishgan edi. Biroq Barbaraning u yoqqa borishga hushi bo'lindi. U uyda qolib, kitob o'qib o'tirishni istadi. Har kuni bir xil tomoshalar, o'yinlar, pyesalar va o'tirishlar bora-bora kishining ko'ngliga uradi. Binobarin, Barbara ham allaqachon bunday bordi-keldilarga qiziqmay qo'ygandi.

U xomush o'y surgancha, kutubxonadagi dub daraxtidan yasalgan stol yonida o'tirar edi. O'ng

qo'lini o'sha stol ustiga tappa tashlagancha, Barbara chap qo'li bilan muhrlangan bir konvertni asabiy aylantirar edi. Bu maktub ham Nevada Uorren nomiga jo'natilgan bo'lib, konvertning chetida Jilbertning qadrdon palitra bo'yog'i tom-chiday bo'lib yopishib qolgandi. Xat Nevada ket-ganidan keyin taxminan soat to'qqizlarda yetib kelgandi.

Ayni lahzalarda Barbaraning shu xatni o'qishga shunaqangi qiziqlishi baland ediki, u mana shu maktub ichidagi gapni bilish evaziga hatto o'zining eng yaxshi ko'rghan marvarid marjonini ham berib yuborgan bo'lardi. Ammo bechora ming urinib ko'rsa hamki, ishning uddasidan chiqolmadi. U ruchkaning uchi, soch to'g'nag'ichi va boshqa xilma-xil usullar bilan sirli maktubni ochishga chirandi, negaki konvertning shundoqqina o'zini yirtib ochish Barbaraning jamiyatdagi mavqeyiga aslo to'g'ri kelmasdi. U yorug' tushgan yerga xatni solib, konvert orqasidan bir-ikki satr bo'lsa ham o'qib olishga muvaffaq bo'ldi, keyin maktubni goh u tomonga, goh bu tomonga qilib o'qishga tutindi, biroq Jilbertning qog'oz tanlashda didi baland edi. Uning xatini konvert ortidan o'qish juda mushkul hisoblanardi.

Soat o'n bir yarim bo'lganida teatrga ketgangular qaytib kelishdi. Ajib, farahbaxsh tun kechar-di. Yollangan mashina darvoza oldiga yetib kel-gunicha Jerom tog'aning nafasi og'ziga tigilgudek bo'lib, ko'ngli ag'darilayozdi. U shoshma-shoshar haydovchi bilan tirband ko'chalar ustidan shikoyat qila-qila mashinadan tushdi. Gulday ochilib, pardoz qilib olgan Nevada bo'lsa dadasingin kul-basida dovul kezgan kechalar haqida xotirlab ket-

di. Bu kezda Barbara yuragiga qil ham sig'may, ichkarida diqqinafa bo'lib o'tirardi.

Jerom tog'a ichkariga kirgan zahoti yuqori qavatga chiqib, dorisidan bir qultum ichib olgani shoshildi. Nevada esa kayfiyati chog', qandaydir kuyni xirgoyi qilgancha kutubxonaga kirib kel-di. Katta tebratma kresloga xotirjam cho'kdi-da, tirsagigacha ko'tarilgan qo'lqopining tugmalarini asta-sekin yecha boshladi.

– Qalay, tomosha zo'r o'tdimi? – deb so'radi Barbara. – Janob Fild mahoratlari rejissor. Darvoqe, jonginam, senga xat keluvdi. Teatrga ketishing bilanoq yana bitta maktub oldik.

– Kimdan ekan? – deb so'radi Nevada hamon tugmalarini yechish bilan ovora ekan.

– Anig'ini bilmadim, go'zalim, – dedi Barbara miyig'ida kulib. – Lekin o'zimcha fahmlab topdim. Modomiki, konvertning chetida tanish palitra bo'yog'idan dog' qolibdimi, demak, bu Jilbertning ishi bo'ladi. Bu palitra bo'yog'i dog'i menga bami-soli ishq izhorining belgisiday bo'lib tuyulmoqda.

– Qiziq, u nega menga xat yozibdiykin? – deb qo'ydi Nevada charchagan tovushda.

– Bilasanmi, biz ayollar barchamiz bir-birimizga o'xshab ketamiz, – dedi Barbara. – Ya'ni, o'ta qiziquvchanmiz. Yuborilgan qandaydir xatni ham konvertning shtempeli ustidan bo'ssayam o'qishga urinamiz. Chidolmasdan oxiri qaychi bilan qirqamiz-da, shoshganimizdan xatni pastdan tepaga qarab o'qiy boshlaymiz. Axir bu qip-qizil tentaklik-ku! – Barbara istehzoli kulib qo'ydi. – Mana omonating.

Shunday deb u xatni uloqtirguday qilib Nevdaning oldiga tashladi.

– Eh, yovvoyi mushuklar-ey! – deb yubordi Nevada oxiri. – Barbara, manavi yaramas tugmalarni nima qilsam ekan-a?! Qayoqdan ham shu baloni kiyib olibman. Juda rasvo narsa ekan-da! Voy, juda qiynalib ketdim! – Nevada oh-vohlagancha, qo'lqoplarining tugmalarini uzguday bo'lib harakat qilardi. – Barbara, iltimos, buni o'zing menga o'qib bera qol. Men bu yaramas qo'lqoplarni yechib olgunimcha naq yarim tun bo'ladi chog'il!

– Voy, nega ekan? Axir Jilbert bu xatni senga yozgan-ku! – deb hayron bo'ldi Barbara. – U seniki. Shunday ekan, bu xatni o'zingdan bo'lak hech kim o'qimasligini istarsan, albatta!

Nevada yechishga urinayotgan qo'lqoplaridan ko'zlarini uzib, g'azab bilan Barbaraga tikildi.

– Hech kim menga begona odam o'qishi mumkin bo'lмаган bema'ni xat yoza olmaydi! – dedi u. – Bemalol o'qiyver. Ehtimol, Jilbert ertaga ikkalamizni yana avtomobillar poygasiga olib bor-moqchidir.

Ayollandagi qiziquvchanlik har balodan ustun keladi-da. Ulardagi rashk hissi ham shu darajada kuchliki, ana shu bedavo dard azobi iskanjasida ular butun dunyoga o't qo'yib yuborishdan ham toymaydilar. Shunday qilib, Barbara ko'ngilchanlik bilan sirli xatni ochdi.

– Mayli, jonim, – dedi u sekin. – Nimayam derdim. Basharti o'zing o'qishimni istab turgan ekansan...

U konvertni yirtdi-da, tez-tez ko'z yogurtirib, xatni bir qur o'qib chiqdi. Keyin shoshmasdan yana bir marta o'qidi. Olamdag'i eng qiziqarli mashg'ulot mana shu qo'lqoplariday ularga chip-

pa yopishib olgan Nevadaga ko'z tashlarkan, Barbara tag'in miyig'ida kulimsirab qo'ydi.

Oraga besh-olti daqiqalik jimlik cho'kdi. Barbara esa bu paytda xayolida jonlantirgan g'aroyib hiylasini yuzlariga chiqardi. Uning chehrasi negadir yorishib ketdi.

Ayol zoti chindanam g'alati xilqat bo'ladi. Ular uchun o'zga ayolning dardi, ichki sir-u asrori, yashirin tuyg'ulari, hatto bir tola sochigacha sirli bo'lib qolmasligi kerak. Ular ortiqcha shubhalanib o'tirishni yoqtirmaydi.

Shu damda bir eski rivoyat esga tushadi. Qadim-qadim zamonda jannat eshigini Evaning o'g'li borib qoqibdi. U qo'lida endigina tanishgan begona bir malakni ko'tarib turgan ekan. Eva u qizni kelini sifatida qabul qilibdi, to'y-tantana o'tkazibdi.

– Hurmatli xonimlar, – debdi kelin noz-u ishva bilan. – Nazarimda, sizlar ancha vaqtdan beri shu yerda yashab kelasizlar, shundaymi?

– Yo'q, yaqindagina kelganmiz, – debdi Eva mutlaqo xotirjamlik bilan. – Sen mana bu ajoyib olma sharbatidan totib ko'rgin-a. Xuddi shirin qiyomdek tatiydi. Balki, manavi anjur og'zingga yoqar? Darvoqe, erkaklar o'z ishlari bilan band ekanliklarida nikoh ko'ylagining siren butazori orqasiga o'tib kiyib olsang bo'lardi. Yoki uni umuman o'zgacha shaklda yaratib olsakmikan?

Shunday qilib, ikkala ayol birgalashib kelingning g'aroyib ko'ylagini ajib tarzda bezatishibdi. Libos shu qadar maftunkor ediki, erkaklarning bari unga mahliyo bo'lib qolishibdi. Lekin ko'ylak siridan faqat ikkitagina ayol – kelin va qaynana voqif edi, xolos. Shuning uchun ham ikkala ayol o'rtasida hech qanday sir bo'lmasligi mumkindir,

ammo erkaklar uchun ayol zoti chinakam sirli saroyning o'zidir.

Barbara xayol surib, go'yo ikkilanayotganga o'xshab turib qoldi.

– Bilasanmi, Nevada, – dedi u hayajonini bildirishga urinib, – bu xatni o'qishimga yo'l qo'ymasang yaxshi bo'lardi. Men... Men bu xatni tag'in boshqa birov o'qib qolishini xohlamagan bolardim.

Nevada bir lahzaga qo'lqoplarini esdan chiqardi.

– Menga xatni ovozingni chiqarib o'qib ber, – dedi u. – Modomiki, o'zing allaqachon bu mak-tubdan voqif bo'lgan ekansan, endi sirning nima qizig'i bor? Xo'sh? Agarda janob Jilbert menga begona kishi o'qishi man etilgan xat yozgan ekan, men baribir uni boshqalardan berkitmayman.

– Xo'p, yaxshi, – dedi Barbara. – Eshit, xat quyidagicha yozilibdi: – Jonginam Nevada! Bugun kechqurun soat o'n ikkida uyimga kel. Iltimos, kech qolma. – Shu payt Barbara o'rnidan turib ketdi, xat Nevadaning tizzasi ustiga uchib tushdi. – Meni kechir, Nevada, – dedi u. – Men bilmabman. Ammo bu Jilbertning ishi emas. Bu yerda qandaydir anglishilmovchilik bo'lishi kerak. Faqat meni beodob va johil ekan deb o'ylamagin, xo'pmi, asalim? Ketmasam bo'lmaydi, yuqoriga chiqib, damimni olay. Boshim shunaqangi yomon og'riyaptiki... Ishonchim komil, men bu xatga aniq tushuna olmadim. Ehtimol, Jilbertning o'zi buni keyinroq izohlab berar. Men ketdim. Xayrli tun, azizam!

IV

Nevada oyog'ining uchida yurib, zalga o'tdi va yuqori qavatdagi Barbaraning eshigi yopilganini eshitib turdi. Kutubxonadagi ulkan mis soat vaqt

o'n ikkidan o'n besh daqiqa o'tganini ko'rsatib turardi. Nevada hovliqqancha ko'cha eshik tomon yugurib bordi-da, tashqariga o'zini urdi. Jilbert Uorrenning uyi bu yerdan olti mahalla narida edi.

Ko'chada izg'irin shamol yelardi, tumshaygan Sharqiy daryo tomondan shahar uzra tahlikali bo'ron ovozi tahdid solib turardi. Qor allaqachon yo'lak yuzlarini qoplab bo'lgan, hademay uyum-uyum bo'ladiganday shiddat bilan yog'moqda edi. Shaharcha Pompey ko'chalari kabi jimjit edi. Olisdagi oy nuriga cho'milgan cheksiz ummon uzra oq qanotli chag'alaylar suron solib uchar, yugurik to'lqinlar haybatli tarzda qirg'oqqa kelib urilar, sal o'tmay yana ortiga qaytib, takroriy safarlarida davom etardi.

Nevada bamisoli quyunday yelib borardi. U qor bosgan yo'lkkalar, baland tomli imoratlar, tungi chiroqlar xira yoritib turgan ko'chalardan tap-tap qilib chopqillagancha shoshib o'tdi. U go'yo bu yerlardan bir dunyo osoyish, orom va baxt topganday farahli bir parvozda uchib o'tdi, holbuki Nevada bu kabi ko'ngil halovatini Jerom tog'asining yuz ming dollarlik uyi ichidan ham kamdan kam vaqtlardagina topolgan edi.

Ko'cha tuyulishida turgan mirshab Nevadani kimgadir o'xshatib yuborib, xitob qildi:

– Salom, Mabel! Yo'l bo'lsin? Shunday bema-halda qayoqqa otlanding?

– Men... Menmi? Dorixonaga shoshayotuv-dim. – Nevada shunday dedi-yu, shipillagancha mirshabning yonidan o'tib ketdi.

Sharq tomonga burligan paytda ham qizning qadamlari susaymadi. U oppoq qor ustida egri-bugri izlar qoldirgancha shoshib ketaverdi. Qar-

shisida sevikli yorining uyi ko'ringanda, Nevada unga nazokat ila xiyol ta'zim qildi. Bino ichiga kirganda, butun uy cheksiz sukunat qa'rida, hamma yoq orom olib yotardi.

Nevada chiqqan lift o'ninchı qavatga yetganza to'xtadi. Tepadan pastga yana ikki qavatni bosib tushdi-da, yuragi orziqib ketgan Nevada 89-raqamli eshik qo'ng'irog'ini bosdi. U avvallari ham bu uyga Barbara va Jerom tog'asi bilan birga ko'p marta kelgan edi.

Eshikni Jilbert ochdi. Uning bir qo'lida rangli qalam bor edi. Nogahon paydo bo'lgan Nevadani ostonada ko'rib hayratlanganidan Jilbertning og'zidagi sigara polga tushib ketdi.

– Kech qolib ketdimm? – deb so'radi Nevada aybdorlarcha. – Kuchim boricha tezroq kelishga harakat qildim. Amakim bugun meni teatrga olib borgandi. Lekin mana men keldim, Jilbert!

Jilbert tezda o'zini tutib oldi. U Nevadani ichkariga kiritib, paltosi ustiga qo'ngan qorni qoqib tushirdi. Jilbertning ko'rgazma stendi ustida katta fonar yam-yashil soya sochib turar, rassom u yerda rangli qalam bilan nimaningdir eskizini chizib o'tirgandi.

– Kelishimni istagan ekansan, mana keldim, – dedi Nevada soddadillik bilan. – Xatingda shunday deb yozgan ekansan. Nima uchun menga xat yuborganding?

– Xatimni o'qidingmi sen? – deb ajablandi Jilbert.

– Uni menga Barbara o'qib berdi. Keyin o'zim o'qib chiqdim. Unda aytibsanki: „– Bugun kechqurun soat o'n ikkida menikiga kelgin, kech qolmagin“. Men sendan og'rib qolmadingmikan, deb

xavotir oldim, lekin ko'rib turibmanki, ko'rini-shing binoyiday, tuzuk ekansan.

– Aha! – deb yubordi Jilbert parvo qilmaslikka urinib. – Hozir senga nega kelishingni so'ragan nimni aytaman, Nevada. Men senga zudlik bilan, shu bugun tundayoq uylanmoqchiman. Shu arzimas qor quyuni bo'lsa nima qipti, a? Xo'sh, sen nima deysan, rozimisan shunga?

– Buni istayotganimni o'zing payqab olishing kerak edi, – dedi Nevada quvonchdan ko'zları yonib. – Bu qor quyuniga men o'zim ham g'am qilmayapman. Ishonasanmi, hattoki kunduz kungi dabdabali to'ylarni ham yoqtirmas edim. Faqat, Jilbert, to'yimizga guvoh sifatida kimnidir taklif qilsang yaxshi bolardi. Axir bu bizning dafn mafrosimiz emas, shodiyona kunimiz bo'ladi-ku, shunday emasmi?

– Boplading, – deb xitob qildi Jilbert. – Men ham bunday bo'lishiga qarshiman, albatta. Bir daqiqa shoshmay turgin, Nevada, men bitta odamga tez telefon qilib olishim kerak.

Jilbert narigi xonaga kirib telefon go'shagini ko'tardi-da, epchillik bilan raqamlarni tera boshladi.

– Senmisan, Jek? Uyqungni buzmadimmi, og'ayni? Hoy, uyg'onsang-chi! Menman, Jilbertman, eshitsang-chi. Oh, Xudoyim-ey! Menga qara, Jek, eshit, men hozirning o'zida uylanyapman, tushunyapsanmi? Ha, xuddi shunday! Opangni ham uyg'ot, menga gapirmay tur, faqat eshitib tur, xo'p? Opangni ham olib kel! Butun dunyoni suv bosadimi, o't bosadimi – menga baribir! Ikkalang tezda menikiga yetib kel! Ha, ha, Nevada ham shu yerda, kutib turibdi. Biz o'zi allaqachon

unashtirilib bo'lganmiz. Qarindoshlar o'rtasida ayrim e'tirozlar sababli shu yo'lni tanladik. Bo'ldi, bo'ldi, boshqa gapga o'rin yo'q! Gap tamom! Kelasanmi? O'zimning do'stimsan-da! Tezroq kelishing uchun senga yollanma mashina chaqirib beraman. Bo'ldi, uyg'on, Jek! Men senga ishona-man, do'stim!

Jilbert Nevada uni kutib turgan xonaga qaytib kirdi.

– Eski qadrdonlarim Jek Peyton bilan uning opasi hozir shu yerga o'n besh daqiqa o'tar-o't-masdan yetib keladigan bo'ldi, – deb tushuntirdi u. – Ammo Jek qurmag'ur yomonam tebsa-tebranmas-da, tentakvoy! Hozirgina uni shoshiltirib telefon qilib chiqdim. Hash-pash deguncha yetib kelishadi. Bilasanmi, Nevada, men hozir dunyodagi eng-eng baxtli odamman! Bugun senga yuborgan xatimni nima qilding?

– Men ham allaqachon shu qarorga kelib bo'ldim, Jilbert, – deb javob berdi Nevada, shunday deb yigit unga yuborgan maktubni paltosining tagidan sug'urib chiqardi.

Jilbert xatni konvertdan chiqardi-da, unga diqqat bilan razm soldi.

– Qoq yarim tunda uyimga chaqirib olganim senga biroz g'alati tuyulmayaptimi? – deb so'radi u.

– Nega endi? Yo'q, – dedi Nevada, uning ko'z-lari samimiyat bilan chaqnab turardi. – Balki, senga biror-bir yordamim kerak bo'lib qolgandir, deb o'yladim. Basharti qalin do'stim ekansan, bu yerda qanday noo'rin harakat bo'lsin? Men hammassini to'g'ri tushundim. Hatto qor gupullab yog'ib turgan bo'lsayam, parvo qilmadim. Jilbert, men sen to'g'ringda hech qanday yomon xayolga bormadim.

Jilbert qo'shni xonaga uchib kirdi-da, qor va shamoldan himoyalash uchun bir palto va issiq kiyimlarni ko'tarib chiqdi.

– Mana bu paltoni egningga ilib ol, – dedi u Nevadaga qalin paltoni uzatarkan. – Taxminan bir yarim milcha yo'l yurishimizga to'g'ri keladi. Tentak Jek bilan uning opasi ham hademay ke-lib qoladi, – shunday deb Jilbert ham paltolardan birini kiyib oldi. – Oh, Nevada, – dedi u, – esim qursin, anavi kechki gazetamning birinchi sahi-fasiga shundoqqina ko'z qiringni tashlab, unda nimalar yozilganini menga aytib bera olasanmi? Bu, menimcha, sen yashagan yer haqidagi xabar bo'lishi kerak, albatta, sen uchun qiziqarli ma'lumot bo'ladı.

Jilbert o'zini xuddi paltosining tugmalarini qadash bilan mashg'ulday qilib ko'rsatib, Neva-daning harakatlarini zimdan kuzatdi. So'ngra o'girilib qaradi-da, Nevadaning joyidan qo'zg'a-lolmaganini ko'rdi. Qiz unga g'alati qarash, ta'na aralash nigoh bilan boqib turardi. Uning yonoqlari boyagina ko'chada urgan sovuq va qordan hamon qizarib ketgan, ammo ko'zlari qat'iylik bi-lan chaqnar edi.

– Jilbert, men senga aytmoqchi bo'lib yurgan-dim, – dedi u asta, – baribir, bir kunmas bir kun buni o'zing ham bilib olarding, shubhasiz. Gap shundaki, Jilbert, men hamma narsadan oldin, biz turmush qurishimizdan oldin, umuman olgan-da, eng avvalo, bir gapni aytib qo'yishim lozimki, men bir kun ham maktabga borgan emasman. Ha, Jilbert, dadam meni bir kun ham maktabga yubormagan. Shu yoshimgacha men na o'qishni va na yozishni o'rganmaganman, loaqal bitta

so'zni ham eplab yoza olmayman. Ana endi agar rozi bo'sang...

Nevada gapini tugatar-tugatmas, Jilbert uni eshik tomon boshladi, kutishga vaqt yo'q edi, ular tezroq ibodatxonaga yetib borishlari zarur edi.

V

Marosim o'tgandan keyin, janob Jilbert Uorren bilan Nevada Uorren xonim o'z uylari tomon usti yopiq izvoshda qaytishar ekan, Jilbert xotiniga gap qotib goldi:

– Nevada, senga bir gap aytaymi endi? Sen chindanam kecha yuborgan xatimda nima deganimni bilishni istaysanmi?

– Qani, ayt-chi! – deya rozilik bildirdi xotini unga mehr bilan boqarkan.

– Yaxshi, eshitib tur, so'zma-so'z qilib aytaman unda, – dedi Jilbert, o'sha xatimda mana bunday deb yozgandim: – *Mening ardoqli malikam miss Uorren! Sizning gul bo'yicha fikringiz mutlaqo to'g'ri edi. U rostdanam siren emas, balki gortezi-ya guli ekan.* – Bo'ldi. Bundan boshqa gapni yozmagan edim.

– Ha, mayli-da, – dedi Nevada baxtidan gul-gul ochilib, – qo'y endi, unuta qolaylik o'sha xatni! Baribir sen u hazilingni menga emas, Barbaraga qilgansan-ku!

Qandilat YUSUPOVA tarjimasi

USHLAB TURILGAN XAT

Yigitlar aniq yanglishishdi. Ular Xarli Pedltonni o'g'irladik, deb o'yladilar. Biz u bilan rostakamiga o'xshashmiz, faqat u – „Pedlton aerochanas“ firmasining xo'jayini, men esa bor-yo'g'i uning xizmatchisiman.

Bu voqeа dushanba kuni, tushga yaqin, janob Pedlton kabinetining eshigini ochib qabulxonaga nazar tashlagan va unda birgina odam – sizning sodiq xizmatchingizni ko'rganida bo'lgan edi.

U menga mashina kalitini uloqtirdi.

– Uilber, mashinamni hozirlang, moyning miqdorini va shinalardagi bosimni tekshiring. Kechqurun Medisonga boraman, vaqtim yo'q...

– Xo'p bo'ladi, ser, – dedim va paltomni ilib pastga tushdim.

Avtomobillar to'xtash joyidagi yozuv butun dunyoga „Pedlton“ deb jar solardi. Men xo'jayining „linkoln“i oldiga keldim.

Biroq, kalitni qulfga solmagan edim hamki, orqamda och yashil sedan kelib to'xtadi va undan ikki yigit sakrab tushdi.

Ular meni tutib olib, o'zlarining mashinasi orqa o'rindig'ining poliga tiqqancha bosishdi.

– To'xtang, o'zi nima gap? – so'radim men.

Ustimda o'tirgan yigit menga kinoyali qaradi.

– Bu o'g'irlilikmi? – tinchlanmadim men.

– Aynan shunday, janob.

Men kulib yubordim.

– Unda qovun tushiribsizlar, yigitlar. Mening ismim Uilber Krouford. Sizlar esa, tushunishimcha, janob Pedltonni o'g'irlamoqchi bo'lgansizlar.

– Jim bo'l, – orqamdagи beparvolik bilan g'ul-duradi.

Men tag'in qo'shig'imni boshladim, ammo biqinimdan tepki yedim va taqdirga tan berishga qaror qildim.

Mashina polida yotgan odamga har qanday safar adoqsiz ko'rindi. Tusmollahim bo'yicha, mashina mayda shag'al ustida pokrishkasini sharaqlatib to'xtatgunicha ikki soatdan ko'p vaqt o'tgan edi.

Mening o'g'rilarim o'rtasida kechgan suhbatdan shuni bilib oldimki, haydovchining ismi Maks, ustimda o'tirgan yigitniki esa Klarens ekan.

Nihoyat, so'nggisi biqinimdan oyoqlarini oldi.

– Tush, yetib keldik.

Biz firma yaqinidagi nochorgina qishloqchada edik. Men juftakni rostlab qolmoqchi bo'ldim, biroq Klarens tirsagimdan mahkam ushlab oldi va uy ichkarisiga itarib soldi. U yerda men yana aniqlik kiritishga taraddudlandim.

– Mening ismim Uilber Krouford, hech qanaqa Pedlton emasman. Firmada ishlayman, lekin uning egasimasman.

– Ha-ha, – devonaday baqirdi Klarens, – ilohiy haqiqat!

U meni ikkinchi qavatga sudrab olib chiqdi va tor xonaga itarib kirgizdi. Qulf sharaqladi va men yolg'iz qoldim. Yagona deraza mustahkam panja-

ra bilan to'silgan edi. Ular hammasini oldindan o'ylab qo'yishgan, shekilli.

Men uy oldida turgan mashinaga nazar tashladim. Balki, u o'g'irlangandir? Biroq o'g'irlangan mashinani ikki soatdan ortiq haydash juda qiyin, ayniqsa, unda garovdag'i odam bo'lsa. Mashina anavilardan biriga tegishli bo'lsa kerak. Shu payt o'ylab qoldim: raqamini eslab qolish lozim.

Hamma joyni tekshirib ko'rib, shamolpurkagich panjarasini ko'rib qoldim va emaklab pastga engashdim.

Pastda, mehmonxonada Maks va Klarens televizor orqali yangiliklar dasturini ko'rishayotgan edi.

„Bugun tushda „Pedlton aerochanasi“ zavodi yaqinidagi avtomobillar to'xtash joyida Uilber Krouford o'g'irlab ketilgan. Uni ikki kishi qanday qilib mashinaga kirgizayotganini payqagan guvoh mashina raqamini ko'rish mumkin bo'lma gan uzoqlikda bo'lgan. Uning so'zlariga ko'ra, mashina oxirgi modeldagi och yashil sedan bo'lgan. Politsiya ehtimoli bo'yicha, o'g'rilar Kroufordni Xarli Pedlton, firma prezidenti deb o'ylab adashishgan...“

Kclarens so'kindi va stuldan turdi. Uning zinadagi qadam tovushlarini eshitdim. U eshikni lang ochib yubordi va menga tirg'aldi.

– Demak, sen rostdan ham Xarli Pedlton emasan?

- Sizga tushuntirishga uringanimdek.
U menga darg'azab nigoh bilan o'qraydi.
- Demak sen uchun bir sent ham ololmaymiz.
- Ko'rib turganingizdek, – jilmaydim, – endi meni qo'yib yuborsangiz ham bo'ladi.

Klarens sukulga cho'mdi.

– Nega endi biz seni qo'yib yuborishimiz kerak?

Tomog'imga havo tiqilib qolay dedi. Vaqtini cho'zish kerak edi.

– Umuman olganda sizlarga qandaydir naf keltilishim mumkin. Yaxshigina o'lja. To'lov talabi bilan Pedltonga xat yo'llang.

– Nega? U sen uchun ikki yuz ming to'laydimi? Oddiy xodim uchun-a?

– To'lamay bo'pti. Gazetachilardan qo'rqadi. Meni taqdir zulmiga tashlab qo'ysa, u haqida nimalar deb yozishlarini tasavvur qilavering. Uni odam emas, maxluq deb atashadi. Nima kerak unga bunaqa reklama? Agar u men uchun o'sha arzimas ikki yuz mingni to'lasa, odamlar uni qahramon sanaydi.

– Ehtimol, bunda biror narsa bordir, – o'ylab ko'rib rozi bo'ldi Klarens.

Men shasht bilan bosh irg'ab ma'qulladim.

– Anaa. Butun Amerikani uning aerochanasi egallaydi. Hali ishlab chiqarishni kengaytirishiga to'g'ri keladi. Pullar daryo bo'lib oqadi...

– Bo'pti, chalg'itma! – o'shqirdi Klarens. U meni pastga olib tushdi va qog'oz hamda sharikli ruchka berdi. – Aytganimni yoz: „*Ular men uchun ikki yuz ming dollar talab qilishyapti. Pullarni bankdag'i yopiq hisobga o'tkazing. Muddat – bir hafta.*“

Konvert ustini to'dirdim va markani yopish-tirdim, keyin Klarens meni yuqoriga eltab qo'ydi. Endi meni o'ldirmasliklariga umid qilsam ham bo'laverardi. Balki, yana boshqa bir xat yozishga to'g'ri kelib qolar?

Oradan dushanba, seshanba, chorshanba... o'tdi. Payshanba kuni ertalab xavotir ola boshladim, xat ko'zlangan maqsad bo'yicha yetib bordimikan?

Tush vaqtি soat ikkida derazadan mashinalarning uydan yarim mil narida to'xtaganini ko'rdim. Ulardan odamlar tushib keldi va hudud bo'ylab yoyilib, firmaga qarab yashirincha yaqinlasha boshlashdi.

Men shamol purkagich tuynukka televizor tomosha qilayotgan Maks va Klarensni kuzatish uchun engashdim. Politsiya xonaga otilib kirdi. To'satdan qo'lga tushgan o'g'rilar o'sha ondayoq taslim bo'ldi.

Pastga tushganimda Klarens bo'lgan voqeadan ajablanayotganini baralla oshkor qilardi.

– Bizni qanday topdingiz? – katta politsiyachidan so'radi Klarens.

U miyig'ida kulib qo'ydi.

– Xat konvertidan. Pochta indeksi noto'g'ri edi, xatni ushlab turishga to'g'ri keldi. Indeks shunchalar ahmoqona ediki, balki, janob Krouford bizga qandaydir muhim narsani, masalan, mashina raqamini xabar qilmoqchi bo'lgandir, deb o'ylab qoldik. Shunday bo'lib chiqdi ham. Biz raqamni tekshirib ko'rdik va bu och yashil sedan kimga tegishli ekanini bilib oldik.

Maks Klarensga xo'mrayib qaradi.

– Qanday qilib mening mashinam raqami yozilgan xatni jo'natding-a?

Klarens yelka qisdi.

– Bu la'nati raqamni bilishi qayerdan kelsin xayolimga?

Ishda meni qahramonlardek kutib olishdi. Keyingi dushanba kuni esa janob Pedlton kabine-tining eshigini ochib nazar tashladi va boshqa hech kim yo'qligini ko'rib menga mashina kalitini uloqtirdi.

— Uilber, mashinamni hozirlang, moyning miqdorini va shinalardagi bosimni tekshiring. Kech-qurun Medisonga boraman, vaqtim yo'q...

Bu safar meni hech kim o'g'irlab ketgani yo'q.

Sarvinoz OMONOVA tarjimasi

YOZGI KO'YLAKDAGI QIZLAR

Ular Brevutni tark etib, Vashington maydoni tomon yayov yurib ketayotganlarda beshinchı ko'cha saxiy quyosh nurlari ostida yorishib yotardi. Hatto, noyabr kelganiga qaramay, hali kun ancha iliq, atrofda esa yakshanba tongi nafasi ufurar edi: ravon g'uvullagancha oqayotgan avtobuslar oqimi, po'rim kiyinib olgancha juft-juft bo'lib qo'ltiqlashgan yoshlар va boshqa odamlar, nihoyat, osuda dam olmoqlik uchun deraza tuy-nugi mahkam tambalab olingan jimjit binolar – bularning bari hordiq chiqarish kunining yorqin lavhalari bo'lib, butun tevarak-atrofga maroqli kayfiyat va yoqimli huzur bag'ishlab turardi.

Mana shunday zarrin oftob nurlari ostida shahar chetidan o'tib borisharkan, Maykl Frensisning qo'lidan mahkam ushlab oldi. Yoshlar kayfiyati rosa chog' bo'lib, yuzlarida tinmay nimtabassum jilva qilar, negaki kecha kechqurun uyquga biroz kech yotishganiga qaramay, tiniqib uxbab, yaxshilab nonushta qilishgan, buning ustiga, bugun yakshanba edi. Maykl yo'l-yo'lakay paltosining tugmalarini yechib tashladi va kiyimi mayin kuz shamolida hilpirab ketishiga qo'yib berdi. Har ik-kisi ham bir so'z demay, jim ketishar, Nyu-Yorkning aholisi eng ko'p, gavjum joylarida hatto tanish yosh chehralar ro'para bo'lgan kezlarda ham og'iz ochishmasdi.

– Hoy, ko'zingga qarasang-chi, – dedi Frensis to'satdan ular sakkizinchı ko'chani kesib o'tayotgan mahal, – bo'yningni sindirib olmagin tag'in.

Maykl qizning bu gapiga birdan qattiq kulib yubordi, Frensisning o'zi ham unga qo'shilib kului.

– Baribir unchalik ko'zni oladigan darajada jonnem emas ekan-ku, – deya davom etdi Frensis kulib, – har holda, unga qarayman, deb ortingga o'girilib, bo'yningni sindirib olishga loyiq ketvorgan emas-da! Axir, buncha qaramasang unga?!

Maykl tag'in kului. U bu gal oldingisidan qat-tiqroq kului, lekin kulgisi unaqa tabiiy chiqmadi. Chunki uning ko'z oldida boyagina ko'rgani – kuz kunlarida ham yengil yozgi ko'ylagini hilpiratgan-cha o'tib ketgan soddagina hurkak qiz paydo bo'l-gandi.

– Qo'ysang-chi bunaqa bema'ni gaplarni! Qolaversa, u qiz unaqa xunuk emas, popukdekki-na edi. Oddiy bir qishloqi oyimqiz ekan-da, nima qipti shunga? Xo'sh, unga qarayotganimni sen qayerdan bila qolding?

Frengis javob berish o'rniiga boshini bir yonga silkidi-da, chetlari ajabtovur tarzda bezatilgan shlyapasi ostidan eriga yovqarash qildi:

– Mayk, azizim...

Maykl xuddi kichkina bolakayga jo'rttaga yengilib bergen katta odam kabi yupatuvchi ohangda kului. – Mayli, mayli, juda soz, – dedi u xotini ko'nglini og'ritadigan birorta gap aytishdan cho'chib. – Izohga o'rın yo'q. Meni kechir. U shunchaki bir qiz edi, xolos. U sen Nyu-Yorkday ulkan shaharda ko'rib yuradigan doimiy oliy toifa chehralardan emasdi. Kechir meni.

Frengis erining qo'liga yengilgina urib qo'y-

di-da, uni tortqilagancha Vashington maydoni tarafga sudrab ketdi.

– Bugun ajoyib tong, – deya xitob qildi u biroz-dan so'ng, – qara, bu eng ajoyib tong! Bilasanmi, sen bilan ertalabki nonushtani birgalikda qilsam, butun kun davomida maza qilib yuraman.

– Aha, bu senga tetiklantiruvchi eng zo'r vosita ekan-ku, a? – sho'x ovozda hazillashdi Maykl xotiniga yuzlanib. – Tonggi pardoz ham. Mayk bilan shirin pahlavalar hamda qaynoq qahva se ning kunlaringni xush o'tkazish uchun eng zo'r vosita! Qoyil!

– Ayol kishi uchun bu eng katta baxt-ku, axir. Sen tun bo'yi uxlading, men esa seni yo'qotib qo'ymaslik uchun arqondek eshilib chor-atrofing-ni o'rab yotdim.

– Haa, osuda shanba oqshomi, – dedi cho'zib Maykl o'tgan tunni eslashga uringan qiyofada, – mayli, bunaqa tizginlaringga izn beraman. Faqat o'zing qiyinalib qolmasang bo'ldi.

– Menga qiyin bo'lgani – sen kundan kunga ayiqdek semirib ketyapsan. Axir, bu ketishingda menga atrofingni qo'riqlash oson bo'lmay qoladi.

– Nahotki? Rost aptyapsanmi? Nima, sen bir vaqtlar Ohiodan kelgan ko'r kam yigitni esingdan chiqardingmi?

– Nega endi? Esimda turibdi, – dedi Frensis boshini mag'rur ko'targancha hazil aralash, – faqat, menga xuddi o'sha yer ma'qul kelgandi-da!

– Va menga ham! Xuddi o'sha xotin ma'qul edi, – javob qildi Maykl ham bo'sh kelmasdan.

– Kallamga bir fikr kelib qoldi, Mayk, – dedi Frensis birdan jonlanib.

– Mening xotinimda fikr uyg'ondi. O'sha ko'r-gan qizim haqida emasmi tag'in?

– Kel, – dedi Frensis erining gaplariga e'tibor bermasdan, o'zining qizg'in fikrini o'zi bajon-u dil quvvatlagan holda, – kel, Mayk, bugun biz kun bo'yи hech kimni ko'rmaymiz, ko'zlarimiz faqat bir-birimizda bo'ladi! Faqat sen-u men... Hech kim bilan ishimiz bo'lmaydi, atrofga zig'ircha ham parvo qilmaymiz, boshqalar nima qilyapti, nima deyapti, ko'rmaymiz, eshitmaymiz, bugun faqat ikkimizgina yashaymiz. Nima deysan, sen gaplarimga tushunding-a, Mayk?

– Ohoo! – dedi Maykl xotinining yangi g'oya-sidan behad ajablanib. – Oliy g'oyalalar hukmdori! Nahot atrofdagi odamlar biz uchun hech kim bo'lmasa? Nahot biz tanigan va bilgan yoxud yoqtirgan odamlarimizni indamay befarq qoldirib ketaversak?

– Unaqa emas, aqli bo'sang-chi, Mayk! – dedi Frensis astoydil ranjib. – Men jiddiy aytyapman, axir.

– Yaxshi, men ham jiddiy eshityapman.

– Men o'z qaylig'im bilan kun uzog'i sayr-u sayohat qilmoqchiman. Men uni tanho mengagini gap qotishini va, shuningdek, yolg'iz menigina tinglashini istayman! Axir, buning nimasi yomon? Sen meni zig'ircha ham tushunmayapsan, chunki doim o'zingni o'ylaysan...

– Xo'p, bizni bundan nima to'xtatyapti? – dedi Maykl xotini yosh boladay xafa bo'lganidan ensasi qotib. – Kim meni yakshanba kunlari o'z xotinimga qarashimga monelik qiladi? Gapir-chi, kim?

– Jin ursin o'sha Stivensonlaringni! – deb yubordi Frensis qizishib, – ular bizni naq yarim tungacha uxlatishmadı, ustiga ustak butun qishloq qizlarini bazmga yig'ib kelishibdi.

– Haa, yaramas Stivensonlar, – dedi Maykl bir-dan ma'yus tortib, – yashashni bilishar ekan ya-ramaslar. Bemalol hushtak ham chalishar ekan, bemalol qattiq kulib, xaxolashar ekan. Birov ayb qilmasin, deb nafasiniyam o'ta madaniy tarzda olishmas ekan, bizga o'xshab. Ozod va erkin Sti-vensonlar! Lekin biz boshqacha odam, oliy davra kishilarimiz. Men va xotinim ulkan Nyu-Yorkda kiborlardek yashab, to ko'nglimiz aynib ketgu-nigacha faqat bir-birimizdan ko'z uzmay, butun umrimizni ana shu tarzda o'tkazishimiz kerak.

– Nima, bu hayot emasmi? – dedi Frencis eri-ning yuziga hayron bo'lib boqqancha.

– Hayot, – dedi Maykl xotiniga qaramasdan.

Shunda Frencis bo'ynini cho'zdi-da Mayklning qulog'i uchidan ohista o'pib qo'ydi.

– Hayotim, – dedi Maykl miyig'ida achchiq kulimsiragancha, – axir, biz yana beshinchi ko'-chaga borib qolibmiz-ku!

– Oh! Shoshma, shoshmay tur, – dedi Fren-sis hovliqqan ko'yi, – mana, hozir men qaytadan yangi reja tuzib chiqyapman. Mana, qara, sevish-gan ikki yosh uchun Nyu-Yorkda tashkil etilgan yakshanba kunlari! Eng muhimi, ularning bema-lol yaylorashlari uchun pullari ham ko'p! Qalay, Mayk?

Maykl bu gal kulmadi, u endi anchagina jiddiy tortib qolgandi. Yigit aylolga biroz jim tikilib tur-di-da, keyin qat'iyat bilan javob berdi:

– Yo'q, bu yorug' dunyoda pulsiz ham muhab-bat bor.

Qandilat YUSUPOVA tarjimasi

RAHMAT SIZGA, OYIJON!..

To'ladan kelgan bir ayol bo'ylab ichiga hamma narsa sig'adigan katta sumkasi bilan ketib borardi. Chindan ham, sumkaning ichida yo'q narsaning o'zi yo'q edi, albatta, bolg'acha va mixdan boshqa. Sumkaning bog'ichi uzunligidan ayol uni yelkasi osha orqasiga tashlab olgancha ko'cha bo'ylab yolg'iz ketayotgandi. Soat tungi o'n birlar edi, bir payt uning yoniga shuv etib bir bola keldi va ayolning sumkasini yelkasidan sug'urib oldi. Ayol o'ziga kelmay turib, bog'ichi bitta tugmacha bilan qadalgan sumka shart uzi-lib, bolaning qo'lidan tushib ketdi. Sumkaning og'irligidan muvozanatini yo'qotgan bola qo'lidagi bilan birga qattiq yiqlilib tushdi va oyog'i jarohat-landi. Ayol esa bamaylixotir bolaning yelkasidan tortdi va jahl bilan turg'azdi.

– Qani, mening hamyonimni joyiga qo'ygin-chi, – dedi uni qo'yib yubormay. – Xo'sh, qilgan ishingdan afsuslanyapsanmi endi?

Ko'ylagidan mahkam qisilgan bola javob berdi:

– Ha...

– Bunday qilib nimaga erishmoqchi eding?

– Hech nimaga.

– Aldayapsan.

Bu paytda bir-ikki yo'lovchi ularga hayron bo'lib qaragancha o'tib ketdi. Ba'zilari esa shu yerda turib kuzatishga kirishdi.

– Hozir seni qo'yib yuborsam, qochasan, shundaymi?

- Ha, – dedi bola.
- Shuning uchun qo'yib yubormayman ham. Ayol uni mahkam ushlashda davom etdi.
- Men juda afsusdaman, xonim. Meni kechiring!.. – pichirladi bola.

– A-ha, yuzing ham juda kir bo'lib ketibdi. Yaxshisi, yuzingni yuvib qo'yishim kerak. Uyingda birortasi yuzingni yuv, deb aytmaydimi?

- Yo'q...
- Unda bu kech yuvilar ekan-da, – dedi ayol va cho'chigan bolani yelkasidan ushlagancha ko'cha bo'ylab olib keta boshladi.

Bola o'n to'rt yoki o'n besh yashar, juda zaif va yovvoyi, tennis oyoq kiyimi va ko'k jinsi kiygan edi.

– O'g'lim tengi ekansan. Senga nima yaxshi-yu nima yomonligini o'rgatishim kerak. Avvalo, tarbiyani yuzingni yuvishdan boshlaymiz. Qorning ochdir?

- Yo'q, to'qman, meni qo'yib yuborsangiz bo'ldi.
- Seni anavi yerda ketayotib bezovta qilganimidim?

- Yo'q.
- Sen o'zing meni bezovta qilding, o'zing boshlading, to'g'rimi? Endi meni eslab yurasan, ya'ni missis Luella Betes Vashington Jonesni.

Ayol uyiga yetib kelgach, bolani ichkariga kiritdi. Kiraverish kichikkina yemakxona edi, ayol chiroqni yoqdi va eshikni ochiq qoldirdi. Bola

qo'shnilarining uyidan eshitilayotgan ovozlar, kulgilarni bemalol tinglay olardi. Ba'zi qo'shnilarining eshigi ularniki kabi ochiq edi, demak, ayol yolg'iz emasligini ham bilishdi. Ayol haligacha bolaning yelkasidan ushlagan ko'yи xona o'tasida turardi.

– Isming nima, bolakay?

– Rojer.

– Demak, Rojer, hozir yuvinish xonasiga borib, yuzingni yaxshilab yuvib kel.

Nihoyat, ayol bolani asta qo'llaridan bo'shatdi. Rojer bir ochiq eshik tomonga, bir yuvinish xonasi tomonga qaradi. Keyin beixtiyor yuvinish uchun yo'l oldi.

– Suv isiguncha biroz kutib tur, – tayinladi ayol, – u yerda sochiq ham bor.

– Meni qamoqxonaga topshirasizmi? – so'radi bola yuvinish xonasidan turib.

– Yuvinmasingdan turib seni hech qayerga olib chiqolmayman, – dedi ayol. – Men bu yerda yeishiga biror taom tayyorlash niyatida yuribman-u, sen esa hamyonimni olmoqchi bo'lding-a? Sen uyingga kechki ovqatga ulgurasanmi?

– Uyimda hech kimim yo'q.

– Unda birga ovqatlanar ekanmiz-da, bilaman, qorning och qolgan. Axir shuncha mehnat qilib ochqamay bo'ladimi?

– Men faqat zamsh tuqli olmoqchi edim...

– Sen buni hamyonimdan o'g'irlab emas, o'zimdan so'rab ham olishing mumkin edi, – dedi Luel-la xonim, – ha, o'zimdan...

– Oyi! – yuzidagi suv tomchilari bilan unga tikilib turgan bola bu so'zni beixtiyor aytib yubordi. Ular jum qolishdi... Uzoq jum qolishdi. Nihoyat, bolaning yuzi quridi, u nima qilishni bilmay, so-

chiqni olib yuzini yana artdi. Eshik hamon ochiq. Bola hozir shunday borsa, tamom, qochaveradi, qochaveradi...

Ayol kursiga o'tirib, birinchi bo'lib gap boshladi:

– Yoshligimda qo'lim yetmaydigan narsalar meniki bo'lishini juda xohlardim.

Bola qoshlarini kerib ayolga qaradi.

– Ha, shunday bo'lgandi. Seni, hech kimning hamyonini o'g'irlamaganman, deb aldashni xohlamayman. Buni senga aytmoqchi emasdim. Shunday ishlar qilganmanki, buni faqat Xudo biladi, o'g'lim. Xo'sh, ana endi chiroyli bolaga aylanibsitan.

Xonanining narigi chetida gaz plita va muzzona bor edi. Ayol o'rnidan turib, o'sha tomonga ketdi. Ortiga qaramadi: ayol kursiga hamyonini atay tashlab ketgan edi. Bola uni hoziroq olib eshikdan qochib ketishi mumkin. Lekin ayol ortiga qarashni istamasdi. Bola buni sezdi va ayol uni ko'ra olishi mumkin bo'lgan joyga borib turdi. U ishonchsizlik qilishni istamadi.

– Do'kondan biror narsa olib kelishingiz kerak emasmi? – so'radi bola. – Sut yoki biror yegulik... olib kelib berardim.

– Menimcha, yo'q. Sut ichging kelyaptimi? Menda quritilgan sut bor, undan kakaoli ichimlik tayyorlab beraman.

– Yaxshi bo'lar edi.

Ayol muzlatkichdan lima loviyalari va son go'shti oldi. Kakao tayyorladi va hammasini stolga qo'ydi. Ayol boladan qayerda yashashi, o'tmishi, umuman, qiziqtirgan narsalari haqida so'ramadi. Ovqatdan so'ng ayol o'z kasbi – mehmonxonanining

go'zallik do'konida ishlashini va ishi doim kech tugashini, lekin o'z kasbini juda sevishini aytib berdi. Keyin bu yerga keluvchi har xil mijozlar – malla, qizil sochli ispan ayollari haqida gapirdi. U bolaga shirinlik uzatdi.

– Yana biroz yeb ol.

Dasturxon atrofidan turishgach, ayol bolaning qo'liga o'n dollar tutqazdi.

– Bunga zamsh oyoq kiyim sotib olgin. Lekin keyingi safar xato qilma – mening yoki menga o'xshagan birortasining cho'ntagiga qo'lingni suqma. Oyoq kiyim orzusi oyoqlaringni yomon yo'lga boshlamasin. Men biroz dam olay. Senga o'zingni shu yerdan topib ketishingni tilayman, o'g'lim!

Ayol uni tashqariga kuzatib qo'ydi va eshikni yopdi.

Bolaning nimadir degisi keldi, lekin aytolmadi. U ayolning uyga kirib ketishini kuzatib qolarkan, „Rahmat sizga, oyijon!..“, deb pichirladi. Shundan so'ng ular boshqa uchrashmadilar.

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasi

BEGONA MAMLAKATDA

O'sha yilgi kuzda ham hali urush tugamagan, ammo biz ortiq jangda qatnashmayotgan edik. Milan kuz oylarida juda sovib ketar, tun ham ancha barvaqt tushardi. Deraza oynalaridan elektr chiroqlarining birma-bir yona boshlagani ko'rinar va sokin ko'chalar bo'ylab ularni tomosha qilib yurish benihoya maroqli edi. Ayrim do'konlarning tashqarisida turli xil o'yinchoqlar osilib turar, qor kukunlari yasama tulkilarning yungi ustiga o'tirib, dumlarini shamol uchirib o'ynardi. Qotirilib, do'kon eshigi tepasiga ilib qo'yilgan kiyik haykalchasi ham og'ir va ichi bo'm-bo'sh holatda turar, kichkina o'yinchoq qushchalar-da izg'irin dastidan bir-biriga urilib, qattiq shamolda patlari to'zg'ib yotardi. Kuz nihoyatda sovuq, achitqi izg'irin qirrador qoyalarini qor bosgan olis tog'lar tomondan kelar edi.

Biz hammamiz har kuni harbiy kasalxonada jam edik, oqshom tushishi bilan shaharcha bo'y lab istagan yo'llimizdan ketib, biroz aylanib kelardik. Ikkita yo'l suv shoxobchasi yoqalab ketgan bo'lib, bizday majruhlar uchun ancha uzunlik qilardi. Shunga qaramasdani, biz baribir o'jarlik bilan gospitalga qaytish uchun o'sha ariq ustidagi ko'priordan yurib o'tardik. Darvoqe, ariq usti-

dagi ko'priklar uchta edi. Ularning birida bir ayol qovurilgan kashtan yong'ogi sotib o'tirardi. Biz pistako'mir yoqilgan olov oldida turib, ayolning yong'oqlaridan xarid qilar, ularni cho'ntaklarimizga solib, sal isinib olardik. Bu juda yoqimli edi. Kasalxonamiz anchagina eskirib ketgan, lekin shu bilan birga ko'rksamligini hali unchalik yo'qotmagan katta binoda joylashgandi. Asosiy darvozadan kirganingizdan keyin keng hovli yuzasini kesib o'tib, yana boshqa bir darvozadan chiqib keta olardingiz. Shu qadimiy gospitalimizning orqasida g'ishtdan qurilgan yangi pavilyon ham bo'lib, biz bemorlar har kuni mana shu pavilyonda uchrashar, aravachalarimizda o'trgancha o'zimizni o'ta intizomli va sinchkov tutardik.

Ba'zida men o'tirgan aravacha oldiga doktor kelib, gapga tutib qolardi:

– Urushdan oldin eng yaxshi ko'rgan mashg'u-lotingiz nima bo'lgan? Sport bilan shug'ullanganmisiz?

– Ha, futbol o'ynab turardim, – deb javob berardim.

– Yaxshi, – der edi doktor cho'zib, – bu yerdan chiqib olganingizdan keyin hali avvalgidan ham yaxshiroq futbol o'ynaysiz.

Mening tizzalarim bukilmay qolgan, oyog'im joni yo'qdek karaxt bo'lib qotib turardi. Xuddi uch g'ildirakli velosiped haydayotgandek qiyofada edim. Ming urinsam ham, tizzalarim zig'ircha harakatga tushmas, har gal ularni qimirlatishga urinishim bilan aravacham sekin lapanglashni boshlardi. Doktor bo'lsa hadeb ruhimni ko'tarishga zo'r berardi:

– Hali hammasi o'tib ketadi. Siz omadli yigit-siz. Endi yana futbol o'ynaydigan bo'lsangiz, bu safar aniq champion bo'lasiz!

Mening yonimdag'i aravachada qo'llari xuddi go'daknikidek kichkina bo'lib qolgan yoshi katta-roq bir mayor o'tirar edi. U doktor qo'llarini tek-shirayotgan vaqtida menga qarab ko'zlarini qisib qo'yar, ikkita charm tasmasida osilib turgan qo'l'i pastga tushib-chiqarkan, egilmaydigan bo'lib qol-gan barmoqlarini silkitarkan, kulib der edi:

– Biz ham futbol o'ynarmikanmiz, kapitan doktor?

Bir paytlar mana shu mayib-majruh mayor zo'r qilichboz bo'lgan, urushdan oldin Italiyada uning oldiga tushadigan qilichboz topilmagan ekan.

Doktor javob qaytarish o'rniga orqa xonadagi ofisiga kirib, xuddi mayorniki singari kichkina-gina, qovjirab qolgan qo'llar suratini olib chiqar, mayorga nimalarnidir uqtirishga harakat qilardi. Noiloj mayor esa sog' qo'l'i bilan doktor bergan suratni ushlar, unga diqqat bilan razm solar, „Jarohatlarim tuzalarmikan o'zi?“ deb umidsiz ohangda so'rardi.

– Bu baxtsiz hodisa bitta sizning boshingizga tushgan emas, – deya doktor uni yupatgisi ke-lardi.

– Juda qiziq, judayam qiziq, – xayol surgan-chaga ta'kidlar edi mayor, keyin esa qo'l rasmini yana doktorning o'ziga qaytarib berardi.

– O'zingizga ishonasizmi? – deb so'rardi dok-tor unga umid bilan qarab.

– Yo'q, – der edi mayor keskin tarzda.

Gospitalda men bilan tengdosh bo'lgan tag'in uchta yigit bor edi. Ularning uchalasi ham Milan-

dan kelgan, biri huquqshunos, yana biri rassom, uchinchisi esa oddiy askar bo'lishni niyat qilgan ko'ngli toza chapani bolalar edi. Ba'zan biz shu yigitlar bilan birgalashib „Kola“ qahvaxonasiga ketardik. Biz u yoqqa eng qisqa bo'lgan yo'ldan borardik, negaki to'rtalamiz ham aravachada yurardik. Bu yerdagi odamlar bizni ofitser bo'lganimiz uchun yomon ko'rardi. Vino sotiladigan do'kon yonidan o'tib ketayotganimizda har gal kimdir: „A basso gli ufficiali!“¹ deb qichqirardi.

Ayrim vaqtlarda to'pimizga yuzini qora shoyi dastro'mol bilan o'rab-chandib olgan yoshroq yigit ham qo'shilib olardi. Uning burni bilan yuzini qaytadan yasayotgan edilar, shu sababdan butun yuzi o'rab tashlangandi. Bu baxtiqaro yigitcha frontga harbiy akademiyadan kelib qo'shilgan va ilk marta jangga kirgan kuniyoq bir soat ichida yarador bo'lib, ortga qaytishga majbur bo'lgandi. Doktorlar uning yuzini qaytadan yasab chiqishga kirishgan, biroq yigitchaning burnini asliday to'g'ri qilib yaratish nihoyatda mushkul ish edi. Keyinchalik o'sha yigitcha Janubiy Amerikaga borib, qaysidir bir bankda ishlagan emish. Ammo bizga bu kabi voqealar bir zamonlarda, odamning esida turmaydigan qadim davrlarda bo'lib o'tgandek tuyular, biz ularning qay nuqtada boshlanib, qaysi nuqtada tugashini hech qachon idrok qilolmay qolgandik. Nazarimizda butun dunyo faqat urushdan iboratday va u hech qachon tugamaydiganday bo'lib ko'rinar, lekin biz endi janglarda ortiq qatnasholmas edik.

Hammamiz ham urushda medallar bilan taqdirlangandik, birgina yuzi bint bilan chan-

¹ „Yo'qolsin ofitserlar!“

dib tashlangan bolada hech qanday unvon yo'q edi, zotan u hali frontda biror-bir mukofot olish uchun yetarlicha xizmat ko'rsatolmay, yarador bo'lib qolgandi. Rangpar yuzli huquqshunos yigit oldin Arditি degan joyda leytenant sifatida xizmat qilgan va bizda endigina bir dona bo'lgan sharaflı unvondan naq uchtasiga ega edi. Sho'rlik yigit ancha vaqt o'lim bilan yonma-yon yashab, endi-endi undan sal uzoqlasha boshlagandi. Biz – yarador urush ishtirokchilari deyarli hamma vaqt birga edik, gospitalda har kuni yuzma-yuz kelib qolaverardik. Shaharchaning biz uchun eng sevimli bo'lgan „Kola“ qahvaxonasi tomon vino do'konlaridan taralib turgan kuy va qo'shiqlarni ting-lagancha qorong'i ko'chada imillab borarkanmiz, gohida yo'lkalar chetida g'uj bo'lib turgan erkak va ayollar yonidan o'tib ketishga ham to'g'ri kelib qolar va ular bizni qanchalik yomon ko'rib, sassiq gap qilib qolgan paytlarda ham o'zimizni tutib, hech narsa bo'lmagandek yo'limizda davom etib ketaverardik.

Bizning bilganimiz faqatgina qahvaxona edi, xolos. U yerdagi issiqlik, u qadar o'tkir bo'lmagan yorug'lik, tutun va shovqinga to'la xonalar hamda stol atrofida jam bo'lib o'tirgan shaddod qizlar bilan devor va tokchalarda yoyilib yotgan bezakli qog'ozlarni o'lgudek yaxshi ko'rardik.

„Kola“dagi qizlar nihoyatda vatanparvar edi. Ba'zida men shunday o'ylardimki, butun Italiyadagi eng elsevar insonlar ana o'sha qahvaxona qizlari edi. Men hali-hamon ular kabi vatanparvar odamlarni qayta uchratmadim.

Qahvaxonaga kirib o'tirganimizdan keyin hamrohlarim mendan medallarim to'g'risida so'rab-

surishtirib qolishar, ularni qanday xizmatlarim uchun olganimni gapirib berishimga qistashar edi. Men esa ularga g'oyatda chiroyli tilda yozilgan qog'ozlarni ko'rsatar, lekin ulardagi maqtovlar uchun emas, balki vijdonan aytganda, amerikalik bo'lib urushda qatnashayotganim uchungina ko'ksimdagи unvonlarni taqib yurganimni bildirib qo'yardim.

Shu gaplarimdan keyin yigitlarning menga bo'lgan muomalasi biroz o'zgarar, men ularga do'st bo'lishimga qaramay, xuddi ichlaridagi dushman-ga qarayotgandek sovuq nazar bilan qarashar edi. Haqiqatan ham, men bu jangchilarga chin dilimdan do'st edim, ko'nglimda zig'ircha adovatim yo'q, ularni baribir yaxshi ko'rardim. Bu yigitlar esa erishgan mukofotlarini turli qahramonliklari uchun qo'lga kiritgandilar. To'g'ri, men urushda yarador bo'lgandim, ammo urush o'z nomi bilan urush, unda jarohat olish tabiiy hol deb qabul qilinardi. Men aslo yaralarim ustidagi bintlardan or qilmasdim, gohida qahvaxonada kokteyl ichib o'tirgan kezlarimizda o'zimni xuddi hamrohlarim amalga oshirgan qahramonliklarni bajarib, ular olgan unvonlarga men ham sazovor bo'lgandek xayol qilardim; biroq yarim kechada bo'm-bo'sh ko'chalardan, barcha yopilgan do'konlar yondan izg'irin shamolda iloji boricha ko'cha chiroqlari yaqinidan yurishga urinib ketarkanman, yurak-yuragimdan shuni aniq bilardimki, men hech qachon o'sha shovvoz yigitlar kabi qahramonliklar ko'rsatolmas edim, zotan men o'limdan benihoya qattiq qo'rqardim, har tunda bir o'zim karavotimda o'ychan yotarkanman, ajal nafasidan jonim talvasa ichida o'rtanib, qachon va qay

holatda frontga qaytishimni aqlimga sig'dirolmay, miyam og'rib ketardi.

Qator unvonlarga erishgan uchala hamrohim misoli qirg'iy ovlovchi ovchilardek g'alati ko'rinar; ammo men ularning ko'ziga ovlanadigan najotsiz qirg'iyga o'xshab ko'rinsam-da, aslida qirg'iy kabi ojiz va pastkash emasdim; buni ularning o'zlarini ham yaxshi bilar edi, vaziyat shunday davom etarkan, men ulardan asta-sekin uzoqlashib ketdim. Lekin urushda birinchi kuniyoq yarador bo'lgan yosh yigitcha bilan do'stligimiz davom etdi, negaki u hali yosh, qalbi qordek oppoq, har qanday oldi-qochdi gaplardan xoli beg'araz inson edi, uni hammadan ko'ra ko'proq yaxshi ko'rardim.

Bir paytlar eng mohir qilichboz bo'lgan mayor esa frontdagi qahramonliklar-u katta-kichik unvonlar borasida qiziqmas, aravachalarimizda yonna-yon o'tirgan kezlarimizda vaqtini nuqlu mening grammatikamni tuzatishgagina sarflar edi. U mening italyanchamni xo'jako'rsinga oshirib maqtab qo'yari, o'zim ham mayor bilan maza qilib gaplashardim. Bir kuni men unga italyan tili jundayam oson ekanligini, bu tilni o'rganish menga ortiqcha qiyinchilik tug'dirmasligini aytdim, chindanam, italyanchada barcha so'zlarni talaffuz qilish oppa-oson edi.

– Ha, albatta, – deb gapimni ma'qullab qo'ydi mayor ham. So'ngra, – ammo sen italyan grammatikasini o'rganishga urinib ko'rsang yanada yaxshi bo'lardi, – deb qo'shib qo'ydi. Shundan keyin biz grammatika o'rganishni boshlab yubordik va tezda men mayorga o'sha kungi aytgan gapimdan darrov qaytdim, to grammatik qonun-qoidalarni miyamga yaxshilab joylab olgunimcha ma-

yor bilan italyanchalab gaplasholmay yuragimni hovuchlab yurdim.

Mayor gospitalga har kuni kanda qilmay kelib turardi. Uning biror kun ham kelmay qolganini eslay olmayman va shuni ochiq-oydin bilardimki, uning eng yomon ko'rgani nogironlar aravachasi edi. Bizning ham ularni ko'rishga ko'zimiz yo'q, ba'zan jirkanib ketardik, biroq vaqt o'tgani sayin mayorning o'zi bunga ko'p ham e'tibor bermaslikni maslahat berardi. Aravachalar hali yap-yangi bo'lib, uni birinchi bo'lib biz ishlatayotgandik. Qanchalar ahmoqona gap bo'lmasin, mayor buni „Nogironlik nazariyasi“ deb atar edi. Men esa hali ham grammatikani yaxshi o'rgana olmagan, buning uchun qattiqqa'l mayorimiz meni g'irt savod-sizga chiqarib qo'yardi, shunday bo'lishiga qaramay, u baribir men bilan o'tirib olib, anchagina asabi qo'zib, toqat qilib dars o'tar edi. Mayor jus-sasi jimitdakkina erkak bo'lib, doimo tik holatda o'tirar, o'ng qo'li bilan aravachasining tutqichidan ushlab devor tepasiga to'g'ri tikilib turardi. Yarador qo'li ilib qo'yilgan osma tasmlar orasidan karaxt bo'lib chiqib turardi. Bir kuni u mendan:

– Peshanamizga biror baxtli kun bitib, bu do'zaxi urush tugab qolsa sen nima qilmoqchisan? – deb so'rab qoldi. – Faqat grammatikani buzmay to'g'ri javob ber!

– Shtatlarga qaytib ketmoqchiman, – dedim men.

– Uylanganmisan?

– Yo'q, endi uylanmoqchiman.

– Sen, hammang g'irt ahmoqsanlar! – deb o'shqirib ketdi mayor birdan. Negadir uning g'a-

zabi juda qo'zib ketgandi. – Erkak aslo uylanmasligi kerak!

– Nima uchun, sinyor Maggore? – deb so'radim men hayron bo'lib.

– Meni sinyor Maggore, dema! – mayor hali ham g'azab ichida kuyib-yonardi.

– Nega erkak kishi uylanmasligi kerak ekan? – deb so'radim men yana.

– U uylanolmaydi. Yo'q, uylanolmaydi u, – dedi mayor battar jahli chiqib. – Agar u bor narsasini yo'qotishni istamasa, u holda o'zini o'zi bunday sho'rpeshana ko'yga solmasligi kerak. Hayotda erkak kishi faqat yo'qotmaydigan narsalarni topishi kerak!

Mayor g'oyatda alam bilan, adoqsiz hasrat bilan so'zlar, gapirayotgan paytda osmonga bir muddat tikilib qolar edi.

– Lekin nima sababdan u topgan narsasini yo'qotishi mumkin? – dedim men qiziqsinib.

– U baribir yo'qotadi, – dedi mayor endi ma'yus bo'lib qolib. U negadir menga emas, devorga qarab so'zlar edi. Keyin u aravachasiga ko'z tashladi-da, tasma orasiga ilib qo'yilgan yarador qo'li bilan tutqichga zarb bilan bir tushirdi, jarohatlangan qo'li popillab tushib, mayorning soniga tars etib urildi.

– U baribir yo'qotadi! – deb qichqirdi u yana. – Bo'ldi, bas qil! Men bilan tortishaverma!

Mayor shunday dedi-yu, nariroqda yurgan aravachalarni boshqaruvchi xizmatchiga qarab baqirdi:

– Kelib, mana bu la'nati matohni hayda!

Bechora mayor titrab-qaqshagancha, muolaja oladigan xonaga kirib ketdi. Keyin men uni dok-

tordan telefonini berib turishini so'rab, eshikni yopib qo'yanini eshitib turdim. Birozdan so'ng mayor qaytib kelganida men boshqa aravachada o'tirar edim. U boshiga qadron kepkasini kiyib olgandi, to'g'ri mening yonimga keldi-da, yelkamga do'stona qo'l tashladi.

– Kechir meni, – dedi u yelkamga sog' qo'li bilan qoqib qo'yarkan, – senga qo'pol gapirmasligim kerak edi. Bilasanmi, yaqindagina mening xotinin vafot etdi. Shuning uchun sen meni kechirishing kerak, tushunyapsanmi meni?

– Eh! – dedim men chin dildan mayorga achi-nib. – Juda taassufdaman!

Mayor pastki labini tishlagancha g'amboda va ma'yus o'tirar edi.

– Bilasanmi, – dedi u birozdan keyin tilga krib, – bilasanmi, bu judayam-judayam og'ir azob bo'lar ekan! Men taqdirga hech tan berolmayapman!

Mayorning ovozida chuqur g'ussa va dard mu-jassam edi. U mendan ko'zlarini olib qochib, de-raza tarafga boqdi. U yig'layotgan edi.

– Sirayam bardoshim yetmayapti, men o'z taqdirimga ko'nolmayapman! – dedi u nafasi qisib. Shu so'zlarni aytarkan, mayorning ko'zlaridan yosh dumalab tushar, o'zini harbiychasiga tik tutib, adil o'tirgan bo'lsa ham, atrofdagi hech narsani ko'rmas va payqamas, yonoqlariga yoshlari tomgancha, hamon pastki lablarini tishlagan ko'yi asta yonimizdan o'tdi-da, tashqariga chiqib ketib qoldi.

Keyinroq doktor menga mayorning yosh va ko'hlikkina xotini zotiljam bo'lib, bexos qazo qilganini aytib berdi. Baxtiqaro mayor suyukli ayoliga

to o'zi butunlay nogiron bo'lib qolgunga qadar uy-
lanolmasdan, urushma-urush, sarson-sargardon
bo'lib yuravergan ekan. Uning xotini bor-yo'g'i ik-
ki-uch kungina biroz mazasi bo'lmay yotibdi-yu
joni uzilibdi. Ayolning bunday kutilmaganda
olamdan o'tib qolishini hech kim xayoliga ham
keltirmagan ekan.

Mayor uch kun gospitalga kelmadi. Keyin u
yana o'sha odatiy keladigan soatida, faqat harbiy
formasini egniga kiyib olgan holda aravachasi-
da kirib keldi. U qaytgan paytda devorlarda kat-
ta-katta chorcho'pga solingan suratlar hali ham
osilib turar, ular tuzatilgan va tuzatilmagan jaro-
hatlarning har xil suratlari edi. Ilgarilari mayor
xuddi o'zining qo'liga o'xshab ketadigan uchta
rasm qarshisida turib olgancha, soatlab tomo-
sha qilardi. O'sha suratlarni doktor qayerdan to-
pib kelganini men aniq bilmasdum-u, biroq yangi
nogironlar aravachasiga birinchi bo'lib o'tirgan
kishilar biz ekanligimizni yaxshiroq anglardim.
Lekin endi bechora mayorga bu suratlarning ko'p
ham ahamiyati qolmagan, u har oqshom dera-
zadan tashqariga uzoq-uzoq tikilar va mahzun
xotiralariga cho'mgancha chorasisiz o'tirar edi.

Qandilat YUSUPOVA tarjimasи

MUNDARIJA

Nashriyotdan	3
Paulo Koelo. Baxt kaliti haqida rivoyat	5
Gabriel Garsiya Markes. Oq yo'l, janob Prezident!	8
Mark Tven. Hayotning besh tortig'i	44
Jek London. Hayotga muhabbat	47
Jeyms Torber. Oyni olib bering!	76
Ernest Xeminguey. Oddiy tekshiruv	89
Rey Bredberi. Yangi muallima	95
Alvaro Yunke. Atirgul o'g'risi	100
Keyt Shopen. Quvonchli bir soat	108
Oliver Genri. Maktab ko'rмаган qiz	113
Jek Ritchi. Ushlab turilgan xat	132
Irvin Shou. Yozgi ko'yakdag'i qizlar	138
Lengston Xyuz. Rahmat sizga, oyijon!..	143
Ernest Xeminguey. Begona mamlakatda	148

Koelo, Paulo.

Baxt kaliti haqida rivoyat. [Matn]: hikoyalari /

K 54 Paulo Koelo; tarjimonlar Qandilat Yusupova va b. –
T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022. – 160 b.

ISBN 978-9943-8577-0-4

UO'K 821.134.3(81)-32

KBK 84(7Bra)-445

Adabiy-badiiy nashr

BAXT KALITI HAQIDA RIVOYAT

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir	<i>Malika Kamolova</i>
Badiiy muharrir	<i>Bahodir Ibragimov</i>
Musahhih	<i>Zikrilla Mamatov</i>
Sahifalovchi	<i>O'g'iloy Qurbonova</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
09.09.2022 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi $84 \times 108^1 / 32$,
Ofset qog'ozsi. „Bookman Old Style“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 8,4. Adadi 1000 nusxa. Shartnomा № 37-22.
Buyurtma raqami

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

„DIZAYN-PRINT“ va „Yangi asr avlodi“ bosmaxonalarida chop etildi.

„DIZAYN-PRINT“ MCHJ,
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho'ponota ko'chasi, 28-a uy.

„Yangi asr avlodi“ MCHJ,
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Qatortol ko'chasi, 60-uy.



ВАХТ КАЛЫП

НДӨЙДА РИВӨҮДАТ



ZIYO NASHR



fb.com/zoyo.nashr



ziyonashr@mail.ru



SCAN
ME

ISBN 978-9943-8577-0-4

9 789943 857704